

Baisov Axmad Sabijonovich

**JEYMS JOYS VA XURSHID DO'STMUHAMMAD
ROMANLARIDA BADIY XRONOTOPNING
POETIK SHAKLLARI HAMDA
MA'NAVIY-MA'RIFIY G'OYALAR UYG'UNLIGI**

Monografiya

**ZEBO PRINTS
Toshkent-2026**

UDK 821.512.133.09-3

KBK

Baisov A.S. Jeyms joys va xurshid do'stmuhammad romanlarida badiiy xronotopning poetik shakllari hamda ma'naviy-ma'rifiy g'oyalar uyg'unligi. Monografiya. -T.: "ZEBO PRINTS", 2026. 112 b.

Ushbu monografiya antik romanlar hamda zamonaviy o'zbek romanchiligi poetikasida xronotop muammosini qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda badiiy asarda vaqt va makonning uzviy birligi sifatida talqin qilinadigan xronotop tushunchasi M. Baxtin nazariy qarashlari asosida metodologik mezon sifatida qo'llaniladi. Xronotop roman janrining shakllanishi, syujet qurilishi, obrazlar tizimi va badiiy tafakkur evolyutsiyasini belgilovchi muhim poetik omil sifatida tahlil qilinadi. Monografiyada antik avantiyur romanlar (Apuley, Geliodor, Long, Axill Tatiy ijodi misolida) poetikasida yo'l, sinov, uchrashuv, ajralish va taqdir burilishi bilan bog'liq xronotopik modellar tahlil etilib, ularning badiiy funksiyalari ochib beriladi. Ushbu xronotoplar qahramonning ijtimoiy va ma'naviy shakllanish jarayonini ta'minlovchi asosiy mexanizm sifatida talqin qilinadi. Antik romanlarga xos bo'lgan makoniy erkinlik va vaqtning dinamik xarakteri keyingi davr romanlari poetikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatgani ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqotda o'zbek romanchiligida xronotopning milliy tarixiy makon, ijtimoiy muhit va ruhiy kechinmalar bilan uyg'unlashuvi masalasi alohida e'tibor markazida turadi. XX asr va zamonaviy o'zbek romanlarida xronotop syujet rivoji va obrazlar xarakterini belgilovchi asosiy strukturaviy unsur sifatida namoyon bo'lishi ko'rsatib beriladi. Antik va o'zbek romanlari o'rtasidagi umumiyliklar genetik emas, balki tipologik yaqinlik nuqtayi nazaridan izohlanadi. Monografiya doirasida xronotopning yo'l, chegara, sinov va tarixiy vaqt kabi turlari aniqlanib, ularning roman janri poetikasidagi funksional xususiyatlari tizimli ravishda tahlil qilinadi.

ISBN

© Baisov A.S., 2026

© "Zebo prints", 2026

MUNDARIJA

Kirish.....	4
BIRINCHI BOB: ANTIK AVANTYUR ROMANLARDA BADIY	
XRONOTOPNING PAYDO BO'LISH OMILLARI	6
1.1. Xronotop haqida umumiy tushuncha: ingliz nasriga	
tutashuv konsepsiyasi	6
1.2. Roman badiiyati: ma'naviy-ma'rifiy g'oya tashuvida	
yozuvchi uslubi	26
Bob bo'yicha xulosa.....	50
IKKINCHI BOB:	53
BADIYLIK MODUSIDA SYUJET POETIKASI	53
2.1. Roman poetikasida syujetning o'ziga xosligi	53
2.2. Romanda badiiy g'oya hamda syujetga xos unsurlar talqini	
.....	80
Bob bo'yicha xulosa.....	107

Kirish

XX asr adabiyotshunosligida badiiy asarni makon va zamon birligida tahlil qilish masalasi alohida nazariy ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, M. Baxtin tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan xronotop tushunchasi badiiy matnning ichki tuzilishi, syujet dinamikasi va obrazlar harakatini izohlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda¹. Xronotop adabiy asarda vaqt va makonning uzviy birligi sifatida namoyon bo'lib, voqealar rivoji, qahramonlar xarakteri hamda janr xususiyatlarini belgilovchi asosiy poetik omillardan biri hisoblanadi.

Mazkur monografiya badiiy xronotop muammosini antik romanlar va zamonaviy o'zbek romanchiligi misolida qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganishga bag'ishlangan. Antik adabiyotda shakllangan avantiyur romanlar, xususan, Apuley, Geliodor, Long va Axill Tatiy ijodida xronotopning o'ziga xos modellari mavjud bo'lib, ular keyingi davr romanlari poetikasiga kuchli ta'sir ko'rsatgan². Ushbu ta'sir nafaqat Yevropa romanchiligida, balki Sharq va o'zbek adabiy an'analarida ham turli darajada namoyon bo'lgan.

O'zbek romanchiligi XX asrda shakllanish jarayonida milliy badiiy tafakkur bilan bir qatorda jahon adabiy tajribalariga tayanib rivojlandi. Ayniqsa, tarixiy, sarguzasht va falsafiy romanlarda yo'l, sinov, uchrashuv, ajralish, qochish, taqdir burilishi kabi xronotopik motivlar muhim syujet omiliga aylangan. Bu jihatdan antik avantiyur romanlarda kuzatiladigan makoniy erkinlik va vaqtning dinamik xarakteri o'zbek romanlarida ham badiiy qayta talqin qilinganini ko'rish mumkin.

Monografiyada xronotop masalasi faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki janrni belgilovchi poetik mexanizm sifatida tahlil qilinadi. Xususan, antik romanlarda makonning ochiqqligi, geografik ko'lamning kengligi, vaqtning uzluksiz siljishi qahramonning

¹ Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе. – М. Художественная литература, 1975.

² Тронский И.М. *Античная литература*. – М., 1983.

sinovdan o'tishi va ma'naviy yetilishiga xizmat qilgan. O'zbek romanchiligida esa bu xronotopik model milliy tarixiy makon, ijtimoiy muhit va ruhiy kechinmalar bilan boyitilgan.

Tadqiqotda M. Baxtin, D. Lixachyov, Yu. Lotman, I. Sulton, Qo'ng'irotboy Quronov kabi olimlarning nazariy qarashlariga tayangan holda, xronotopning tipologik modellari aniqlanadi va ularning badiiy funksiyalari ochib beriladi. Ayniqsa, yo'l xronotopi, chegara xronotopi, sinov xronotopi va tarixiy vaqt xronotopining roman poetikasidagi o'rni alohida tahlil etiladi³.

Monografiyaning dolzarbligi shundaki, unda antik romanlar va o'zbek romanchiligi o'rtasidagi genetik emas, balki tipologik yaqinlik masalasi ilgari suriladi. Bu esa jahon adabiy jarayonini milliy adabiyot taraqqiyoti bilan uyg'un holda talqin qilish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari adabiyotshunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik, roman poetikasi va xronotop nazariyasini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur monografiya oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tadqiqotchilar, doktorantlar hamda adabiyotshunoslikka qiziquvchi keng kitobxonlar uchun mo'ljallangan bo'lib, roman janrining badiiy tabiatini xronotop nazariyasi asosida anglashga yordam beradi.

³ Фрейденберг О.М. *Поэтика сюжета и жанра*. – М., 1997.

BIRINCHI BOB: ANTIK AVANTYUR ROMANLARDA BADIY XRONOTOPNING PAYDO BO'LISH OMILLARI

1.1. Xronotop haqida umumiy tushuncha: ingliz nasriga tutashuv konsepsiyasi

Insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida mislsiz o'sish, o'zgarishlar, evrilishlar, yangidan-yangi metamorfozalar girdobida shakllanayozdi. Tafakkur va ruh butunligi, his va aql uyg'unligi jamiki mavjudotning ma'naviy olamini boyitish uchun xizmat qildirildi. Insonning ma'naviy immuniteti asrlar davomida badiiy asar bilan mustahkamlandi. Aql, his hamda tafakkur qilishga odatlangan insonki bor, uning mavjudligini tan olish, millatlar, elatlar, qabilalar shaklida yashashga umid bag'ishlash, tana va ruhini muhofaza qilishga oliy qadriyatlar xizmatga buyurildi. Bunday ajib silsilalar hozir ham davom etmoqda. Biroq sanaganlarimizdan bugunimizdagi farq shuki, fan tilida – nanotexnologiya, yangi tipdagi aqlbovar qilolmas axborotlar tig'izlashuvi, ishlab chiqarishning, kapital, intellektual boylik, bilim va zahira to'plash, xoslar uchun. Oliy tabaqadagi biznesmenlar, boylar, amaldorlar uchungina xizmat qiladigan asbob-anjomlar bilan o'rni almashtirildi. Shunday ekan, qariyb uch ming yillik tarixga ega O'rta Osiyo xalqlarida mdaniyat va san'at, antik yunon san'atidan sira kam bo'lmagani, arixtektura va dizayn sohasida ilgarilab ketganimizni hali hamon olimlar aniq tagiga yetib borolganicha yo'q. San'at girbridlashgan O'rta Osiyoda adabiyot ham bir chekkada qarab turgan emas. Antik avantyur romanlardan oziqlanish, miniatyueralar, jozib sehrli tasvirlar, so'z bo'lib ko'chgan asarlar timsolida IX-XI asrlarda Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yassaviy nazariy-badiiy qarashlari, falsafasi idroklagan bo'lsa, XV asrda Alisher Navoiy, XX asrda jadidlar adabiy izlanishlarida yaqqol namoyon bo'ldi. Antik yunon adabiyoti, madaniyati, san'ati va ularning strategiyasi nafaqat Yevropa, Amerika, Sharqu G'arb an'analarini

tamomila yangidan-yangi janrlar, shakllar negizida barqarorlashuviga zamin hozirladi. Bizda esa Qodiriy, Cho'lpon va Fitratlar yaratgan noyob durdonalar bugunimizda urf bo'layozgan adabiy asarlarga doyalik qilgani sir emas. mana shularning barchasida – antik yunon avantyur romanlarining ta'siri sezilarli darajada bo'y ko'rsatganini hech kim inkor qilolmasa kerak.

Har bir badiiy asarning ijtimoiy tabiatidan kelib chiqadigan bo'lsak, undagi ijodkor estetik olami, masala, muammo, mavzuga qay jihatdan yondashgani tarixiy muhit, davrning manzaralari bilan ham uyg'un holda namoyon bo'ladi. Hayot haqiqatining badiiy haqiqatga aylanishi, badiiy haqiqatning inson orzu-umidlarini aks ettirishga qaratilgani esa, antik zamonlardan buyon davom etib kelayotgan tizimli bir falsafaning yuzaga chiqish omillari bilan ham munozaraga kirishadi. Ibtido va olamning intihosi mavjud ekan, odamning umri ham, uning tutimlari, dunyoga qarash manerasi, o'zlikni anglash bosqichlari ham bir-birini to'ldiruvchi ahamiyat kasb etadi. ***Badiiy xronotop, badiiy mazmun, badiiy borliq*** bilan yagona falsafiy-estetik mushohada zalvorining nechog'li tartibli tuzilgani bilan ham aloqaga kirishadi. Inson qachon o'zligini anglab borgan sari, uning tafakkur manerasi ham shunchalik yuksaladi. Bugun biz olib borayotgan tadqiqotimiz yangi o'zbek adabiyotining bir qator ijodkorlarini qiyoslash, jahon adabiyotga ergashish hamda o'zining real hayoti aqidalarini yaratish borasidagi izlanishlariga diqqat bilan nazariy urg'u berib ko'ramiz. Demak, olib bormoqchi bo'lgan tadqiqotimiz badiiy xronotop tushunchasining yangi tipdagi roma-nlar konsepsiyasida paydo bo'lish omillarini tahliliga bag'ishlanadi.

Ibtidodan yuzaga kelgan xronotop tushunchasi haqida ayrim mulohazalar. Dunyo yaratilgandan buyon har bir yaratilgan o'z yashash, umr kechirish maydoni bo'ladi. Bu maydonda jonli va jonsiz predmetlar bizga "gizlangan" yashirin mo'jizalar negizida harakatlanadi. Biz ko'rib turgan olamning, tog'lar, daryolar, vatanlar, qirlaru adirlardagi har bir jism, zarra

muayyan qonuniyat asosida harakatlanadi, yashab, mmr kechiradi. Olamni Odam uchun, u yerdagi barcha maxluqotlardan tortib, tabiat ne'matlariga qadar Odamga xizmat qilishga bo'ysindirilgan ekan, faqat itoatda, e'tiqodda, qaramlikda, tobelikda Allohga sajda qilishga chaqirilgan. Qur'oni karimning quyidagi oyatlarida: *“Esla, farishtalarga: “Odamga sajda qilinglar!” – deganimizda, sajda qildilar, magar iblis: “Sen loydan yaratgan kimsaga sajda qilamanmi?” – dedi* ⁴. Haqiqatdan ham, ulug' kitobdagi oyatlarga diqqat qilinsa, udagi mohiyatni anglaganing sayin makon va zamon (xronotop)dagi ko'z ilg'amas tartibotlarni, fasllar ketidan fasllarning kelishini, kuchli iroda va iymon mustahkamligini bilib olamiz. Shayton (iblis)ning odam bolalarini to'g'ri yo'ldan ozdirishlariga guvoh bo'lamiz. Itoat, tavba va tazarru har qanday mo'min-musulmonni yaxshilikka, ezgulikka, odamiylikka, olijanoblikka tomon yetaklaydi. Bularning barchasi Yaratganning fazli bilan, Odamga qilgan yaxshiligi bilan o'lchanadi.

Din, falsafa, ijtimoiy hayot, ilm-fan, tarixiy an'analar negizida makonning ham zamonning ham o'z o'rni borligi ayonlasha boradi. Badiiy xronotopga sig'maydigan tushunchaning o'zi yo'q. Chunki badiiy asardagi voqelik o'sha makon va zamonda yuzaga chiqar, anglatilar ekan, undagi barcha unsurlar, yer, suv, quyosh, havoni maromdagi harakatlarini yanada tushunib yetishimizga, olam ichidagi odam jumbog'ini teran bilishimizga yo'l ochadi. Shu boisdan, biz olib borayotgan tadqiqotning tarixiy ildizlariga uncha ko'p asr bo'lgani yo'q. Masalaning nazariy jihatiga rus munaqqidi Mixail Baxtin (1895-1975) tomonidan aniqlik kiritilib, antik davrlardan buyon adabiyotda yashab kelayotgan aqidalarni tahlil qilib berganligida, muammoning u yoki bu ko'rinishlariga yondoshganligida deb e'tirof etamiz. Badiiy xronotop nihoyatda keng tushunchadir. “Tafakkur kengliklariga tomon har qanday parvoz faqat xronotop qopqasi orqali bo'ladi”. Jumladan, adabiyotshunoslik lug'atida ushbu masalaga har qanday holatda

⁴Qur'oni karim, Isro surasi. –oyat.

ham ayni tushuncha dastlab adabiyotshunoslikda mavjud bo'lganini ta'kidlash lozim. Mutaxassislarning qayd etishlaricha, zamonmakon (aynan "xronotop" tarzida bo'lmasa ham) tushunchasining adabiyotshunoslikda ilk bor qo'llanishi nemis mutafakkiri I.V.Gyote (1749 – 1832) nomi bilan bog'liq,⁵ – deya bog'liq ekanligini qayd etadi.

M.Baxtin "Romanda zamon va xronotop shakllari" deb nomlangan yirik tadqiqotida qayd etishicha: "Antik zamindayoq romanning uch muhim birligi, romanga xos zamon va makonning uch mushtarak o'zlashtirish usuli, qisqacha aytganda, uch roman xronotopi maydonga kelgan edi"⁶. Darhaqiqat, M.Baxtinning XVIII asr o'rtalariga qadar uch zamon birligi borasidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Yozuvchi qaysi davrning farzandi bo'lishidan qat'iy nazar, o'zi nafas olayotgan borliqning arzi holini, taqdirini. Tarixini, ertangi kuniga ishonchini talqin qilish yo'lidan boradi. Mana shu prinsipning bugungi holati yangi o'zbek adabiyotining mukammal asarlar bilan boyishiga ham jiddiy ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Metafizika, va unga yondosh sohalar olimlari ham xronotop tushunchasini o'zlaricha talqin etganligi bor gap. Albert Eynshteynning ba'zi mulohazalari shular jumlasidandir. Aniq va tabiiy, ijtimoiy fanlar kesishmasida ham **xronotop**⁷ atamasiga ayrim yondashuvlar kuzatiladi. Biroq badiiy makon va zamon tushunchasini ko'plab olimlar talqin etishganki, ularning hech birida joriy adabiyotga doir qarashlar uchramaydi. XX asr boshlariga qadar adabiyotshunoslar mazkur masalani alohida bir monografik planda tadqiq etishmagan bo'lsa-da, aralash holda o'rganishga diqqat qaratganlar.

Turkiy xalqlarda ham, Yevropa va inglizxabon xalqlar adabiyotida "sa'yiyor syujet" tipidagi yunon romanlariga xos

⁵Қаранг: Сорокин Б. «Хронотоп». «Целое – становление – связь». //http://dic.academic.ru

⁶ Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. Tarixiy poetikadan ocherklar. Rus tilidan U.Jo'raqulov tarjimasi.-T.: Akademnashr, 2015.-B. 47.

⁷ Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. Tarixiy poetikadan ocherklar. -T.: Akademnashr, 2015.-B. 43.

voqealar o'z ifodasini topadi. Makonning zamondagi, zamonning makondagi ifodasi ko'pincha jangovarlik xususiyatini o'zida jamlagan voqealar bilan to'yintiriladi. Masalan, "Alpomish"ni olib ko'rganimizda ham qahramonlar, personajlar barchasi sinovdan o'tkaziladi. Dunyo sinov maydoni ekan, yangi davr o'zbek romanchiligida ham bu masala o'z tajassumini topadi. Demak, yozuvchilar, shoirlar, dostonnavislar qaysi va kim haqida so'z yuritmasin, hamisha qahramonlar oldiga bitta sinovni chiqarib qo'yadi. Bu sinov idrok etilayotgan, hayotning barcha qirralarini o'zida jamlayotganligi bilan belgilanadi.

Dostonlarimiz Yevropa antik yunon romanlari aks etgan asarlar bilan ham bo'ylashib, XX asr boshlariga qadar o'ziga xos bir mazmunni jamlagan voqelikka mushtarak jihatlarni namoyon etadi. Faqat Abdulla Qodiriy boshlab bergan roman badiiyatini keyinchalik, xilma-xillashuvini biz G'arb adabiy tratsiyasining ta'siri nuqtai nazaridan ham talqin qilib aniqlashtirish lozimligini unutmasligimiz kerak. Chunki modernizm, realizm va boshqa "izm"larning yuzaga kelishi roman poetikasini ham tubdan yangilanishga uchrashini keltirib chiqardi.

Badiiy xronotopning M.Baxtin bilan bog'liqligi F.Dostoevskiy va yunon avantyur romanlarini tahlil qilganligi yuzasidan tushunib yetamiz. M.Baxtin talqinlarida antik yunon avantyur romanlarida sevgi-muhabbat, nikoh yoshidagi sevishganlar, boylar, yo'qsillar, o'rta hol kun kechiruvchi qatlamlar orasida hamisha tushuniksiz ziddiyatlar bo'lib kelgan va bo'lishi tabiiy ham. Negaki, insonning nafsi, hasadgo'yligi, baxilligi va ko'ra olmasligi, dushmanga aylanib qolish motivlari nasl-nasab tufayli ekanligidadir. Nasl-nasabi to'g'ri kelmagan oila qanday baxtli bo'lishi mumkin? Bu ota-ona xohishi ekanligidan dalolat beradi. Ikki yosh antik eposlarda bir boylik qutqusidan voz kechishga, biri go'zal muhabbatni jamolini zabt etishga bel bog'laganligida ko'rinadi. Qiz esa boy oila yoki bir podshohning yolg'izi, yigit esa o'rtamiyona oilaning aql-zakovatga

to'la, bilagida kuchi bor farzandi bo'lib sahna o'z rollarini ijro etishadi.

Sargo'zashtlilik (avantiyur) romanlariga xos moduslar keyinchalik boshqa xalqlar adabiyotida ham mukammallashib, xilma-xil syujetlarni taqdim etisha boshlandi. Biroq syujetning yigit hamda qiz orasidagi nikoh bilan intiholanganida o'ziga xos tarzda yechim topmasdan, voqealar ularning hayotida davom etishga yuz burgan bo'alrdi. Ikkala yosh antik avantiyur romanlari bilangina ro'yobga chiqmagan. Har bir xalq makon hamda zamonning har xil turiga murojaat qilishgan. Voqelar jonlantirilib, tarixiy jabhada tutgan o'rnini namoyon etib borishgan.

"Folklorshunoslikka oid ba'zi tadqiqotlarda "shart-sinov motivi", "sinov motivi" istilohlari qo'llanadi. Bu bilan tadqiqotchilar sinov motivi singari shartni ham syujetning tarkibiy qismi sifatida talqin qilishadi. Vaholanki, bu ikki motiv o'rtasiga tenglik alomatini qo'yib bo'lmaydi. Chunki qahramon (ertak, hikoyat, qissa, doston qahramoni)ga shart qo'yuvchi (ma'shuqa, hukmdor, raqib, ma'shuqaning ota-onasi) tomonidan muayyan vazifa yuklatilishi tom ma'noda sinov motivi ichidagi kichik bir epizod, bir bog'lovchi halqa sirasiga kiritilishi mumkin. U na ilohiy kitoblarda, na mif, na folklor asarlarida aniq tizimga ega, mustaqil motiv darajasiga ko'tarila olmaydi, sinov motiviga start beruvchi epizod-detall vazifasida keladi, xolos. Ammo sinov epos, roman, doston, qissa, hikoya, ertak kabi og'zaki va yozma adabiyot o'rtasidagi janrlarda umumlashtiruvchi mustaqil tizim, aniq konsepsiya vazifasini bajaradi"⁸, - yozadi prof.U.Jo'raqulov. Mana shu badiiylik nuqtai nazaridan ham "shart-sinov motivi" sargo'zasht voqealarning kuchayishiga olib keldi. Yozuvchi yoki shoir o'zi to'qib chiqarayotgan IDEAL voqealarini sintezlab, saralab, diniy-falsafiy-esetik jihatdan kuchaytirib, mukammallashtirish yo'lidan borardi. Ideal sanalgan har qanday voqelik badiiy makon hamda zamonda

⁸ Jo'raqulov U. Alisher Navoiy "Xamsasida" xronotop poetikasi. -T: Turon-iqbol. 2017. - B.26.

ro'y berardi. Yozuvchi o'zi ham bunga ishonib, baxtli hayot formulasini yaratib qo'yganligini tushunib yetardi.

Badiiy xronotopning eposdan romanga, romandan boshqa janrlarga ham kirib kelanligini untmaslik darkor. Biz ayni masala borasida yana M.Baxtin tadqiqotlarga suyanamiz: **“Birdan”** va **“shu payt”** – bu zamonning nisbatan o'xshash tavsifi yoxud u shunday joyda boshlanib, shunday vaziyatda qonuniy vazifasini o'tashga kirishadiki, ayni lahzadan e'tiboraman aqlga sig'adigan voqealar oqimi uzilib, mutlaq tasodif deb atalgan maxsus mantiq asosida harakat qiluvchi zamonga o'rnini bo'shatadi. “Taqdir o'z o'yinini boshlaganida o'n to'qqiz yoshda edim, bir yildan keyin otam meni uylantirmoqchi edi”⁹. Xuddi tadqir o'yini, **“birdan”**, **“shu payt”** butun roman mundarijasini tashkil etadi¹⁰. Mana shu iqtibos badiiy xronotopning qay tariqa boshlanib, qay tariqa yakun topishiga qaratilmoqda. Aslida, real makon va zamonda ro'y beruvchi har qanday voqelik injodkor konsepsiyasining bir qismini namoyon qiladi. Ayni damda, ushbu makon va zamon tushunchasi hayotga tergan yondashish, muhim umidvorlik, ikki yosh yoki ikki do'stning kutilmagan sargo'zashtlarini asar tabiatiga ustalik bilan muhrlashni dalolatlaydi. M.Baxtin ana shu g'oyani talqin qilganidan yangi davr romanlarida paydo bo'layotgan xronotop shakllari esa o'z-o'zidan aniqlanib boriladi. Dunyo xalqlari g'oyat farqli xususiyatlari bilan ajralib turadi. Romanlar ham xuddi odamlar kabi bir-biridan turfalanadi. Achchiq hayot zarbalaridan tinimsiz aziyat chekkan xalqlarning yashash tarzi ham badiiy asarga: makonga, va zamonga ko'chirilar ekan, yozuvchi eng birinchi navbatda, o'z oldiga juda katta prinsip bilan vazifa qo'yadi. Bu vazifani asta-sekin voqealar rivoji fonida anglatib boradi.

Turkiy xalqlarning o'zaro qadriyatlarini ham eron, yunon, xitoy va rim asotirlarini yodimizga soladi. “Shohnoma” tipiga yaqin asarlarni ham inson mehnati samarasi o'laroq, qadriyatga evrilib qolganini

⁹ Iqtibos Axill Tatiyning asarining ushbu nashridan olindi. –M., 1925.

¹⁰ Keltirilgan adabiyot, M.Baxtin. –B.52-53.

ko'ramiz. Sharq-islom estetikasida, lirikasida ibtido Allohga, keyin Payg'ambarga bag'ishlanib, sifat berilganini esa yangi tipdagi romanlarga andoza bo'lganini his etish mumkin. Chunki ularda bayon, ifoda, ta'riflar e'tiqod nuqtai nazaridan yuzaga klegan. Ana shuning zamirida podsholar, hukmdorlar, amaldorlar, yaxshi-yomon xul egalari, muhabbatga olib boruvchi sargo'zshatlar, voqealar silsilasini yodimizga soladi. Deylik turkiy xalqlarning eposida ham ana shu masalalar mif va asotir shaklida, hali islom kirib kelmagan vaqtlardagi holatini anglashga imkon beradi. Tafakkur rivojlangani sayin, badiiy makon va zamon ham xilma-xillashib, o'zgarib bordi. Buni hech kim inkor qilolmasa kerak.

Roman haqida va xronotop birligi. Roman haqida ayrim mulohazalar haqida so'z yuritilsa, ko'z o'ngimizga darrov "O'tkan kunlar" keladi. Tadqiqotimiz hikoyadan – qissaga, romanga olib boruvchi **makon** va **zamon** haqida bo'lgani bois mulohazalarimizni roman tabiatidagi muammolar xususida oydinlashtirishni maqsad qildik. Prof.D.Quronovning "Roman haqida ayrim mulohazalar" nomli maqolasida yozishicha: "Aslida, romanning ildizlari juda qadim davrlarga borib ta'aladi. Romanga bao'ishlangan ilk maxsus tadqiqotlardan biri – "Romanlarning paydo belishi haqida risola" (1666)ning muallifi Per-Daniel Yue janrning ibtidosini Provans yo Italiyadan izlash xatoligini, uning ildizlarini juda qadimdan, uzoq o'lkalardan qidirish kerakligini ta'kidlaydi. Uning yozishicha, roman antik davrlarda yuzaga kelgan va uzoq asrlar davomidagi rivojlanish jarayonida hozirgi qoliga kelgan. Masalaga tarixiy taraqqiyot nuqtai nazaridan qaragani uchun ham Yue o'z davriga kelib "roman janri" tushunchasi o'zgarganini nazarda tutadi va endilikda roman deganda "o'quvchilarga zavq berish orqali nasikat qilish maqsadida to'qib chiqarilgan sevgi tarixini nasrda mahorat bilan tasvirlagan" asar tushunilishini ta'kidlaydi. "Roman o'qish – vaqtni behuda sovurish" qabilidagi qarashga qarshi o'laroq, Yue qromanning bosh maqsadi har vaft ezgulikning taqdirlanishi, yovuzlikning

jazolanishini ko'rsatish orqali yozuvchiga saboq berish" deb biladi¹¹. Binobarin, prof.D.Quronovning mana shu talqinida haqiqatdan ham, romanning o'zi bir vaqtlar xuddi zavq va shavq berish uchun to'qib chiqarilgan (uydirma, latifa)lar ekanligini ham ko'pchilik G'arb olimlari aytishgan. Undagi voqelarga o'quvchini ishontirish esa juda murakkab ekanligini tan olishgan. Shunday bo'lsa-da, romanlar yozilgan, o'qilgan, ulardagi hayotiy deb bilgan qahramonlarga esa ergashishgan. Asar qahramonlaridagi ibratli xarakterlar, voqealar, hikmatomuz mushohadali munozaralar o'quvchi "bo'shlig'ini", tafakkurini boyitishga xizmat qilgan. Ayni tamoyil har bir qahramonning inson o'laroq yashashi, vaqtlar hamda zamonlar o'tishi bilan katta bir umumlashma hosil qilishga yo'naltirilganini taqozolaydi. Romanning bir davrda boshqacha ifoda qilinishi, fan-texnikaning taraqqiyoti deb qabul qilish lozim.

Epik makon universaldir. Unda ishtirok etuvchi qahramonlardan tortib, voqelar silsilasiga qadar juda yirik umumlashma hosil qiladi. Aytaylik, romanning bir-biriga ta'sir qilishi, tarixiy, ijtimoiy, zamonaviy, ramziy ifodasida yaqqol ko'rinadi. Avval yunon romanlari tarixiy shaxslarning hayotini bir qadar talqin qilishga bag'ishlangan bo'lsa, endilikda romanning o'zi yangi "izm"larning o'zgarishiga zamin hozirlamoqda. Demak, yangi roman ham o'z-o'zidan paydo bo'layotgani yo'qdir. Ana shu o'ziga xosliklar borasida ko'p nazariy mulohazalarni keltirish mumkin.

Antik adabiyotdagi romanlar, grek va rim romanlarining paydo bo'lishi, ularni yuzaga keltirgan jamiyat yemirilayotgan davrga to'g'ri keladi, ya'ni antik romanlar tug'ilgan-u, lekin yashashga qodir bo'lmagan. Mazkur romanlar hali ayrim kishilar taqdiri, urf-odati, jamiyat masalalarini ifodalay olmagan uchun uzoq yashamagan. Shuning uchun ham grek romanlari mashhur "Iliada", "Odisseya" eposlari kabi shuhrat topa olmagan¹². Demak, prof.S.Mirvaliev antik romanlar yashab qolishi mumkin emasligi haqidagi qarashlari

¹¹ Quronov D. Zavqimdan bir shingil. –T: "Akademnashr". 2012. –B.5.

¹² Mirvaliev S. O'zbek romani. –T: "Fan". 1969. –B.14.

adabiyotda e'tirof etilgan. O'z davrida ham. Keyin ham bizgacha yetib kelmaganligi ham tafakkur, mantiq, hali rivoj topmagan bir davrni anglashimizga imkon beradi. Ayni damda, XIX asrdan boshlab "roman" termini yirik asarlarga nisbatan qo'llanilib o'rganila boshlagan.

XX asrning 30-yillariga qadar atamaning yanada ommalashishi kuchaydi. Roman yozish "moda"ga aylanib, yozuvchilar bu borada o'z iste'dodlarini, hunaru maqsadlarini, intilishu qiziqishlarini sinovdan o'tkaza boshlandi. Biroq sho'ro siyosatining zulmi natijasida haqiqatni roman yoki asarda aytish, qattiq ta'qib ostiga olindi. A.Qodiriy, Cho'lpon va boshqa romannavislar bu davrda "muhim" gapini aytib, ayrimlari katta ta'qibga uchrab bo'lgandi. Shu boisdan ham, "kolxozlashtirish" siyosatining avj nuqtalariga chiqishi, katta bir iste'dodlarning yuzaga chiqishiga to'siq bo'ldi. Sababi esa barchamizga ma'lumdir.

Romanlardagi insoniy qadriyatlar qaysi makon, qaysi zamonga xos bo'lmasin, o'zimizning milliy zamindagi o'sish-o'zgarishlarni yodimizga solardi. Buning natijasida yozuvchilar har bir mahalla hayoti, yo'qchilik, amaldorlarning asl basharasi, yoki biror yosh-qiz yigitning orzu umidlari, baxtli bo'lishga bo'lgan intilishlari chegarasida, maishiy muammolar girdobida hayot kechiirishini qalamga olishardi. Rus va Yevropa adiblarida chegarani kengaytirish, tafakkur orqali butun umuminsoniy masalalarga kirib borish holatlari namoyon bo'lib, mana shu dunyoqarash shakllanishiga hissa bo'lib qo'shildirdi.

Romanda ideal odam obrazi. Ideal, komil inson bo'lish har kimga ham nasib etadigan yorliq emas. chunki iymoni zaif, e'tiqodi nomukammal odamdan hech qachon ideal odam chiqmangan. Shuning uchun ham, qodiriy Otabek va Kumush, Anvar va Ra'nolarni muammallashtirishga, hayotdagi prorotiplarini topishga harakat qilgan. Qodiriy so'zga ham, asardagi voqealar oqimiga ham qattiq ishlov bergan. Biror qahramonning kim ekanligini bilmoqchi bo'lsangiz uning nutqidagi diqqat qilinsa anglashiladi. Kumush va

Zaynab obrazini olib ko'ring, Homid yoki Otabek xarakteriga baho bering, ularning nutqidan, xarakterini, xarakteridan, ichki olamini, siyratini bilib olish mumkin. Tarixiy asardagi makon va zamon ham xuddi shunday davrlarni yodimizga soladi. Biz tadqiqotimizning asosiy qismi o'sha davrning qanday bo'lsa, shunday ochib berilganiga emas, vaqtlar o'tishi bilan qahramonlarning nuqsonlari ham ko'rinib borayotganini talqin qilishni nazarda tutganligimizda bilinadi. Dunyo adabiyoti har bir davrning o'z muammolarini ochiqlashga qaratilgani bilan qadrlidir.

Aslida adabiyotdek san'at dunyosi uchun badiiy til juda muhim sanaladi: so'z vositasida obrazning ichki va tashqi olami chiziladi. Barchaga ayon bu haqiqat badiiy adabiyotning murakkab alifosi, albatta. So'z vositasida obraz yaratish usullari yuzasidan maxsus to'xtalishga zarurat yo'q. Bir narsa aniqki, Abdulla Qodiriy so'zga juda-juda e'tiborli edi. Abdulla Qodiriy so'zida insonni o'ziga bog'lab turadigan, insonni o'ziga ohangrabodek tortib turgan quvvat bor. Buni o'quvchi sezmasligi mumkin emas. Aynan so'zning ta'siri bois Kumush o'lgan sahnada kitobxon ho'ng-ho'ng yig'laydi. Aslida bu epizodning o'zi sahnada yig'lab yozilgan. Demak, yozuvchining yurak urishi, qalb sadosi, ko'ngil yig'isi shu sahifalarga ko'chib o'tgan. Adibning badiiy-estetik olami ana shunday sahifalarga abadiy muhrlangandir¹³. Ko'rinadiki, A.Qodiriy ham o'z makon va zamonini juda hayratli, iztirobli va quvonchu shodliklari, qayg'ulari bilan qalamga ola bilgan sanoqli adiblardandir. Mana shu konsepsiya har ikki romanida ham o'z ifodasini topa olgan. Qodiriy yashagan zamonning tutimlari nihoyatda og'ir bo'lgan. Bu davrning og'riqlarini hamisha yodimizga olganimizda shunday ulkan iste'dodning nobud qilinishi, shahod bo'lishi hech birimizni unutishga yo'l qo'yilmaydi.

Yana shuni qayd etish lozim XX asrning 70-yillariga qadar roman va zamon birligida ham ma'lum bir davrning ifodaviy qirralari ak etdi. A.Qodiriy boshlab bergan an'ana o'z-o'zidan paydo

¹³ Karimov B. Qodiriy qadri. –T: "Fan". 2002. –B.46.

bo'lgani yo'q. ***“Moziyga qaytib ish ko'rmoq”*** niyatida obshlangan romanchilik XX asrning 90-yillarida esa jahonga bo'ylasha boshlash borasidagi hikoyadan – qissaga tomon o'sish-o'zgarshilarda ko'zga tashlanadi. Masalan, Sh.Xolmirzaevning 10 ga yaqin hikoyalari jahonbopligibilan ajralib tursa, N.Eshonqulning qissalarida modernistik ifoda alohida bir tadqiqotni tayin etadi. X.Do'stmuhammad, L.Bo'rixon, I.Sulton asarlarida ham mavjud an'analardan tamomila o'ziga xos bir badiiy butunlikni ko'ramiz. Ulug'bek Hamdam nasrining boshlaridagi izlanishlari she'rdan – hikoyaga, - hikoyadan qissaga tutashgan badiiy pafosni his etamiz.

XX asrda yaratilgan romanlarimizda ideal odam obrazi ikki xil tushunchani aniqlashga yordam beradi: birinchisi tarixiy zamon, ikkinchisi sho'ro mafkurasi. Bularning barchasi davrning hayqiriqlari natijasi o'laroq tarix sahifalaridan o'chib keta boshladi. 90-yillarda yozilgan *“Lolazor”*, *“Otamdan qolgan dalalar”* romanlarida esa mavjud tuzumning haqiqiy basharasi aks ettirilgan bo'lsa, keyinchalik dunyo yuzini ko'rgan asarlarimizda jahonga bo'ylashish, o'rganish, shakl, uslub jihatidan alohidalik kasb etishi ko'rinardi. Mana shu asarlarda har birimizga ibrat bo'lgulik hayotiy veqeliklar ifodalansa, ayrimlarida ramziy-majoziy tasvirlar oqimi tajassum topadi.

XX asrning og'riqli hayot tarzi makon va zamonning bir xilda ifodalanishi, sobiq ishchilar, qishloq xo'jaligi xodimlari, quruvchilar hayotidan hikoya qilinsa, ularning har birida g'oyaviy bo'shliq, majburlab yozish tamoyili bo'rtib ko'rinardi. Ana shu jihatdan olib qaralsa, modernistik qamrov 90-yillardan keyin o'ziga xos bir *“izm”*ning mustahkamlanishiga zamin yaratdi. Ingliz adabiyotining dastlabki namunalarida, jumladan, *“Beovulf”* epik dostoni misolida makon ko'proq mifologik va ramziy xarakter kasb etib, zamon esa tarixiy aniqlikdan yiroq, afsonaviylik ruhida talqin etiladi. Bu holat xronotopning epik modeli sifatida namoyon bo'lib, unda qahramon va voqealar ko'proq kosmik tartib, ilohiy iroda bilan bog'lanadi. Vaqt bu yerda chiziqli emas, balki davriy va muqaddar xarakterga ega

bo'lib, inson hayoti ilohiy sinovlar doirasida talqin qilinadi. Keyingi bosqichda, ya'ni Uyg'onish davri ingliz adabiyotida (U. Shekspir, K. Marlo) xronotop yanada murakkablashadi. Ayniqsa, Shekspir dramalarida makon va zamon qahramon ruhiyati bilan uzviy aloqada tasvirlanadi. Masalan, "Gamlet" tragediyasida Elsinor qal'asi nafaqat geografik makon, balki ma'naviy inqiroz, ikkilanish va falsafiy iztirob maydoniga aylanadi. Bu yerda zamon "kechikish", "kutish", "qaror qabul qilish" kabi psixologik holatlar orqali sezdiriladi. Demak, ingliz adabiyotida xronotop asta-sekin tashqi voqelikdan ichki ruhiy olamga ko'chib boradi.

XVIII asrga kelib ingliz romanchiligida xronotop masalasi mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi. Daniel Defo, Genri Filding, Samuel Richardson kabi adiblar ijodida makon va zamon realistik aniqlik kasb eta boshlaydi. Ayniqsa, Daniel Defoning "Robinzon Kruzo" romanida badiiy xronotop markaziy poetik omil sifatida maydonga chiqadi. Orol makoni qahramonning jismoniy yashash joyi bo'lish bilan birga, uning ruhiy kamolot, o'zini anglash va ijtimoiylashuv jarayonini belgilovchi falsafiy maydonga aylanadi. Zamondagi uzluksizlik, mehnat ritmi, kundalik hayot takrori orqali Robinzon shaxsi shakllanadi. Bu jihatdan qaralganda, "Robinzon Kruzo" romanida xronotop sinov va o'zini kashf etish modeli sifatida namoyon bo'ladi. XIX asr ingliz romanlarida esa (Ch. Dikkins, T. Gardi, J. Eliot) xronotop ijtimoiy mazmun bilan boyiydi. Dikkins romanlarida London shahri nafaqat fon, balki tirik organizm sifatida tasvirlanadi. Shaharning tor ko'chalari, kambag'allar mahallalari, sanoatlashuv natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy muammolar zamon ruhini belgilaydi. Bu asarlarda zamon tezlashadi, tarixiy jarayonlar shaxs taqdiriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Natijada, ingliz realizmida xronotop ijtimoiy adolatsizlik va insoniy fojialarni ochib beruvchi muhim badiiy mexanizmga aylanadi.

Modernizm davriga kelib (J. Joys, V. Vulf) xronotop tushunchasi butunlay yangi shakl kasb etadi. Bu bosqichda makon va zamon tashqi voqelikdan ko'ra ichki ong oqimi, xotira va sub'ektiv idrok

bilan belgilanadi. Masalan, Virjiniya Vulfning “Mrs Dalloway” romanida voqealar atigi bir kun ichida sodir bo’lishiga qaramay, zamon retrospektiv va assotsiativ tarzda kengayadi. London ko’chalari qahramon xotiralari bilan qorishib, ko’p qatlamli xronotopni yuzaga keltiradi. Bu holat M.Baxtin ta’kidlagan xronotopning yangi – psixologik-intellektual modelini tasdiqlaydi.

Rus munaqidi roman haqida quyidagilarni bayon etarkan: “grek epopeyasi uchun bu mazmun hech vaqt mazmun bo’la olmasdi: qadim zamonda jamiyat, davlat, xalq bo’lgan, lekin individual shaxsiyat sifatida odam mavjud emas edi, shuning uchun greklarning epopeyasida va shuning kabi dramasida faqat xalq namoyandalari – yarim xudolar, qahramonlar, podshohlar o’rin ola bilganlar. **Roman uchun hayot odamdadir**, inson qalbining, inson ruhining mistikasi, inson taqdiri, xalq hayotiga uning hamma munosabatlari roman uchun boy materialdir. Romanda Revekka albatta malika, yoki Yudif kabi qahramon bo’lishi butunlay lozim emas. U xotin bo’lishi romanga kifoya”¹⁴. Darhaqiqat, antik yunon adabiyotidagi eposdan o’sib chiqqan Yevropa avantiyur romanchiligi Aristotelning “Poetika” asarida ham talqin qilinadi. Roman uchun xamir turush bo’ladigan voqelikning o’zida hamisha bir-biridan jiddiy tafovutlanadigan real manzaralar ham ko’zga tashlanishi tabiiy. Chunki tabiiy va ishonarli bo’lishi uchun yozuvchi badiiy to’qimani jiddiy ishlaydi, xalqning qalbiga yaqinlashadi, muammolarni osmondan emas, oddiy odamlar maishiy turmushidan oziqlantiradi. Mistik-fantastik tasvirlar yozuvchi dunyoqarashi, tasavvurining mahsuli ekanligini ham o’ziga xos tasvirlarda uchratish mumkin.

Aytish joizki, jahon adabiyotiga e’tibor berganimizda, Tomas Melori, “Arturning o’limi”, Tomas Mor “Utopiya”si, Daniel Defoning “Robinzon Kruzo”, Jonatan Sviftning “Gulliverning sayohatlari” romanlarida makon va zamon nihoyatda aniq va tiniq o’z ifodasini topgan. Bu romanlar o’z davrining, balki bugun ham ayrimlari

¹⁴ Белинский В.Г. Tanlangan asarlar. –T: Adabiyot va san’at. 1955. –B.177.

o'quvchilar tomonidan qiziqish bilan mutolaa qilinmoqda. Bu manbalarni keltirishdan maqsadimiz shuki, har bir ijodkor qaysidir ma'noda, boshqa ijodkorlarga adabiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada, bularning har biri bir yaxlit olam manzarasini: makon hamda zamon masalasini qurbi idroki yetganicha tasvirlay olishini tayin etadi. Deylik, jahon adabiyotidan ilhomlangan Ulug'bek Hamdam ijodiyotida badiiy xronotop ham shu tariqa mukammalashib, davrning o'tish manzarasini ham, muammoning ildizi qaerdaligini ham, odamlarning ehtiyoji nimada ekanligini ham ifodalashga katta izlanishlar olib borganini dalolatlaydi.

"Ko'rinadiki, G'arbiy Yevropa romanlarining o'zbek romanlarining paydo bo'lishiga ta'sir yo'li dastlab Sharq mamlakatlari adabiyoti orqali bo'lgan. Chunki bu (1880) yillardan keyin) G'arb va Sharq o'rtasida ma'lum darajada kontakning paydo bo'lishi bilan bog'liq edi. Bir tomondan G'arbiy Yevropa mustamlakachilarining Sharqqa "yurishi" shu davrdan boshlab kuchaya boshlagan. Ayni chog'da G'arbiy Yevropa adabiyoti taraqqiyotiga, jumladan rus adabiyotining rivojida Sharq adabiyotining roli va ta'siri ham ma'lum darajada o'z iziga ega. Masalan, "Ming bir kecha", "Kalila va Dimna", "panchatantra" singari Sharqning yetuk asarlari XI asrlardan boshlab grek, ispan, nemis, ingliz, golland tillariga tarjima qilina boshlagan"¹⁵, – yozadi etadi prof.S.Mirvaliev. Binobarin, adabiy ta'sir, adabiy aloqalar negizida o'zbek romanchiligi ham anchayin yaxlit bir mukammal manzaraga evrila boshlandi. Chunonchi, boshqa biror xalq adabiyotining tadrijiy rivoji o'sha xalq yozuvchilarining yoki millat iste'dodlarining say'-harakatlari bilan bevosita bog'langan bo'ladi. Professor S.Mirvaliev ham ana shu jihatlarni nazarda tutganligi sir emas!

90-yillar boshlarida o'zbek adabiyotida o'nlab jahonning go'zal asarlari tarjima qilina boshlandi. Bu tarjimada yaxshi va vazni og'ir asarlarning yuzaga kelishi adabiyotdagi totalitar rejimning ham, mafkuraning ham qulashini paydo qildi. Dunyo bilan bo'ylashish,

¹⁵ Mirvaliev S. O'zbek romani. –T: "Fan". 1969. –B.66.

haqqoniy millat o'laroq shakllanishimizni ko'rsatib berish, romanning ham, hikoyaning ham, qissaning ham ranginlashuviga olib keldi. Bulari har birimiz chuqur anglashimiz zarur. O'zbek yozuvchilari til va ifoda madaniyatini go'zal bir ko'rinishga yuksalib borayotganini ko'rsatar ekan, adabiyotda badiiy pafos hamda makon kengliklarining tor doiradan, - umummilliy harakat tomon siljib borayotganini kafolatlaydi. Bu borada so'z borganda E.A'zam, M.M.Do'st, X.Davron, N.Eshonqul, Sh.Hamro, L.Bo'rixon, I.Sulton, U.Hamdani kabi millat yozuvchilarining mehnatlari alohida ekanligini qayd etish lozim bo'ladi. Bular har kuni bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni botin qalbi bilan his etib, jahonga ochilgan istiqbolimizning shukuhini yoritishga jazm qilganligini dalolatlaydi.

Prof.U.Jo'raqulov epos va roman, doston hamda tragik janrlar xususida shunday yozadi: "Antik yunon adabiyotida Gesiodning poleteistik (ko'pxudolilik) qarashlar aks etgan (yunon ma'budlari haqidagi) "Teogoniya" asari ancha mashhur sanaladi. Bu asar muallif yashagan davrgacha maydonga kelgan turli mazmundagi mifologik qissa va hikoyalardan tarkib topgan. Keyinchalik Ovidiy va Apuleylar ham Gesiodga ergashib "Metamorfozalar" nomli asar yozishgan. Bu asarlar Gesiod asaridan qator tarixiy voqealar, shaxslar haqidagi axborotlarni qamrab olgani bilan farq qilsa-da, umumiy strukturasiga ko'ra o'nlab mustaqil mif va hikoyalarni bir jild ostida jamlagani bilan sintetizm prinsipini namoyon etadi. Ushbu asarlardagi mustaqil badiiy shakllarni biriktirib turgan narsa **metamorfoza** – evrilish konsepsiyasi va mualliflarning poleteistik e'tiqodidir"¹⁶. Insoniyat bag'oyat azob-uqubatli davrlarni boshidan o'tkazib, shu taraqqiyotga erishgan ekan, qaysi zamonning ilg'or g'oyalari mukammal bo'lsa, keyingi safdagilar ularga e'tirofiy ergashganliklarini ko'ramiz. Bu kuzatishlar negizida har bir yozuvchining o'z uslubiga ega chiqib. An'anadan sira uzoqlashmagan

¹⁶ Jo'raqulov U. Alisher Navoiy "Xamsa"sida xrontop poetikasi. –T: "Turon-Iqbol" nashriyoti. 2017. -B.37-38.

holda, makon hamda zamonni bor-butunicha talqin etganiga guvoh bo'lamiz. Demak, yozuvchi o'z iste'dodini, mahoratini, qalamini charxlab bormas ekan, konsepsiyaga, g'oyaga mukammallik baxshida etolmasligi tayin bo'larkan.

Yunon romaniga xos avantiyur zamon tahliliga yakun yasashdan oldin bir qadar umumiyroq bo'lgan yana bir narsa, ya'ni romanlar syujetini tashkil qiladigan unsur vazifasini bajaradigan alohida mavzular haqida so'z yuritishimiz maqsadga muvofiqdir. Visol – ayriliq, yo'qotish – erishish, izlash – topish, tanish – tanimaslik singari mavzular nafaqat turli davr va tiplarga doir romanlar syujetida, balki adabiy turlarning boshqa janrlari (epik, dramatik, hatto lirik janrlar)da ham muhim tarkibiy qismlar hisoblanadi. Ushbu mavzular (turli janrlarda) turlicha namoyon bo'lsa ham) o'z tabiatiga ko'ra xronotopikdir. Biz bu o'rinda bularning biri – so'zsiz, eng muhimi – visol (uchrashuv) motivi haqida so'z yuritamiz¹⁷, - deya yozadi M.M.Baxtin. Ayonki. Uchrashuv motivi, uchrashuv vaqti, uchrashuv zamonini yozuvchilarning o'z ideali, g'oyasi yoki mavzu nuqtai nazaridan masalani qanday tashkil qilish sababli paydo bo'la boradi. Rivojlanayotgan voqelik muqaddimadan – yechimga qadar, syujetning qism va bo'laklarida zohir bo'ladi. M.Baxtin aniq qilib – uchrashuv vaqtini roman tabiatida xolis, ishonarli va bo'rttirishlarsiz ko'rsatish tarafdori ekanligini keltirib o'tadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak, hayot murakkab ko'rinsada, asar yozuvchisining tafakkuri qanchalik bu masalani yoritishga quvvai hofizasi yeta olishini dalolatlaydi.

O'zbek adiblari har bir asarida bo'lgani kabi portretdan boshlasa, yoki biror qahramonning voqealarni harakatlantirish nuqtai nazaridan boshlasa, demak, adib pozitsiyasi turli xil tasvir birliklarini uyg'unlashtira olish vaziyatidan kelib chiqqan holda yoritadi.

¹⁷ Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. Tarixiy poetikadan ocherklar. Rus tilidan U.Jo'raqulov tarjimasi.-T.: Akademyanashr, 2015.-B59.

Agar yozuvchi romanda *ideal* odam obrazini yoritish maqsadini qo'yishdan boshlasa-yu, uni o'z yo'nalishida mukammal tarzda ifodalab bilmasa bu ham asardagi kemtiklikni namoyon qiladi. Shu boisdan ham, romandagi ideal obraz vaqtning intensiv ko'rinishini tayin etadi. Ideal obraz deganimiz, asarning yarmida o'z pozitsiyasini o'zgartirsa (makon va zamon) tabiatan sodda, ishonuvchan, aldanuvchan, mug'ombirlik qilib bilmasa bu ham nafs degan tushuncha tufayli yana botqoqqa botishi tayin. Bu holat ko'pchilik asarlarda uchraydi. Sh.Xolmirzaevning "Dinozavr" romanidagi – Mahkam; X.Do'stmuhammadning "Bozor"idagi – Fozilbek, U.Hamdamning "Sabo va Samandar"idagi – Samandar, L.Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar"idagi – O'roq, Lola obrazlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Sodda Obrazlarning ideallashuviga (*biz mug'ombirlik deganida birovni haqini yeb, ziyon-zahmat yetkazishni nazarda tutmayapmiz. Ta'kid bizniki – M.Jammatova!*) olib keladigan jahoniy fikrlash tarzi adibning o'zida singdirilgan bo'lishi tayin. Negaki, jahon adabiyotida bu holat mavjud. **Robinzon Kruzo** – qanday qahramon? Daniel Defo xuddi siz va biz bilan orolda qolib ketgan inson haqida har kuni suhbatlashadi. Bu uzundan-uzun suhbatlar natijasida IDEAL qahramon masalasi yuzaga chiqadi. Ayniqsa, uning yog'ochdan kema yasashi-yu, orolga olib borishdagi qiynalishlari, bir o'zining kuchu qudrati yetmasligi, oziq-ovqatning tagi ko'rinib, kelasi bahorda ekib mo'l-ko'l hosil olishi uchun bir qismini saqlashi, har xil ov bilan shug'ullanishi, umuman, barchasida soddalikdan – murakkablik sari o'sish bor. Bu jihatdan olib qaramimizda Otabekda ham, Kumushda ham soddalik, samimiylik ufurib turadi. U.Hamdam yaratgan qahramonlarni-ku aytmasa ham bo'ladi. L.Bo'rixon ham oddiylik formulasi – murakkablik sari ikkiligida roman voqealari, hikoya-yu, qissalarida tamomila boshqacha yo'sinda ochib beriladi. Ular bir makon va zamon yozuvchilari edi. Istiqlool ulug' ne'mat qo'lga kiritilgan payti "o'tish davri" og'riqlarini his etaroq ijod qila boshlashgandilar. Mana shu xususiyat, yangi davr o'zbek

adabiyotining badiiy xronotopini aniqlashda, hamda ideal obrazni kashf qilishda muhim ahamiyatga ega!

Roman badiiy xronotop chegaralarida sarguzaasht kechinmalar harakatlanayotgan personajlarni birma-bir katta sinovlarga mubtalo qiladi. “Bunday xrontopda yetakchilik va hokimiyat faqat tasodifga tegishlidir. Shu bois mazkur dunyoga xos muayyanlik va konkretlilik mumkin darajada chegaralangan bo’ladi. Zotan, har qanday konkretlashtirish, u hududiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy yoki maishiy, bundan qat’i nazar avantyurga xos ravonlikka, erkinlikka soya solgan, tasodifning mutlaq hokimlik missiyasini chegaralagan bo’lur edi. Hatto oddiygina maishiy konkretlashtirish ham insoniy turmushni, inson hayotiga oid zamonni o’zining qonuniyatlari, tartib-intizomi, lozim munosabatlari talabi bilan cheklab qo’yar, voqelik bunday tartib-intizomlar, qonuniyatlar, munosabatlar talabi ostida o’ralashib qolardi. Oqibatda tasodif hokimiyati mutlaq chegaralanar, sarguzatshlar uzviy doiraga torayar, butun faoliyat doirasi makon va zamonning shu nuqtasida aylanib qolar edi”¹⁸. Ko’rib o’tganimizdek, har bir davrning o’z ijodiy konsepsiyalari mavjud. Sargo’zasht tasvirlar (uchrashuv) sahnalari yuqori bo’lgan romanlarda makon va zamon talqini ham fantastik talqinlarga evrilib yangi-yangi moduslarni kashf etishga imkon berishida namoyon bo’ladi.

Robinzon Kruzo – o’n sakkiz yoshga to’lganida g’oyaviy to’lishib, yangi-yangi xayoliy orzulari haqida o’ylay boshlaydi. Tarixga e’tibor berilsa, A.Qodiriyning – Otabek ismli qahramoni endigina burti sabza urib, 20 yoshlardagi yigitga to’ladi. Yozuvchi U.Hamdanning qahramoni – Yusuf ham bobosi bilan suhbatlari (Muhammadjon aka), o’qishni endi bitirib, Toshkyondga otlanish izmida yurgan bo’ladi. L.Bo’rixonning “Jaziramadagi odamlar” asarida esa – O’roq ham xuddi shunday yosh chegarasida. Demak, yozuvchilarning ko’pchiligi bozor iqtisodiyotiga o’tish davridagi yoshni, makonni, zamonni boshidan kechirmoqda. Shu yosh atrofida – kelajak haqida,

¹⁸ Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. –T: “Akademnashr”. 2015. –B.63.

oil, umuman, muhabbat to'g'risida xayolparsatlik qiladi. Bunday talqinlar badiiy xronotopning aniq yechim tomon borishini dalolatlaydi. Ayni chog'da, muhabbat, uchrashuv, oydin-orzular, IDEAL kelajak, komfort hayot aqidalarini namoyon qilishga yo'l ochadi.

Prof D.To'raev: Adabiyotshunoslikda badiiy g'oya to'g'risida gap ketganda, eng avvalo, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy g'oyalardan farqli tomonlarini aniqlab olishga to'g'ri keladi. Badiiy g'oya yozuvchining voqelikni badiiy tarzda hissiy aks ettirishdan bunyodga keladi. Badiiylikning yetakchi belgisi bo'lgan hissiy mazmunni faqatgina badiiy g'oya yaratishi mumkin. Qadimgi tadqiqotlarda badiiy g'oyani pafos deb ham atashgan. Badiiy asar pafosi deyilganda qalblarni larzaga soladigan tuyg'ular dunyosini, to'lib-toshgan his-hayajonlar olamini, biron narsaga haddan ortiq maftun bo'lib qolish ma'nolarini tushunganlar. Hegel badiiy g'oyani "ichki dard" deb baholagan bo'lsa, Belinskiy "jonli ehtiros" yoki "qudratli istak" deb ta'riflagan".¹⁹ Mana shu iqtibosga diqqat qilinsa. Yozuvchi g'oyasi u asarni yaratgan zamonni, hamda makonni, asardagi qahramonlarning yosh va kasb nuqtai nazaridan faolligini kafolatlaydi. Keltirilgan ta'rifning o'ziyoq badiiy-adabiy tafakkur miqyoslarining yangi davr adabiyotidagi shakl, shamoyili nechog'li yuksalib borayotganidan shahodat beradi.

Xronotop tushunchasi nihoyatda rang-barang shakllarda badiiy asarda ko'rinish beradi. Chunki unda zamon tegrasida fikrlayotgan odam bo'lsa taqdirini o'zgartirish borasida o'y so'rayotgan yozuvchi birligida seziladi. Yozuvchi kim va qaysi masalaga qo'l urmasin, ishonch va e'tiqod maslagi nuqtai nazaridan odamlarning har bir xatti-harakatini xolis kuzatuvchi sifatida ifodalanadi. Ana shu ifodalar negizida har bir qahramon doim bir-birlarini tushunib hayot kechirsa, kompozitsion yaxlitlik ham maromiga yetadi.

¹⁹ To'raev D. O'zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi. –T: "Universitet". 2001. –B.41.

Mifopoetik olam sarhadlarini kengayishi ingliz nasrining gullab-yashnagan oltin davri bilan belgilanadi. Chunki u davrda olam va odam haqida tafakkur qilish nihoyatda turfalashdi. Jeyms Joyslar avoldining yutug'i ham ana shu balandlikni tiklashga qaratilgani bilan tahsinga sazovordir. Bunday e'tirof I.G'afurov qo'l urgan muhtasham obida "Ullis" romani badiiyati atrofidagi nazariy-ilmiy, adabiy mulohazalarning kun sayin ortib borayotgani bilan belgilanadi. Mana shu tamoyil inson idrokining hali ochilmagan qo'riq ekanligini dalolatlaydi. I.g'afurov tarjimasining yutug'i ham, muvaffaqiyat olib kelgan masalalar ham o'zbek adabiyotshunosligida yetarlicha o'rganilgan emas. ayni damda, Xurshid Do'stmuhammad badiiy olami roman mana shunday bo'lishi shart degan iddaolarni kafolatlaydi. Keyingi fasllarda roman nazariyasi hamda Xurshid Do'stmuhammadning poetik olami xususida fikr-mulohazalarni yuritishni maqsad qilganmiz.

Xulosa shuki, badiiy xronotop atamasiga odir olib borgan kuzatishlarimiz antik avantyur romanlardan to o'zbek, hozirgi davr yozuvchilari badiiy izlanishlarini qiyoslashga imkon beradi. Negaki, har bir talqin odamning o'zini, shajarasini, butun mohiyatini anglashning katta bir o'zanidir. Mana shu konsepsiya har qanday ifodaning murakkabligini kafolatlaydi. Murakkab epizodlar negizida sodir bo'layotgan voqelik ayni damda kuchli dramtizmni yuzaga chiqaradi. Zero, xronotop hali anglanmagan olam manzarasiga ochilgan bir darichaning bo'lagi desak, xato qilmagan bo'lamiz.

1.2. Roman badiiyati: ma'naviy-ma'rifiy g'oya tashuvida yozuvchi uslubi

Ma'lumki, insoniyat badiiy tafakkurining eng qadimgi davrlaridan boshlab, to shu choqqacha bosib o'tilgan manzilu makonlariga teran nazar tashlaydigan bo'lsak, yozma adabiyot paydo bo'lgunga qadar qanchadan-qancha silsilalarni boshidan o'tkazgani kundek ravshanlashadi. Chunonchi badiiy tafakkur o'z-o'zidan sayqallanib, taraqqiy etib, rivojlanib mana shu konseptual

mohiyatga aylanib qolgan emas. Badiiy tafakkurning har qanday bosqichida adabiy ta'sir, ijodiy o'ziga xoslik, uslub va uning dinmaik o'sish-o'zgarishlari natijasida olamni poetik qabul qilib, uni yagona estetik qamrov jihatidan o'zgartirishga bo'lgan urinishlar hamisha muvaffaqiyat keltirgan emas. Sababi inson ruhiyatining har qanday zamonga moslashuvchanligi o'zi yashab turgan jamiyat muammolari, eng birlamchi ehtiyoji o'laroq payvandlashuvi bilan ham belgilanadi. Jamiyat a'zolarining badiiy so'zga, san'atga, madaniyat va adabiyotga bo'lgan qiziqishlari natijasida roman tabiati ham xilma-xillashib, taraqqiy etib, gibridlashib boradi. Biror xalqning badiiy solnomasiga zimdan nazar tashlaydigan bo'lsak, muammo mohiyati o'z-o'zidan oydinlashadi. Romanning o'zgaruvchan, plastik janr etkanligini inobatga olsak, epik ko'lam Aristotel zamonidan buyon qanchadan-qancha mutatsiyaga uchraganini tushunib olamiz.

Ma'naviy-ma'rifiy g'oya romanda, avvalo, inson konsepsiyasi orqali yuzaga chiqadi. Yozuvchi insonni qanday ko'radi, uni jamiyat va tarix bilan qanday munosabatda tasvirlaydi – ana shu masala roman poetikasining markaziy nuqtasini tashkil etadi. Abdulla Qodiriyning Otabeki, Jeyms Joysning Stiven Dedalusi, Xurshid Do'stmuhammadning Fozilbeki – turli davr, muhit va milliy an'anaga mansub bo'lsa-da, ularni birlashtiruvchi jihat shundaki, ularning har biri axloqiy tanlov oldida turgan shaxs sifatida talqin etiladi. Bu esa roman badiiyatining ma'rifiy mohiyatini belgilaydi.

Yozuvchi uslubi mazkur g'oyaning tashuvchisi sifatida shakllanadi. Uslub – bu faqat til yoki bayon texnikasi emas, balki yozuvchining hayotga, insonga, jamiyatga munosabatini ifodalovchi estetik tizimdir. Shu ma'noda, roman uslubi individual bo'lishi bilan birga, muayyan davrning ma'naviy-ijtimoiy muhitini ham o'zida aks ettiradi. Masalan, Abdulla Qodiriyda tarixiy xotira va milliy o'zlik muammosi markazga chiqsa, Jeyms Joysda shaxsiy ong oqimi, ichki monologlar orqali jamiyatning ma'naviy inqirozi ko'rsatiladi.

Xurshid Do'stmuhammadda esa bozor metaforasi orqali insoniy qadriyatlarning sinovi ifodalanadi.

Roman badiiyatining yana bir muhim jihati – ramziy tafakkurdir. Ma'naviy-ma'rifiy g'oya ko'pincha ramzlar orqali beriladi. "Quyosh botishi", "bozor", "yo'l", "sukunat", "tong" kabi obrazlar nafaqat voqeaviy makon yoki vaqt belgisi, balki falsafiy yuklama tashuvchi poetik belgilar sifatida namoyon bo'ladi. Bu ramzlar yozuvchi uslubining ichki mexanizmini tashkil etib, o'quvchini bevosita xulosa chiqarishga emas, balki mushohadaga chorlaydi.

Shuningdek, roman badiiyatida psixologik tasvir alohida ahamiyat kasb etadi. XX asr romanchiligida, xususan, ingliz va o'zbek adabiyotida qahramonning tashqi harakatidan ko'ra ichki kechinmalarini tasvirlash ustuvorlik kasb etdi. Bu jarayonda ma'naviy-ma'rifiy g'oya qahramon ruhiyati orqali ochiladi. Qahramonning ikkilanishlari, pushaymonlari, e'tiqod va shubha o'rtasidagi kurashi roman g'oyaviy qatlamini yanada chuqurlashtiradi.

Ma'lumki, roman janri polifonik xususiyatga ega. Ya'ni unda yagona muallif ovozi bilan bir qatorda turli ijtimoiy, axloqiy, falsafiy pozitsiyalar ham muomala maydoniga chiqadi. Bu holat yozuvchidan yuksak estetik mas'uliyat talab etadi. Chunki ma'naviy-ma'rifiy g'oya faqat muallif nutqi orqali emas, balki qarama-qarshi qarashlar to'qnashuvi orqali o'zini namoyon etadi. Dostoyevskiy an'analarida shakllangan bu polifonik tamoyil keyinchalik Joys, Kamyu, O'rxan Pamuk va o'zbek romanchiligida Hamdam, Sulton singari yozuvchilar ijodida o'ziga xos tarzda davom ettirildi.

Natijada, roman badiiyati yozuvchi uslubida axloqiy-estetik muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi. Yozuvchi nafaqat voqealarni hikoya qiladi, balki o'quvchini ma'naviy tanlovga chorlaydi, uni fikrlashga majbur etadi. Shu jihatdan roman ma'rifiy institut sifatida ham namoyon bo'ladi. U o'quvchining

dunyoqarashini kengaytiradi, uni jamiyat muammolariga befarq bo'lmalikka undaydi.

Roman haqida tugal qat'iy qoida yo'qki. Uni har bir davr o'z qarichi bilan o'lchab, muammoning atrofida fikr yuritishga odatlanganlar. Romanning tabiatida va janriy-kompozitsion tuzilishida yozuvchi eng birlamchi rol ijro etishi, olamni qabul qilishi, inson ruhiyati, kayfiyati, shajarasi, ideal orzulari, dunyoqarashini keng ko'lamli aks ettirishida qabarib ko'rinadi. Shu boisdan ham, romaniy tafakkur sarhadlari har qachongidan rivojlanib, "siqiq bir olam"ni tasvirlash yo'sinida yuzaga kelayotgan ifoda madaniyatini muvofiqlashuviga zamin hozirlamoqda. Yozuvchilar qaysi mavzuda qalam tebratishidan qat'iy nazar roman qonuniyatlarini tez va oson o'zlashtirish, o'zining chinakam metodlarini yaratish borasida tinimsiz mehnat qilmoqdalar.

O'zbek romani ham o'z-o'zidan paydo bo'lgan adabiy hodisa emas. Uning ilk ildizi folklor o'qib yuruvchi xalq hayotiga ko'zgu o'laroq munosabatda bo'lishni asr ibtidosida Abdulla Qodiriy boshlab bergan an'analarning mahsuli, originali desak, mubolag'a bo'lmaydi. Har qaysiki janr taraqqiy etarkan, mumtoz adabiyotimizda g'azal, ruboiy yoki boshqa janrlar arab, fors-tojik adabiyotidan kirib kelishi, epik turning eng katta janri roman esa arab, ingliz, fransuz va rus romannavislari ta'sirida taraqqiy etganligi adabiyotshunoslar tomonidan e'tirof etilgan²⁰. Prof.Sobir Mirvaliev talqincha: "Antik adabiyotda ham roman borligi haqida ba'zi mulohazalar mavjud ekan, nega roman janri XII-XIII asrlardan paydo bo'la boshladi, degan savolning tug'ilishi ham tabiiy. Antik adabiyotdagi romanlar, grek va rim romanlarining paydo bo'lishi, ularni yuzaga keltirgan jamiyat yemirilayotgan davrga to'g'ri keladi, ya'ni antik romanlar tug'ilgan-u, lekin yashashga qodir bo'lmagan"²¹. Ko'rinadiki, antik romanlarning yashab qolish taqdiri haqida olim haqli mulohazalarni bayon etarkan, jumladan, "Iliada", "Odessiya"

²⁰ Karimov B. Ruhiyat alifbosi. T: "Adabiyot va san'at nashriyoti". 2018. –B.364.

²¹ Mirvaliev S. O'zbek romani. –T: "FAN". 1969. –B.12.

eposlari kabi shuhrat topa olmagan. Chunki ularda jamiyatning ma'lum bir tor doiradagi maishiy masalalar ifodalanib, qahramonlarning ruhiy-ijtimoiy hayoti chuqur yoritib berilmaganida deb biladi. Yana bir jihati, ingliz adabiyotida "roman", novel – novella bo'lib Angilya. Fransiyada jamiyat ehtiyojining bir bo'lagiga aylangandan keyin taraqqiy eta boshlagan.

Angliyada XIV-XVIII asrlar oralig'ida "roman"lar "ritsar romanlar" deb nomlangan esa-da, keyinchalik to'laqonli voqelikning ifodalanishi, bayon qilinishi bilan bog'liq bo'lgani bois alohida – roman tipidagi asarlar keng yoyila boshlagan. Mana shu konsepsiya asta-sekinlik bilan butun Yevropa xalqlarida, keyinchalik rus, tupkiy xalqlar adabiyotida tez suratlarda yoyilib, haqiqiy taraqqiyot o'zaniga tusha boshladi.

Dastlab romanlar she'riy (lirik, dramatik, tragik, komik) yo'sinda ifodalangan. Fors-tojik adabiyotida Firdavsiyninng "Shohnoma", XIII asrda Nosiriddin Burhoniddin o'g'li Rabg'o'ziyning "Qissasi Rabg'o'ziy"(epik), XV asrda Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonida voqelik she'riy (masnaviy) tarzida inkishof qilinib, roman janriga xos unsurlar qorishig'i kuzatiladi. Demak, janrning ifodalanish yo'siniga qarab uning qaysi uslubda yuzaga chiqishi muhimligini aniqlash imkonini beradi. Yozma adabiyot paydo bo'lganidan keyin ibtidoiy tasaavvurlarga barham berilib, san'atga oshufta qalb dialektikasi inson kechinmalarini butun-murakkabligicha idroklash yo'liga burildi. Ayni paytda, janrning o'zi janr yaratuvchi sifatida mukammallashdi.

1750-yillarga qadar roman janri haqida juda ko'plab bahs-munozaralar davom etgan. Chunki she'r yoki drama yozuvchilar, ularni miriqib eshituvchi, tomosha qiluvchi avom romanni dangasalar yozuvchilarning ishi, ular o'ylab topgan jimjimador, xayoliy, haqiqatdan yiroq uydirma voqealar xalqni aldashdan boshqa narsa emas, degan tasavvur bilan yashaganlar. Bu haqda fransuz yozuvchi va shoiri Volter Skott ***"engiltabiat havoyi yoshlar uchun ko'ngil xushlikdan boshqa narsaga yaramas"***ligini ham

alohida keltirib o'tadi. Demak, roman mukammal bir janr sifatida omma, umuman adabiyot ahli orasida singib ketishi uchun juda ko'plab qarshiliklarga ro'baro' kelgan janr. Buning natijasi o'laroq, jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalar orasidagi keskinliklar kuchaygani, odamlar haq va huquqlarini taniy boshlaganidan buyon romanlarning haqiqiy rivojlanish pallasini ro'y berdi.

1600-yillarda yashab ijod etgan fransuz dramaturgi, faylasufi va munaqqid Per Nikol: ***"Bugungi romannavislar gunohkorona hislarni tasvirlovchi hamda qalblarni bulg'ovchilardir, yoshlarni bunday yaramas kitoblarni o'qishdan qaytarish lozim"***²²ligini ta'kidlaydi. Biroq bunday fikrlar ancha oldin ham aytilgan bo'lishiga qaramasdan, yozuvchilar voqelikni kutilmagan situatsiyalar, o'ziga jalb qiluvchi xayoliy-fantastik uydirmalar bilan bezab, o'quvchilar ommasining ko'payishi sari dadil qadam tashlashda davom etishgan.

Romanga bunday salbiy munosabatda bo'lish monraxik tartibotlarni qat'iy tarzda saqlab qolishga intilish klassizm ana shu ko'rinishning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qilganligini unutmaslik lozim. Hayot bir tekisda, kimningdir say'-harakati bilan davom etmaydi. Inqiloblar hamisha tarixda bo'lgan va bular o'z navbatida, mutlaq inson erki va haq-huquqlari oyoq osti bo'lgan qonuniyatlarni, tuzum va hukmronlikni ag'darib tashlashga erishgan. Chunki odamzod shu choqqacha bosib o'tilgan sivilizatsiyasi hayotning barcha qirralarini o'zida aks ettirish yo'lida tinimsiz kurashuvchanlik ruhini ongimizga, ruhimizga singdirish yo'lida sobit bo'lgan.

XIX asrga kelib jahonda roman janri o'z tabiati bilan yangilanishga tomon yuz burdi. Buyuk mutafakkir yozuvchilar fransuz, nemis, italyan, ispan, ingliz va rus adabiyotini go'zal va betakror romanlari bilan boyitishdi. Bu haqda nemis yozuvchisi va shoiri Iogan Robert Bexer: ***"Yangi san'at hech qachon yangi forma bilan boshlanmaydi, u har vaqt yangi inson bilan birga"***

²² Пьер Никол. <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/383>

tug'iladi"²³. – deya ta'kidlaydi. Darhaqiqat, har qanday san'at yangidan-yangi voqelik bilan taraqqiy etib, o'zining shaklu shamoyilini davr, muhit hamda zamon ehtiyoji o'laroq yuzaga chiqish yo'llarini tartiblashtiradi.

XX asrga kelib esa nafaqat ingliz adabiyoti balki, o'zbek adabiyotida yangicha ruhdagi falsafiy-mifologik romanlar paydo bo'la boshladi. Bu romanlarda tasavvuf aqidalari go'zal obrazlarda singdirilib, o'zidan oldingi mumtoz adiblar boshlab bergan an'analarni mantiqiy davom ettirdilar. Chunonchi, hayotning maishiy manzarasi odamlarning yashash tarzi bilan uyg'unlashib, psixologik lavhalarda yuzaga chiqdi. Din va axloq, falsafa va mantiq, etika, estetikalarning qorishiq ifodasi romanlarni har bir detal, syujet, voqealar silsilasidagi kutilmagan burilishlarga o'quvchilarni ishontirish, xayoliy, to'qima obrazlarni, afsona, rivoyatlarni matn tarkibiga singdirish borasida keng ko'lamli ishlarni amalga oshirdilar. Shu ma'noda, ingliz adabiyotining tasvir elementlari o'zbek nosirlarida ham yuzaga chiqib, Haqni tanishga, sobiq ittifoq imperiyasining yemirilishi natijasida yanada murakkab talqinlarni paydo bo'lishiga zamin hozirladi.

XX asr boshlarida romantizmdan keyin realizm yuzaga kelgan bo'lsa, bu "izm"larning modernizmga o'z o'rnini bo'shatib berishi tayin etdi. Ana shu "izm"larning o'rin almashinuvi natijasida hayotning achchiq manzarasi to 1938 yilgi qatag'on davriga qadar Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat va boshqa jadidlarning boshiga tushgan og'ir sinovlarni real ko'rsatib berishga hech kimning ju'rati sig'masdi. Stalin vafotidan keyingi hayot va adabiyot bir qadar yengillashdi. Shunday bo'lsa-da, yozuvchilarda ichki hadik va qo'rquv tamomila butun botinini mahv etardi. Buni inkor qilib bo'lmaydi.

Professor Dilmurod Quronov: "Fikrimizni oydinlashtirish uchun bizningcha, "O'tgan kunlar"ning muvaffaqiyatini ta'min etgan omillarni eslash joiz. Romanning tez shuhrat topib qo'lma-qo'l

²³ Берер И. В защиту поэзии. «Новый мир». , №11. С. 23.

o'qilishiga sabab bo'lgan bosh omil, uning tom ma'nodagi milliy adabiy an'analar zaminida turganidir. Albatta. Roman g'arb adabiyoti hodisasi ekanidagina kelib chiqilsa, bu fikrimiz ziddiyatli ko'rinishi mumkin. Biroq, shunisi ham ayonki, agar adabiy an'analarimiz zamini romanning ildiz otishi uchun qulay bo'lmaganida, o'tgan asrning 20-yillarida o'zbek romanining paydo bo'lishi ham mahol edi. Bizda ildizlari ming yillardan nariga borib taqaluvchi xalq dostonlari, qissalar, turfa xalq kitoblari mumtoz shoirlarimiz masnaviy yo'lida bitgan dostonlar, xullas, boy epik an'ana mavjud edi"²⁴. To'g'ri, munaqqid haqli ravishda asoslaganidek. M.Qoshg'ariy davridan buyon kelayotgan epik xazina, folklorimizning aksariyatida qahramonlik xarakteridagi bitilgan donishmandlik, jo'mardlik bilan sug'orilgan dostonlarda bayon vaqti, ifoda xilma-xilligi, uslubiy alohidaligi bilan tubdan G'arb an'analaridan tamomila ajralib turadi.

XX asrning 50-60-yillaridan keyingi romanchilikda Oybek, Abdulla Qahhor, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, O'lmas Umarbekov, O'ktam Usmanov, Shukur Xolmirzaev, O'tkir Hoshimov avlodida uslubiy-shakliy izlanishlarning samarasini uchratamiz. Bular ko'pchiligi arab, ingliz, Amerika, ingliz va boshqa xalqlar adabiyotidan chuqur o'zlashtira oldi. Lekin o'zlarining shaxsiy uslubini ham yaratdilar.

Irland yozuvchisi Jeyms Joys, nemis yozuvchisi Frans Kafka, fransuz adibi Albert Kamyu, ingliz adibi Somerset Moem, amerikalik Ernest Xemingueylar ijodida ham turfa shakliy-uslubiy hamda psixologik roman poetikasining yuzaga kelganiga imon keltiramiz. Shu boisdan, bular boshqa, ayniqsa, ingliz va o'zbek yozuvchilariga ham ta'sir o'tkazmasdan qo'ymaydi, albatta. Lotin Amerikasidan falsafiy-psixologik roman shaklini boshlab bergan Gabriel Garsia Markesning "Tanholik" romani ham jamiyatning kibrlar qo'lida o'yinchoq bo'lishidan ogohlantiradi. Qo'shni qirg'iz xalqining Chingiz Aytmatovi, qozoqlarning Muxtor Avezovi, inglizmanlarda Berdi

²⁴ Qur'onov D. Mutolaa va idrok mashqlari. –T: "Akademnashr". 2013. –B.176-177.

Kerbabaev, inglizlarda Ahmad Lutfi Qozonchi. Rashod Nuri Guntekin, O'rxan Pamuq, Olim Oqcha kabi yangi davr romannavislarida falsafiy-tasavvufiy motivlar konseptiyasi alohida monografik planda o'rganiladigan fragmentlarni namoyon qiladi. Bularning barchasida – inson va yangi davr voqeligi, ikki jahon urushi orasidagi yo'qsillik, illatlar, fojealar batartib hikoya qilinadi.

O'zbek va ingliz romanchiligidagi uslubiy-shakliy izlanishlarni quyidagi tasnifda ko'rib chiqamiz:

1. *XX asr tongotarida Turkistonda ro'y bergan jadidchilik harakatining ijtimoiy-psixologik asoslari o'zbek romanchiligida katta bir yangilanishga keng yo'l ochib berdi. arab, ingliz va boshqa xorijiy adbiyot muhiblarining ta'sirida yangi o'zbek romanchiligi paydo bo'ldi.*

2. *Ingliz romanchiligida diniy-tasavvufiy qadriyatlar, ana'ana va novatorlikni qo'lga kiritdi. Chunki bizning o'lkamizdagi sobiq kommunistik mafkura bunday yo'l tutishga imkon bermadi. Sobiq kommunist obrazini yaratish mafkura bilan belgilab berildi. Shu bois, falsafiy-tasavvufiy motivlar singdirilishiga tuzumning o'zi qattiq qarshi turdi.*

3. *O'zbek romanchiligida 90-yillaridan keyingi ifoda madaniyati ingliz adabiy tas'irining sezilarli darajada (Jaloliddin Rumi) oshdi. Bu tasvirdagi rivoyat, hikoyat, mif va boshqa folklor janrlarining sinkretik ifodasida yuzaga chiqdi.*

4. *Ingliz yozuvchilari oilaviy-maishiy masalalarni diniy nuqtai nazardan ochib berish yo'lidan bordilar. "Sargo'zasht didaktika" kabi ingliz xalqi hayoti bilan bog'liq **metamorfozalar**²⁵ shular jumlasidandir.*

5. *O'zbek adabiyotida "ong yuvish"²⁶ mexanizmi Nazar Eshonulning "Go'ro'g'li", "Ta'qiq mevasi", Xurshid Do'stmuhammadning "Bozor", Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat", "Isyon va itoat", Isajon Sultonning "Boqiy darbadar", "Ozod" nomli*

²⁵ Metamorfoza – yunoncha evrilish, o'zgarish.

²⁶ Ong yuvish – tomamila kommunistik mafkkuradan voz kechish

falsafiy-tasavvufiy, psixologik romanlarda istiqolol kayfiyatida yashayotgan “o‘tish davri”ning og‘riqlarini o‘z tanida his etgan, shu yo‘lni ozmi-ko‘pmi bosib o‘tgan qahramonlar, zamondosh odamlar obrazi bilan boyitildi.

6. Ingliz adiblaridagi voqelik (fabula), “pafos”ni birdaniga kutilmagan vaziyatlardan boshlash, inson e‘tiqodi, iymoni, e‘timodining kuchli va zaif tomonlarini yangi inson fenomeni bilan ochib berish yo‘lidan bordilar. Man shu xususiyatlar o‘zbek va ingliz nosirlarining ijtimoiy-ma‘naviy hamda ruhiy kredosini belgilab beradi desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

Shakl bilan bog‘liq motivlar trinar sintezi. Badiiy adabiyotda shakl tushunchasi ikki xil ma‘noda qo‘llaniladi. Badiiy shakl (janr)ni yuzaga keltiruvchi omillar aslida hayotni yozuvchi qanday tarzda qabul qilishi va uni tasvirlay olishi bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Masalan, e‘tibor beraylik ilk roman yozuvchi Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” asarida Inglizistonning boshiga tushgan qora kunlar, xonliklarning ichdan mirilishi, atrof-javonibdan shom azonining eshitilishi bilan boshlaydi. Shu zaylda yozuvchi voqelikni mazmunga, mavuzning – yaqin o‘tkan kunrini hikoya qilish orqali tushuntiradi:

“1264-inchi hijriy, dalv oyining o‘n yettinchisi, qishki kunlarning biri, quyosh botqan, tevarakdan shom azoni eshitiladir... Darbozasi sharqi-janubiyga qaratib qurilg‘an bu dong‘dor saroyni Toshkand, Samarqand va Buxoro savdogarlari egallaganlar, saroydagi bir-ikki hujrani istisno qilish bilan boshqalari musofirlar ila to‘la. Saroy ahli kunduzgi ish kuchlaridan bo‘shab hujralariga qaytqanlar, ko‘b hujralar kechlik osh pishirish ila mashg‘ul, shuning uchun kunduzgiga qarag‘anda saroy jonliq: kishilarning shaqillashib so‘zlashishlari, xoxolab kulishishlari saroyni ko‘kka ko‘targudek. Saroyning to‘rida boshqalarg‘a qarag‘anda ko‘rkamrak bir hujra, anovi hujralarga kiygiz to‘shalgani holda bu hujrada qip-qizil gilam, uttalarda bo‘z ko‘rpalar ko‘rilgan bo‘lsa, munda ipak va adras ko‘rpalar, narigilarda qora charog‘ sasig‘anda, bu hujrada sham‘ yona-dir, o‘zga hujralarda

*yengil tabi'atlik, serchaqchaq kishi-lar bo'lg'anida bu hujraning egasi boshqacha yaratilishda. Og'ir tabi'atlik, ulug' g'avdalik, ko'rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko'zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit. Bas, bu hujra bino va jihoz yog'idan, ham ega jihatidan diqqatni o'ziga jalb etarlik edi. Qandog'dir bir xayol ichida o'lturg'uchi bu yigit Toshkandning mashhur a'yonlaridan bo'lg'an Yusufbek hojining o'g'li – Otabek"*²⁷.

Juda ko'pchilik romanlarda ekspozitsiya (tushuntirish)ni yozuvchi qandaydir tabiat tasviri bilan boshlaydi. Bu tabiat tasviri voqealarning shiddatli oqimida, g'oya, mazmun bilan vobastalik kasb etib, bosh qahramon, yozuvchi konsepsiyasining mag'zini tashkil etadi. Birinchi o'zbek romani "Inqilob" jurnalida e'lon qilinganida 1922-25 yillarda Abdulla Qodiriy hali endigina yigirma olti yoshga to'lgan iste'dodlardan edi. Roman "Toshkentlik oshiqlar" deb nomlanib, keyinchalik tugal holatga kelganidan keyin adib "O'tkan kunlar" nomini beradi. Demak, har qanday asarda shakl bilan bog'liq uyg'unlik keyingi davr romannavislarida ham kuzatiladi. Hayot haqiqatini teran his qilish, Otabekning portreti bilan bog'liq tasvirlarda yozuvchi kimga va nimaga ishora qilinayotganini bilish mumkin. **"Quyosh botqan, tevarakdan shom azoni eshitiladir"** kabi jumlasida Inglizistonning boshida qora bulutlar keza boshlagani, millat endi tamomila rus mustamlakasiga aylangani, azaliy qadriyatlarimiz, millatimiz taqdiriga befarq bo'lmagan insonki bor, buni ich-ichidan ishoralar, ramzlar tili bilan anglab yetadi.

Shu jihatdan qaralganda, badiiy asarda shakl va mazmun bir-birini to'ldiruvchi, o'zaro uyg'un holda namoyon bo'ladigan estetik hodisadir. Yozuvchi voqelikni qanday ko'rishi, uni qanday badiiy idrok etishi asarning shakliy qurilishida ham aks etadi. Shakl bilan bog'liq motivlarning trinar sintezi aynan mana shu jarayonda, ya'ni tasvir, g'oya va qahramonlar tizimi o'zaro birlashgan holda

²⁷ Abdulla Qodiriy. –T: "Yangi asr avlodi". 2023. –B.3.

namoyon bo'ladi. Bunday uyg'unlik asarning badiiy ta'sir kuchini oshirib, o'quvchini voqelikni chuqurroq anglashga undaydi.

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi ekspozitsiya ham ana shunday badiiy tamoyilga asoslanadi. Asarning boshlanishidagi tabiat tasviri, vaqt va makon ifodasi, saroy muhitining tasvirlanishi nafaqat voqealar uchun fon yaratadi, balki yozuvchining tarixiy davrga bo'lgan munosabatini ham ifodalaydi. Shom azonining eshitilishi, quyosh botishi kabi ramziy tasvirlar o'sha davrning murakkab ijtimoiy-siyosiy manzarasini badiiy ishoralar orqali ifodalashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu tasvirlar asarning bosh qahramoni Otabek obrazini tanishtirish uchun ham muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Otabekning tashqi qiyofasi, uning o'ychan holatda tasvirlanishi ham bevosita asarning g'oyaviy yo'nalishi bilan bog'liqdir. Yozuvchi qahramon portreti orqali yangi fikrli, zamon muammolariga befarq bo'lmagan, millat taqdiri haqida o'ylaydigan inson obrazini yaratadi. Demak, bu yerda qahramon portreti, voqea makoni va tarixiy davr tasviri o'zaro bog'langan holda asarning badiiy shaklini yuzaga keltiradi.

Aynan shunday badiiy yondashuv keyingi davr o'zbek romannavisligida ham davom etadi. Yozuvchilar voqealarni shunchaki hikoya qilish bilan cheklanmay, balki tabiat tasviri, ramziy detallar, psixologik tasvir vositalari orqali asarning g'oyaviy qatlamini boyitishga harakat qiladilar. Natijada shakl bilan bog'liq motivlar nafaqat kompozitsion qurilishda, balki qahramonlarning ruhiy olami, davr muhitini ifodalash jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asarda shakl va mazmun o'rtasidagi uyg'unlik yozuvchi mahoratining muhim ko'rsatkichidir. Bu uyg'unlik orqali adib nafaqat voqelikni tasvirlaydi, balki o'zining estetik qarashlari, davr haqidagi falsafiy mulohazalarini ham o'quvchiga yetkazadi. Shu nuqtai nazardan, shakl bilan bog'liq motivlarning trinar sintezi badiiy asarning ichki tuzilishini, g'oyaviy-

estetik mohiyatini ochib beruvchi muhim nazariy tushunchalardan biri sifatida qaraladi.

Mazkur masalaga nazariy nuqtai nazardan yondashilganda, shakl bilan bog'liq motivlarning trinar sintezi badiiy asarning kompozitsion tuzilishida ham muhim rol o'ynaydi. Ya'ni, asarda tasvirlanayotgan voqelik, qahramonlar tizimi va muallif konsepsiyasi o'zaro uzviy aloqada bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Bunday uyg'unlik natijasida asarning badiiy shakli mukammal ko'rinish kasb etadi. Ayniqsa, romanchilik janrida bu jarayon yanada yaqqol ko'zga tashlanadi, chunki roman voqelikni keng ko'lamda, turli qatlamlar va obrazlar tizimi orqali ifodalash imkoniyatiga ega.

Shu ma'noda, badiiy shaklni yuzaga keltiruvchi omillar faqat kompozitsion tuzilish bilan cheklanib qolmaydi. Unda til, uslub, tasvir vositalari, ramz va detallar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi aynan shu vositalar orqali hayot haqiqatini badiiy haqiqat darajasiga ko'taradi. Bunda voqealar tasviri, qahramonlarning ruhiy kechinmalari va muhit manzarasi yagona estetik tizimni tashkil etadi. Natijada asarning g'oyaviy mazmuni o'quvchi ongida yanada chuqurroq aks etadi.

Adabiyotshunoslikda shakl va mazmun masalasi ko'plab olimlar tomonidan muhim nazariy muammo sifatida o'rganilgan. Ularning fikricha, badiiy asarda shakl mazmunni ifodalovchi tashqi qobiq emas, balki mazmun bilan bir butun holda mavjud bo'lgan estetik tizimdir. Shu sababli ham shaklni mazmundan ajratib o'rganish mumkin emas. Yozuvchi o'z g'oyasini qanchalik mukammal ifoda etmoqchi bo'lsa, u shunga mos badiiy shaklni ham yaratishga intiladi.

Bu jihatni o'zbek romanchiligi taraqqiyotida ham ko'rish mumkin. Abdulla Qodiriy boshlab bergan realistik romanchilik an'anasi keyingi adiblar ijodida yanada boyidi va takomillashdi. Yozuvchilar tarixiy voqealarni, ijtimoiy jarayonlarni hamda inson ruhiy olamidagi murakkab kechinmalarni tasvirlashda yangi badiiy usullarni qo'lladilar. Bu esa romanning shakliy imkoniyatlarini

kengaytirib, o'zbek adabiyotida yangi estetik izlanishlar uchun zamin yaratdi.

Demak, shakl bilan bog'liq motivlarning trinar sintezi nafaqat alohida bir asar doirasida, balki butun adabiy jarayon rivojida ham muhim ahamiyatga ega. Chunki aynan shu uyg'unlik orqali yozuvchi voqelikni badiiy talqin qiladi, davr ruhini aks ettiradi va o'quvchini teran mushohadaga chorlaydi. Shu jihatdan qaraganda, badiiy shakl masalasi adabiyot nazariyasining eng dolzarb va murakkab muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Prof. Dilmurod Quronov bu haqda shunday mulohazalarni ilgari suradi: "A.Qodiriy o'zining ijodiy sajiyasi, xarakter xususiyatlari bilan, masalan, Cho'lpondan yoxud Fitratdan jiddiy farq qiladi. Agar Cho'lpon bilan Fitrat 20-yillarning o'rtalarigacha qaynoq ijtimoiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lganlarini, A.Qodiriy esa, avvalo, ular singari qaynoq faoliyatda bo'lmagani va tez orada undan tamom chetlanganini e'tiborga olsak, bu farq yaqqol ko'zga tashlanadi. Aytmoqchimizki, Cho'lpon bilan Fitrat ijtimoiy jarayon ichida yashagan bo'lsalar, ijtimoiy jarayon A.Qodiriyning ichida yashagan. A.Qodiriy ijodiy evolyusiyasida voizdan san'atkorga aylanish jarayoni nisbatan ertaroq boshlangani, 20-yillar avvalidayoq "O'tgan kunlar"dek san'at asarini dunyoga keltira olgani ham buning dalilidir. A.Qodiriy tabiatan "faoliyat kishisi" ("deyatel") emas, ko'proq "mushohada kishisi" (sozersatel") ediki, fitratidagi shu xususiyat tufayligina zamonasi uning uchun boshqalarga nisbatan ertaroq estetik ob'ektga aylandi..."²⁸. Mazkur manbadan anglashiladi bir davrda yashagan uchta jadidning uslubiy-shakliy o'ziga xosligi tamomila jiddiy tafovutlanadi. Fitratda – tragik talqin ustuvor ahamiyat kasb etsa, Cho'lponda lirik kayfiyat zuhur qiladi. Qodiriyda esa falsafiy-psixologik o'lchov motiv va konsepsiya darajasiga ilgarilaydi.

2. Ma'lumki, ingliz romanchiligida ham xuddi Abdulla Qodiriy singari tasvir ekzislariga guvoh bo'lamiz. Jeyms Joys faylasuf, esseist,

²⁸ Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. –T: "Akademnashr". 2013. –B.3.

tarixchining “Ullis” romanida xuddi Abdulla Qodiriyning **“Quyosh botqan, tevarakdan shom azoni eshitiladir...”** jumlası kabi xalqning, jamiyatning boshiga mislsiz yog‘ilayotgan og‘riqlar kabi taassurot uyg‘otadi o‘quvchida. Har ikkala roman yozilgan davr orasida 20 yil vaqt bor. A.Qodiriy o‘tgan asrning 20-yillari adog‘ida yozib tugallagan bo‘lsa, o‘sha davrda ingliz xalqining boshiga yog‘ilgan mushkulotlarni anglash qiyin emas. Mana shu tasvir modusida hayotning barcha qirralari o‘z aksini topmoqdaligini tushunib olamiz:

Yozuvchi Jeyms Joysning “Musavvining yoshlikdagi shamoyili” qissasida ma’shum bir ogohlikni o‘quvchiga mono-dialogik, mistik-reallik bilan tushuntirishga harakat qiladi. Asarning ekspozitsiyasi mana shu asl maqsaddan darak berayotgani sir emas:

Poezd shovqin-suron bilan Korkka kirib kelganida, hali juda erta edi. “Viktoriya” mehmonxonasidagi xonada Stiven yana uxlagani yotdi. Charaqlagan quyoshning iliq nurlari derazani qopladi. Stiven ko‘chada hayot qaynay boshlaganini eshitdi. Otasi qo‘l yuviladigan joyda tik turib sochig‘i, yuziga va mo‘yloviga sinchiklab qarayotir, u suv solingan ko‘za ustidan bo‘ynini cho‘zib, o‘zini yaxshiroq ko‘rmoqchi bo‘lib boshini burdi. Ayni paytda, ohista, har bir so‘zni ohangga solib cho‘zib xirgoyi qildi:

Yoshligimda go‘rlik qilib,
Uylandim-qo‘ydim.
Mana endi, jonginam,
Baridan to‘ydim.
Ro‘zg‘or degan g‘or ekan,
Bilibman qaydan?
Baxtimni izlayman
Men Amriqodan?
Biroq vaqt oqar suvday
Suluv qariydi.
Misli tonggi shudringday

Nurdan ariydi”²⁹

Deraza ortidagi serquyosh shahar shovqini va otasining hazil aralash hazin qo'shiqqa turli pardalarda sayqal berayotgan ovozi Stivenning ko'nglidagi tungi vahimalar asoratini butkul haydaydi. U o'rnidan irg'ib turib, kiyina boshladi va xirgoyi tugagach, otasiga dedi”³⁰.

Inson o'z mayllari va ehtiyojlari bilan birga umr kechiradi.

Ingliz yozuvchisi ham Jeyms Joys qalamiga mansub ushbu tasvirlar millat taqdiridan kuyunchaklik bilan so'z yuritayotgan donishmand bir odamni ko'z oldimizda paydo qiladi. Odamlar yetkazgan aziyatlardan azob chekib hayot sinovlarini boshidan o'tkazayotgan inson taqdiri bu yerda muhim. Hech g'ami yo'q, nafsini yegan, boshqalarni nazarpisand qilmaydigan odamning taqdirini esa o'zingiz o'ylab ko'ring. Bu o'rinda xuddi millat taqdiriga befarq yoki mas'ullar ikki toifaga bo'linadi. Bir millat sajiyasi sifatida hayot kechirish musulmon birodarlarning hali boshida ko'p qiyinchiliklar borligini dalolatlamoqda. Mana shu konsepsiya roman kompozitsiyasida **qizil** ip bo'lib o'tgan. Binobarin, hayotning real, yashab turgan manzarasi yozuvchining o'zining azob va uqubatlarining mahsulidir. U shu tariqa boshqalarga ta'sir qilish muhimligini anglab tursa-da, odamlardagi iymonni o'rnini nafs egallashi, vijodnning o'rnini o'zini o'ylab yashashi, boyish, shon-shuhrat, birovlarining, yetim, beva-bechoraning haqini yeyishi xususida iztirob tortishini akslantirmoqda.

3. O'zbek romanchiligining uchinchi davri 90-yillarga to'g'ri keladi. Bu ham bo'lsa Xurshid Do'stmuhammadning “Bozor” nomli asaridir. Roman Vatanimizning “o'tish davri”ni yodimizga soladi. Asarning ekspozitsiyasida, ya'ni boshlamasida shunday tasvirlar keltirilgan:

- Qani, kep qoling, asalidan op qoling!
- Asal bo'lsa, sotarmiding, anoyi?

²⁹ Tillaev T. O'lim o'pmoni. –Toshkent. “Akademnashr”. 2021. –B.67.

³⁰ Jeyms Joys. Musavvirning yoshlikdagi shamoyili. –T: “Akademnashr”. 2021. –B.115-116.

- Beshik bormi. Beshik?
- Sumagi qoldi. opog‘i, sumagi?
- Teri bormi, teri?
- To‘yga qalampir ola keting!
- Qo‘y terisi kerak, qo‘y terisi?
- Qopqon opketaqol tozi?
- Sho‘rtak qurt kerak edi?

Bozorda har kim keragini so‘raydi, har kim topganini sotadi, eplaganini oladi. Bozor maydonlari, rasta oralari qadrdon qo‘tonga yangi qaytgan podkni eslatadi – shom qorong‘usida adashib-netgan ona-bola qo‘y-qo‘zi, echki-uloq singari xaridor sotuvchisini, sotuvchi xaridorini qulog‘i ding, ko‘zi jonsarak, yelib-yugurib izlaydi”³¹

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xurshid Do‘stmuhammadning “Bozor” romani “o‘tish davri” qiyinchiliklarini juda mahoratli ifodalay olgan asarlar sirasiga kiradi. Unda Fozilbek ma’naviyat va ma’rifat izlab yo‘lga chiqqan oshiq yigit. U hayotni bozor deb tasavvur etarkan, polifonik tafakkur F.Dostoevskiy, L.Tolstoy, J.Joys singari adiblar qismatini ko‘z o‘ngimizda gavdalantiradi. Joysning iqrorlari xuddi o‘zbek adabiyotida qariyb yuz yildan keyin sodir bo‘lgan metamorfozalarni yodimizga soladi.

Birinchi talqinda Abdulla Qodiriy millat boshiga yog‘ilayotgan og‘ir kunlarning nechog‘li ayanchli bo‘lishini ramzlar, ishoralar tilida hikoya qilsa, **ikkinchi** talqinda Jeyms Joys ingliz millatining qora kunlari ham maishiy hayoti og‘irlashib borayotganidan so‘z ochadi. **Uchinchi** talqinda Xurshid Do‘stmuhammad – Fozilbek timsolida katta maqsadlar bilan olislarga ko‘z tikayotgan yosh bolakayning orzulari naqadar beg‘uborligini, quyosh chiqishini intiqlik ila kutishini ifodalaydi. Mana shu **trinar** yaxlitlik shakliy ustqurma va mazmuniy o‘xshashlik tabiatini reallashtiradi. Inson jami hayotning quvonqliklarini bolalikdagi kabi xotirasida saqlay olmaydi. Roman bosh qahramoni Fozilbek ham ana shu ma’naviy hayot haybatidan ta’sirlanyapti. Millat boshiga kelgan Istiqlolni Fozilbekning avlodi

³¹ Ulug‘bek hamdam. Muvozanat. –T: “Yangi asr avlodi”. 2024. –B.10.

ulkan xursandchilik bilan kutib olyapti. Yosh payti O'zbekiston mamlakati Fozilbek tasavvurida istiqloлга erishgandi. Mana shu erishishni oson qabul qilish mumkin emasligini u juda erta anglaydi. Demak, har uchala adib so'zlayotgan qahramonlarning xarakteri ideal obrazdir. Bu ideallik inson tabiati bilan uzviy bog'liqlikda ro'y beradi.

Shakliy adabiy ta'sir va ijodiy o'ziga xoslik sari. Sharq romanchiligi G'arbiy Yevropa romanlari ta'sirida rivojlandi degan g'oyani ayrim adabiyotshunoslar inkor etadi. Chunki "Sharqning "Ming bir kecha", "Panchatantra", "Kalila va Dimna" xarakteridagi asarlarining o'zbek adabiyotiga ta'siri sezilarli darajada bo'ldi. Bu ta'sir Navoiy, Bobur, Gulxaniy, Muqimiy, Furqatlar ijodi, Hamza, Mirmuhsin, Ayniy, Qodiriy tarixiy romanlarining yaratilishida arab yozuvchisi Jorji Zaydon (1861-1914) yaratgan tarixiy xronika xarakterdagi romanlarning ta'siri juda ko'zga tashlanib turadi. Jorji Zaydon romanlarining yaratilishiga esa G'arbiy Yevropa romanlarining ta'siri bo'lgan"³² – deya yozadi Sobir Mirvaliev. Haqiqatdan ham, har bir yozuvchining ijodiy qiyofasi o'zidan oldingi salafлари ijodi bilan bevosita bog'liq holda taraqqiy etadi. Ulardan ma'lum uslubni, shaklni, ifodaning qay tariqa yuzaga kelish omillarini puxtalik bilan o'zlashtiradi. Bu o'zlashtirish – adabiy ta'sir doirasida ro'y bersa yanada ishonchni oqlaydi. G'arbiy Yevropada "ko'chib yuruvchi", "sayyor syujet" atamasi bor. Bu atama XV-asrda birgina "Xamsa" yaratuvchilarning bir-biriga adabiy ta'srini yodimizga solsa, boshqa tomonda epik qamrov kengligi, o'xshashligi, sargo'zashtligi bilan laohida ahamiyat kasb etadi. Ana shu mezon o'zbek romanchiligining ingliz romannavislaridan o'zlashtirgan ifoda madaniyatida yanada yorqin ranglarda yuzaga chiqadi.

Faylasuf Jon Golsuorsi yozishicha: "San'at tevaragida, hatto roman san'ati tevaragida ham hamisha ikkita estetik maktab o'rtsida kurash borgan. Bir maktab san'atdan hayotni ochib berishni va tanqid qilishni talab qiladi, ikkinchi maktab esa faqat yoqimli

³² Mirvaliev S. O'zbek romani. –T: "FAN". 1969. –B.65.

gaplarni to'qib chiqarishni talab qiladi. Ammo kurash jarayonida qizishib ketilganda ikkala maktab ham ba'zan bir narsani unutib qo'yishadi – ya'ni san'at asari tanqidiy yoki fosh, qiluvchi bo'ladimi yoxud to'qib chiqarilgan gaplarni bejab, pardozlab ko'rsatuvchi bo'ladimi – bundan qat'i nazar, uning mohiyati, ya'ni uni san'at asariga aylantiradigan omil “hayotiylik” deb atalmish sirli narsadan iborat bo'ladi”³³. Haqiqatdan ham, xarakterning o'zini yaratish, salbiymi, ijobiymi, murakkabmi mana shu uch xususiyat shaklda ham, mazmunda ham birdek yuzaga chiqishi, insoniy munosabatlarning namoyon bo'lishi, hayot haqiqatining yozuvchi ijodiy to'qimalarida bir-biriga mantiqan muvofiqligini kafolatlaydi. Inson o'zgaruvchan vaziyat qurboni ham bo'lishi mumkin. Ahmad Lutfi Qozonchining har bir asarida jamiyatga tanqidid munosabatda bo'lish fragmenti qabarib ko'rinadi. “Adabiyot – xarakter yaratish san'ati”(Izzat Sulton)³⁴ ekan, ingliz yozuvchilari ijtimoiy mavzuni diniy-axloqiy, falsafiy tasavvufiy jihatdan ochib berishga harakat qiladi. Mana shu konsepsiya Ulug'bek Hamdamning “Isyon va itoat” romanida Akbar obrazini, Isajon Sultonning “Ozod” romanida Ozod obrazini yorqin ranglarda gavdalantira oladi. Insonning maishiy yashash tarzi bilan umumjamiyat orasida obro' qozonishi o'ta murakkab, sirli jarayon. Otabek – savdogar (“O'tkan kunlar”), Yusuf – o'qituvchi(“Muvozanat”), Ozod – fikr kishisi, haq oshig'i (“Ozod”) tarzida bo'y ko'rsatadi. Ingliz adabiyotida Stiven – oilaparvar, diniy savodi kuchli bola (“Musavvirning yoshlikdagi shamoyili”) romanlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Mana shu sanab o'tilgan jihatlar yangi o'zbek va ingliz romanchiligida bir-birini to'ldiruvchi mohyatga evriligan, jamiyat hayotining og'riqli nuqtalarini anglash imkonini beradi. Falsafiy-tasavvufiy motivlar ushbu davr romanlarida xilma-xil obrazlarning dialektik aloqasini ta'minlaydi.

³³ Jon Golsuorsi. Olti adibning qiyofasiga chizgilar. –T: “Ma'naviyat”. 2010. –B.51.

³⁴ Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. –T: “Fan”. 1980. –B.132.

Prof. Qozoqboy Yo'ldoshev ta'biricha: "Katta nasriy janr sanalmish roman miqyosga, batafsillikka intilish samarasi emas, balki insonni tasvirlashda psixologik teranlikka urinish natijasi o'laroq yuzaga kelgan estetik hodisadir. U odamni borliqda ro'y berayotgan voqea-hodisalar orasida ovorayu sarson bo'lib yuradigan mavjudot emas, balki o'ziga xos takrorlanmas shaxs, beadam chigal ruhiy olam egasi bo'lgan yaratiq sifatida chuqurroq, miqyosliroq, turli nuqtai nazarlardan turib tadqiq etish natijasi o'laroq paydo bo'lgan janrdir. Badiiy adabiyotning lirik janrlari hajm imkoniyatlarining cheklanganligi bois, epik va dramatik turdagi asarlar uchun memorat, ya'ni tarixiy voqelik hamda hayotiy tafsilot muhim bo'lganligi sababli ularda alohida insonning ichki olamini chuqur tadqiq etish bir muncha mushkul"³⁵. Binobarin, roman poetikasida ko'zga ko'ringan turli xil tasviriy vositalar shaklining uslubiy dinamikasini ham belgilab beradi. Uslub – yozuvchining o'zi ekanligini Gyote alohida urg'ulaydi. Mana shu talqindan ham anglashiladiki, ingliz, o'zbek, va qardosh xalqlar romanchiligida XX asrning totalitar tuzumidan aziyat chekkan oddiy xalq hayoti qalamga olinadi. Tanqidiy nigoh, jamiyatni islohga muhtojligi, odamlarning emin-erkin, ozod va hur yashashi muhimligini dalolatlaydi. Bunday paytda har bir yozuvchi o'zining individual usulbigagina tayanib ish tutadi.

Shu boisdan ham, odamlarning dardu tashvishi bilan yaqindan tanishgan, ularning ijtimoiy faolligini oshirishga rag'bat uyg'otuvchi o'zbek va ingliz romannavislari falsafa va tasavvufni uyg'un holda namoyon etishga katta kuch topa olishdi. Shuning zahirida hayot haqiqati, insoniy munosabatlar tig'izligi, muammoning ko'lami, ijodiy konsepsiya barqarorlashuvini ta'min etadi. Yozuvchi Jeyms Joys o'tgan asrning boshlarida adabiyotga kirib kelgan yosh umidli yozuvchi bo'lgan bo'lsa, Ingliz xalqining orzularini chin ko'ngildan ro'yobga chiqishini istashlik g'oyasi turardi. Bunga qanday erishilganini buguni hayotning o'zi isbotlab turibdi.

³⁵ Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. –T: "Yangi asr avlodi". 2006. –B.68-69.

O'zbek va ingliz romanchiligi borasida keyingi yillarda juda kam tadqiqotlar yaratilgan bo'lsa-da, muammoning u yoki bu jihatlariga e'tibor qaratilmoqda. Ingliz adabiyotining sara asarlari o'zbek tarjimonlari tomonidan o'grilib, o'quvchilarga taqdim qilinmoqda. Mana shu izlanishlar ham katta epik ko'lamda so'z aytish borasidagi bo'shliqni to'ldiradi. Professorlar Qozoqboy Yo'ldoshev, Dilmurod Quronov, Islomjon Yoqubov, Nurboy Jabborov, Bahodir Karimov, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamovlar adabiy-tanqidiy maqolalari, adabiy aloqalarning mustahkamlanib borayotganidan shahodat beradi. Ushub olimlar roman janri va uning shakllanish bosqichlari, tarjima qilinayotgan asarlarning badiiy qiymati, so'z qo'llash mahorati, uslubi va g'oyaviylik nuqtai nazaridan keng qamrovda ochib berishga urinishlar muhim manbadir. Haqiqiy asarlar qiyoslarda, solishtirishlarda, ularning mohiyatini teran tushunib, asl yozuvchi konsepsiyasini ro'y-rost ochib berishda ko'rinadi. Vaholanki, badiiy didni o'stirish borasida urinishlar bo'layotgan ekan, ijobiy izlanishlar munatzam bo'lishi lozim. Shunda, har ikki millat qalbidagi sohir orzular, yaqin sherikchilik, birodarlik hamda axloqiy qadriyatlarning ildizi qadim zamonlarga borib tutashuvini belgilashda asosiy rol o'ynaydi.

Xulosa shuki, roman janri genezisi borasida qilingan ishlarning aksariyati antik avantyur romanchiligi bilan uzviyligini namoyon etadi. Ana shu konsepsiya har bir talqin metodologiyasining o'ziga xosligini ta'minlaydi. Chunonchi ingliz yozuvchilari tasvirlarda polifonik nutq teranligiga diqqat qaratlsa, ijtimoiy muammoning ildiziga kirib borish, insonga insondek munosabatda bo'lishni ham kafolatlaydi. Ayni damda, mohiyat insonning hali hech kim tahlil qilmagan jihatlarini ochib berishi, donishmandona fikrlash, masalaga turli tomonlardan baho berishni muhim. Dunyoning soat sayin turlanib, tuslanib, tarqqiy etib borayotgani natijasi sifatida roman poetikasidagi "siquq" bir olamni ko'rsatish yozuvchidan katta matonat va g'ayrat, shijoatni talab etadi. Busiz badiiylik ham, pafos va fabula ham yuzaga chiqishi qiyinlashadi. Tohir Malik va Isajon

sulton izlanishlarida falsafiy-didaktik, tasavvufiy ohang qabarib ko'rinishi, mif va adabiyotning baqamti yashashini ham belgilashga xizmat etadi.

Zero, Jaloliddin Rumiy "Ichindagi ichindadir" nomli mo'jazgina asarida shunday yozadi: "Tiniq suv ichidagi har narsani ko'rsatgani kabi inson ruhi tabiati bilan birga bilim va ko'zga ko'rinmagan barcha narsalarni ko'rsatadi. Osti va ustidagi barcha narsalarga bir narsa qo'shmay, ayirmay ko'rsatish xususiyati suvning yaratilishida mavjud. Biroq suvga tuproq yoki boshqa rang aralashsa, bu xususiyat yo'qoladi"³⁶. Rumiy har bir hikmatida, ishorasida Ulug' Tangri odamzot uchun bergan toza rizq va nasibani o'zidan boshqa hech kim tortib olmasligini ta'kidlaydi. Nafsni yengish, unga tobe yoki qul bo'lib yashash odamning hayvoniylashuv protsessiga olib boradi. o'zbek romanchiligida Abulla Qoidiriy – Homid obrazi orqali o'z nafsining izidan ergashgan mute va alamzada, xudbin, xasis bir kimsani ko'rsatgan bo'lsa, Xurshid Do'stmuhammadning "Bozor" romanida Fozilbek, Qadriya va boshqa ilm ahli, mansab, boylikka ruju qo'ygan odamlardan tamomila farqli xarakterlari bilan o'z ichki idealini yuzaga chiqargandi. Xurshid Do'stmuhammadning "Bozor", "O'yin" romanlarida davr sindromi aks etadi. Personajlar shu tamoyilni yangi bosqichga olib chiqdi. Nafs – shaytondan ekanligini ular juda kech anglab yetishdi. Alloh izni bilan bo'layotgan voqelikning shiddatli oqimida har bir yozuvchi o'zining individual uslubini kashf etdi. Shuningdek, hayot haqiqati tarixiy silsilalar jarayonida badiiy haqiqatga aylandi. Qahramonlar sizni biz kabi bir havodan nafas olib, umr kechirayotgan, adashgan, yiqilgan, biror gunohidan uzr so'rab, tavba tazarru qilganliklarini ham tushunib yetamiz.

Ayonki, XX asr nafaqat Turkistonda, balki butun jahonda ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy o'zgarishlar butun insoniyat taqdiriga katta evrilishlarni olib kirdi. O'tgan asrning o'zida bir emas, ikkita jahon urushining sodir bo'lishi, odamzotga

³⁶ Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadir. –T: "Yangi asr avlodi."2024. –B.51.

misilsiz ko'rguliklarni, og'ir yo'qotishlarni berdi. Shu jumladan, ijod maydonida qalam surgan yozuvchilar ham bu zulmu zalolatni totishga, o'z asarlarida murakkabligicha ko'rsatib berishga intildilar. Shaxsning fojeasi yozuvchining ham bir bo'lagi sifatida xilma-xil obrazlarda yuzaga chiqdi. Din va axloq, tasavvuf tushunchalari ham bir qadar cheklanilib, ularni ifoda etganlar qattiq jazolandi. Soxta metod – ittifoq mafkurasini qurboni bo'lgan qator adiblarimiz hayot haqiqatini aytishdan chekindilar. Tuzum esa ularni qattiq jazoladi. Bular quyidagi shaklda namoyon bo'lib, inson mantiq farzandi ekanligini namoyon etdi. Haqiqatni aytgan adiblar zindonband va qatl etildi. Bunday vaziyatda jamiyatning ikkiga bo'linishi, tasdiqlovchilar hamda inkor qiluvchilar toifasiga ajraldi. Chunki inkor qiluvchilar esa hamisha adolat tug'ini baland tutib kelganlar, tasdiqlovchilar esa tuzum tomonida turib hayot-jon saqladilar. Ana shu ijtimoiy-madaniy hayot roman janrida bamisoli oinadek bo'y ko'rsatdi. XX asr boshlarida Abdulla Qodiriydan keyingi avlod 50-yillarga qadar tiyib turilish kommunistik mafkurni qurol qilib olishga shaylandi. Negaki, roman tabiatan katta epik vaqt oralig'ini ifodalashi bilan boshqa janrlardan tamomila ajralib turadi.

“Romandan o'zga deyarli barcha adabiy janrlarda inson tasvirga olingan voqea-hodisalarga ilova edi. Negaki, bu janrlardagi asarlarda voqea-hodisa – sabab, inson – oqibat, nari borsa, ishtirokchi tarzida aks ettirilardi. Badiiy tasvir uchun inson shaxsi, uning o'ylari, ruhiyati emas, balki xatti-harakatlari muhim edi. Alohida olingan odam, uning taqdiri, o'ylari, kechinmalari faqat romandagina chuqur va atroflicha tekshirila boshlandi. Uning shaxsiga, tuyg'ulariga e'tibor kuchaydi. Tafsilotlar, voqea-hodisalar inson ruhiyatining natijalari tarzida qarala boshladi. Shu tariqa romanda odam sabab maqomiga ko'tarildi. Unda shaxsning murakkabdan-murakkab, chigaldan-chigal, betartibdan-betartib ruhiyati aks ettirila bordi”¹¹, – deb yozadi adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshev. Inson shaxsiga ijtimoiy tarkib sifatida qarash mafkuradan badiiy tizimga

¹¹ Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. –T.: Yangi asr avlodi, 2006. –B.69.

ko'chgandi. XX asrning mafkuraviy tuzilmasi chinakam badiiy asarga munosabat bildirish imkonidan xalos etdi. Chunki mafkuralashgan adabiyot sun'iy adabiyotdir. Sun'iylik bor joyda badiiy salmoq yuzaga chiqmaydi. To'qib chiqarilgan quruq safastabozlik XX asrning tom ma'nodagi iste'dodlarini ham yo'qqa chiqardi. Qodiriylar avlodi bundan mustasno. Davr mening taqdirimda degan hayqiriqlar bilan bitilgan adabiyotda hamisha yaxshilik bo'lmagan. Unda salbiy va ijobiy qahramon bo'lib, jamiyatning bir ba'zi muammolarini yengil-yelpi ifodalashga sarflangan energiya bugun hech biri tarixga muhrlanmadi. XX asrning ko'pchilik romanlari sobiq ittifoq hududida nom-nishonsiz yo'qqa chiqarildi.

Shuni qayd etish lozimki, Jeyms Joys badiiy asarda ikki jihatga mantiqiy urg'u beradi. Bular quyidagicha:

1. Har qanday sinovni yengib o'tish Allohga e'tiqod va go'zal iymon bilan yashashga odatlanish.

2. Romanning qahramoni Stiven ruhoniylar suhbatlarini olishi, unga yarasha muomala qilish, odobi, xulqi va so'zidan xulosa chiqarish.

Mana shu ikki xususiyat yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrning, konseptual motivlar tizmasining o'zginasidir. Negaki, yozuvchi romanda bir-birini to'ldiruvchi voqealarni tenglik miqyosi bilan dalillab boradi. Dalolatlash barobarida yozuvchi juda katta masalalarni qo'llaydi. Ayniqsa, kelinning ifattiga sabab bo'ladigan muhitning mavjudligi, ularni yo'q qiluvchi bo'lib harakatlanayotgan jamiyat a'zolarining ko'pligi. Bular orasida ezilgan Amina va uning oilasidagi a'zolar sabr va toqatning natijasida ko'p musibatlardan xoli bo'ladi. Yozuvchi romanning ikkinchi bo'limida quyidagi voqeani bayon qiladi.

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asaridan keyin yuzaga kelgan ijtimoiy ziddiyatlar fonida Cho'lpon ham yangicha talqin etish yo'lidan boradi. Ikkisining uslubida osmon bilan yer qadar farq mavjud. Ayniqsa, Cho'lponning yangicha badiiy uslubida hozirgi iste'moldagi til korpusi chuqur seziladi. Jeyms Joys uslubida folllkor

an'analar, voqelik ketidan voqelik, bir payti o'zi ham voqelarga bevosita aralashib, bosh qahramoniga ko'pdan-ko'p fazilatlarni jamlashida bilamiz. To'g'ri, davrning diqqatga sazovor uslubida bu paydo bo'lgan arxetiplardir. Ammo, lekin injodkorning bir-biriga tasvirdagi o'xshash jihatlari zamona zayli bilan inkishof bo'ladigan holatdir. G'arb kishisi ramzlarga mukkasidan ketsa, Sharq kishisi dostonbop ifodalarga ko'ngil bog'laydi. Lirizm, kuchli ochiq ifoda, ya'ni tushunarsiz bir hayotdan realizmning singdirilishi bilan o'lchanadi. Negaki, XX asr badiiy uslubida roman yoki qissalar bo'lsin realizm tom ma'noda "urf"dan sira chekkaga chiqamaganidan shahodat beradi.

Ijtimoiy jihatdan oiladagi muvozanat masalasi buzilishi – jamiyatning bir butun holda harakatlanmaganidan dalolat beradi. Ijtimoiy inson ruhiy sog'lom bo'lgani bilan, jamiyat va siyosat unga mutlaq erkinlik bermasa, "bo'g'ilgan" holda kattayadi. Bu kabi masalalar qaynona va kelin va boshqa munosabatlarda romanga, teleekranlarga serial, matbuotda oldi-qochdi asarlar bilan to'lib toshdi. Bularning badiiyatdan yiroqligi haqida ham ko'p gapirildi. Bir narsa aniqki, hayotning har qanday ravishi u xohlang va holamang, o'z aksini salbiy yoki ijobiy tomonda turib ko'rsatadi. Mana shu tamoyil insonning ma'naviy haq-huquqlari poymol bo'lishini izohlaydi.

Mana shu konsepsiya G'arb adabiy oqimlaridan kirib kelgan, shakllangan roman tabiatini, uning murakkab sistemasini, obrazlarini, yozuvchi individual uslubini, davrning ruhini, konsepsiyasini to'laqonli his etish imkonini beradi. Ingliz adiblari hayotga tanqidiy nigoh bilan qarashni o'rgatdi. Jamiyatning fojeasi nimada degan savol ularning badiiy solnomalarida manaman deb qad rostlab turibdi. Bu kabi shtrixlar hayotning barcha qatlamlarini anglab yetishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Kuzatish va tahlillar shunday xulasaga kelishga asos bo'lmoqda.

Bob bo'yicha xulosa

1. Antik yunon eposi va o'zbek folkloridan shakllangan yangi tipdagi romanlar badiiyati haqida so'z borganda, avvalo janrning o'zi estetik jihatdan jahon adabiyotidan andoza olganligini, XX asr tong otarida A.Qodiriy boshlab bergan an'analarning mantiqiy davomi ekanligini dalolatlaydi. Roman syujeti, falsafasi, yozuvchi konsepsiyasi bilan uyg'un holda, yangi davr adabiy tafakkurini talqin etganligida ko'rinadi.
2. O'zbek va ingliz romanlarida ijtimoiy-maishiy masalalar hamisha tarixiy aspektda talqin etilib motivlar yaxlitligiga borib tutashadi. Unda oilani saqlash, axloqiy mezonlarning ijtimoiy hayot manzaralarini namoyon etishga bel bog'laganligida seziladi. Jeyms Joys izlanishlarida shariat nuqtai nazaridan oilaning muqaddas xilqat ekanligi, jamiyat muammolariga o'ziga xos yechim topganligini kafolatlaydi.
3. Roman falsafasi uzoq tarixga ega. Angliya va Yevropa xalqlari, Amerika modern romanlari tabiatida hamisha ShAXS ruhiyati, ularning orzu-intilishlari birinchi planga ko'tariladi. Ana shu mezonlar tasavvufiy ifodani aks ettirgan ingliz va o'zbek romanchiligida yangi bir davrni boshlanishiga zamin hozirladi. Arab, nemis, rus va Angliya romanchiligi maktablarida esa inson psixologiyasiga teran kirib borish modusi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bular uslub va shaklning yangicha sintezini kafolatlaydi.
4. Roman badiiy xronotopi mazkur asarlarda faqat voqealar rivojini belgilovchi omil sifatida emas, balki qahramon ongining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi estetik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Makon va zamon munosabatlarining badiiy talqini orqali tarixiy xotira, milliy tafakkur va shaxsiy tajriba o'zaro tutashadi. Bu holat o'zbek va ingliz romanlarida epik an'ana bilan modern badiiy tafakkur sintezini yuzaga chiqarib, roman janrining poetik imkoniyatlarini kengaytiradi.
5. Tadqiq etilgan romanlarda badiiy obrazlar tizimi muallifning estetik ideali va falsafiy qarashlarini ifodalovchi markaziy vosita sifatida shakllanadi. Qahramonlar individual xarakterga ega bo'lishi

bilan birga, muayyan ijtimoiy qatlam, tarixiy davr va axloqiy muhitning umumlashma timsoli sifatida talqin etiladi. Shu jihatdan romanlarda obraz yaratish jarayoni milliylik va umuminsoniylik mezonlarining uyg'unlashuvi asosida kechib, adabiy an'analar davomiyligini ta'minlaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, antik epos va folklor an'analariga tayangan holda shakllangan o'zbek va ingliz romanchiligi badiiy tafakkur evolyutsiyasida muhim bosqichni tashkil etadi. Ushbu romanlarda janr, uslub va falsafiy mazmunning o'zaro integratsiyasi yozuvchi ijodiy individualligini yaqqol namoyon etadi hamda roman janrining zamonaviy estetik talablarga mos ravishda rivojlanayotganini tasdiqlaydi. Natijada roman san'ati inson, jamiyat va tarix o'rtasidagi murakkab munosabatlarni badiiy idrok etishning yetuk shakli sifatida namoyon bo'ladi.

IKKINCHI BOB:
BADIIYLIK MODUSIDA SYUJET POETIKASI
2.1. Roman poetikasida syujetning o'ziga xosligi

XX asr ibtidosida jahon nasrida ko'zga tashlanayotgan xilma-xil ifodalarning poetik va dialektik aloqasi negizida qator shakliy-uslubiy ifoda madaniyati ko'zga tashlana boshladi. Ingliz nasridan ilhomlangan o'zbek yozuvchilari badiiy izlanishlarida shaxs konsepsiyasi va falsafiy-ijtimoiy munosabatlar tig'zligi yanada barqarorlashdi. Shuni qayd etish joizki, yangilanayotgan o'zbek adabiyoti nimalar hisobiga boyib, taakomillashib bormoqda degan savolga ushbu bobda mufassal javob berishga harakat qilamiz. Avvalo, roman poetikasida syujetning o'ziga xosligi masalasi badiiy asarning ichki harakatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Syujet voqealarning oddiy ketma-ketligi emas, balki muallifning g'oyaviy-estetik niyatini ifodalovchi murakkab kompozitsion tizimdir. Shu sababli ham roman janrida syujet qahramonlar xarakterining shakllanishi, ularning ruhiy kechinmalari hamda jamiyat bilan bo'lgan munosabatlarini ochib berishda muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

XX asr boshlarida o'zbek romanchiligida yuzaga kelgan yangilanish jarayonlari syujet qurilishida ham sezilarli darajada aks etdi. Yozuvchilar voqealarni an'anaviy tarzda bayon qilish bilan cheklanmay, balki qahramonlarning ichki dunyosini, ularning ruhiy iztiroblari va ma'naviy izlanishlarini tasvirlash orqali syujetni yanada chuqurlashtirdilar. Natijada syujet faqat voqealar tizimi bo'lib qolmay, balki inson ruhiyati va ijtimoiy muhit o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beruvchi badiiy mexanizmga aylandi.

Shu jihatdan qaraganda, ingliz va umuman jahon nasrining tajribasi o'zbek romanchiligiga muayyan ta'sir ko'rsatdi. Bu ta'sir, avvalo, syujet qurilishidagi yangicha usullar, kompozitsion erkinlik hamda psixologik tahlilning kuchayishi bilan namoyon bo'ldi.

Natijada yozuvchilar shaxs konsepsiyasini markazga qo'ygan holda, ijtimoiy muammolarni individual taqdirlar orqali tasvirlashga intildilar. Bunday yondashuv roman poetikasining yanada boyishiga xizmat qildi.

Roman syujetining yana bir muhim xususiyati shundaki, unda voqealar rivoji qahramonlarning ichki o'zgarishlari bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Ya'ni, syujetdagi har bir epizod qahramon xarakterini ochishga, uning hayotiy qarashlari va ma'naviy olamidagi o'zgarishlarni ko'rsatishga xizmat qiladi. Bu esa roman janrining epik ko'lamini kengaytirib, o'quvchiga inson hayotining turli qatlamlarini badiiy talqin etish imkonini beradi.

Shuningdek, yangilanayotgan o'zbek romanchiligida syujetning ko'p qatlamli tuzilishi ham alohida e'tiborga loyiqdir. Asarlarda asosiy syujet chizig'i bilan bir qatorda qo'shimcha voqealar tizimi ham mavjud bo'lib, ular umumiy g'oyaviy mazmunni boyitishga xizmat qiladi. Bunday ko'p qatlamli syujet qurilishi roman poetikasining murakkabligini oshirib, asarning badiiy ta'sir doirasini kengaytiradi.

Demak, roman poetikasida syujetning o'ziga xosligi, avvalo, voqealar tizimining g'oyaviy mazmun bilan uyg'unligida, qahramonlar ruhiy olami bilan bevosita bog'liqligida hamda kompozitsion qurilishning murakkabligi va ko'p qatlamlilikida namoyon bo'ladi. Aynan shu jihatlar yangilanayotgan o'zbek romanchiligining badiiy-estetik qiyofasini belgilab beruvchi muhim omillardan biri sifatida qaraladi.

Fabula va syujet munosabati. Ijtimoiy hayot har qanday shaxsni iroda yo'nalishshini belgilashga yordam beradi. Chunki u har bir davrning ijtimoiy-siyosiy, diniy-tasavvufiy, axloqiy, madaniy sarchashmalarini tartiblashtirishga xizmat qildiriladi. Dunyo adabiyotining joriy holati ham XIX-XX asr oralig'ida kechgan ijtimoiy hayot manzaralarining ajralmas halqasi ekanligini namoyon etdi. Ayni shu murakkab davrning real manzarasi hayot qanday bo'lsa shunday ko'rsat, uni yashash lozim bo'lsa, yaxshi yasha, noloyiq

bo'lsa, undan voz kech, degan aqidani o'z mantiqida rivojlantirishga alohida e'tibor qilganligida ko'rinadi. O'zi vaqtning tez suratda o'tib ketishi, ming yillik mumtoz an'analarning kunpayakun bo'lishi, odamlarning ruhiy ehtiyojining o'sib. Tamomila yangi bosqichga kko'tarilishining o'ziyoq fikrimizni to'laqonli dalolatlaydi. Yangi davr – yangi muammolar, ijtimoiy masalalar eshigini ochib berishga bel bog'lagan odam tabiatini yuzaga chiqardi. Endilikda totalitar tuzum emas, intellektual kkapital boylikka ega bo'lgan mamlakatlar yutishi, ishchi kuchi, vatan sarhadlari, oila, qadriyatlar tanlovi, ruhiy-moddiy muvozanat tig'izlashuvini kafolatlash yo'liga qadam qo'ydi. Chunki inson mantiq farzandi. U o'zgardi, uning ruhiy-ijtimoiy tabiati ham butunlay turfalandi.

Turkistonda ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy o'zgarishlar butun insoniyat taqdiriga katta evrilishlarni olib kirdi. O'tgan asrning o'zida bir emas, ikkita jahon urushining sodir bo'lishi, odamzotga misilsiz ko'rguliklarni, og'ir yo'qotishlarni berdi. Shu jumladan, ijod maydonida qalam surgan yozuvchilar ham bu zulmu zalolatni totishga, o'z asarlarida murakkabligicha ko'rsatib berishga intildilar. Shaxsning fojeasi yozuvchining ham bir bo'lagi sifatida xilma-xil obrazlarda yuzaga chiqdi. Soxta metod – ittifoq mafkurasi qurboni bo'lgan qator adiblarimiz hayot haqiqatini aytishdan chekindilar. Tuzum esa ularni qattiq jazoladi. Bular quyidagi shaklda namoyon bo'lib, inson mantiq farzandi ekanligini namoyon etdi. Haqiqatni aytgan adiblar zindonband va qatl etildi. Bunday vaziyatda jamiyatning ikkiga bo'linishi, tasdiqlovchilar hamda inkor qiluvchilar toifasiga ajraldi. Chunki inkor qiluvchilar esa hamisha adolat tug'ini baland tutib kelganlar, tasdiqlovchilar esa tuzum tomonida turib hayot-jon saqladilar. Ana shu ijtimoiy-madaniy hayot roman janrida bamisoli oinadek bo'y ko'rsatdi. XX asr boshlarida Abdulla Qodiriydan keyingi avlod 50-yillarga qadar tiyib turilish kommunistik mafkurni qurol qilib olishga shaylandi. Negaki, janr tabiatan kichik epik vaqt oralig'ini ifodalashi bilan boshqa janrlardan tamomila ajralib turadi.

Fabula har qanday ijodkor (yozuvchi)ning hayot voqeligini, hali u tayyor emas, uni qayta ishlash, tahrir qilish mezonlari bilan rivoj topadi. U syujetga aylanib, saralanib, sayqallanib, biror mantiq ifodasiga evrilishgacha bo'lgan oraliqda xotiranoma yozuvchining shaxsiy, individual olamining manzarasi bo'lib qoliveradi. Chunki xotirana vis hayot voqeligini tartiblashtiradi. U o'sha voqelikni qayta ishlash barobarida, xuddi tug'ilish – o'lim oralig'ida bo'lganidek, hayotni obdon kuzatadi. Fabula poetikasi haqida so'z borganda avvalo, inson va ijodkor fenomeni bir yaxlit manzarani hosil qilishi tayin. Inson nimagaki intilsa, uning zamirida o'sha voqelikning suratni tasavvur qiladi.

Mavlono Jaloliddin Rumiy aytganidek, “Agar bir jism tarkibida ohanrabo bilan mushtarak bo'lgan bir parcha bo'lmasa, u jism hech qachon ohanrabo tarafiga ketmaydi, ya'ni tortilmaydi. Ular orasidagi bir xillik gizli bir narsadir, ko'zga ko'rinmaydi. Inson xayolidagi narsa uni o'z orqasidan yetaklaydi. Masalan, bog' xayoli boqqa, do'kon xayoli do'konga olib boradi. Faqat bu xayollar haqiqatni yashiradi. Chunonchi, bir narsaning xayoli seni o'ziga tortdi va sen u tomonga ketmoqdasan. Chunki xayol senga u narsani go'zal qilib ko'rsatgan. Biroq kelgach, pushaymon bo'lasan va o'zinga o'zing: “Buni yaxshi deb o'ylabman, aslida unday emas ekan” deysan. Shuning uchun ham xayollar ichiga kimdir yashiringan chodirlar o'xshaydi”³⁷. Ko'rinadiki. Rumiy shaklga ham, ma'noga ham, mazmunga ham, tasavvurga ham alohida diqqat qaratmoqda. Fabula ham xuddi shunday shaklda syujetga aylangunga qadar taraqqiy etishda, ijodkorning o'y-xayollarida yashaydi.

Fabula poetikasi. Barchamizga ma'lumki, adabiyotshunoslikda fabula termini doirasida juda ko'plab bahs munozaralar yuradi. U syujetning sinonimi sifatida ham qo'llaniladi degan qarashlar ham yo'q emas. Fabula deganda asarda yuz berayotgan voqealarning hayotda yuz berish tartibini, syujet deganda esa voqealarning

³⁷ <https://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/tasavvuf/mavlono-jaloliddin-rumiy-ichingdagi-ichindadir-parcha.html>

hikoya qilinish tartibini ham tushunish mumkin. Ba'zi adabiyotunoslar fabula termini ortiqcha degan mulohazalarni ham bayon qilishgan. Biroq bu atama o'z yashash tarzini o'zgartirgani yo'q. Chunki fabula hali matnga kiritilishidan oldinga yozuvchi tasavvuridagi g'oya, g'oya esa rivojlanib syujetga aylanishi, voqealarning ketma-ket, izchil bayoni ham nazarda tutiladi.

Masalan, eng qadimga davrlarda biror voqelik bayoni bilan bog'liq dostonlarda ham fabula bo'lgan. U keyinchalik syujetga aylanib, yangidan-yangi syujetlarning yaratilishiga zamin paydo bo'lgan. Bular davrlar silsilasida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Yevropa romannavisleri ijodida fabula katta bir maqsadlar: qahramonlik, jo'mardlik, olijanoblik fazilatlarini o'zida mujassam etgan tadrijiy g'oyalarni ifodalashga ham xizmat qilgan. Shu boisdan ham, fabulaning mohiyatida voqelik, hali ishlanishi muhim bo'lgan g'oya turadi. Roman yozuvchilarning nimalarni unutib qoldirishi, nimalarga alohida mantiqiy urg'u berilishi ijod psixologiyasidan kelib chiqiladigan noyob bir hodisadir.

Mifopoetik asar dinamikasi fabulani qayta ishlash yo'lidan bormoqda. Chunki har qanday janr tabiatan evrilishga mahkumligini teran ifodalar fonida ochib berdi. Hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirish har bir yozuvchining badiiy mahoratini tayin etadi. Adabiyotshunoslik lug'atida fabula – syujetshunoslik kategoriyasi sifatida ko'riladi. Fabula termini qo'llashda turlichaliklar mavjud: u syujet terminiga sinonim sifatida ham, undan farqlanib ham ishlatiladi. Gap shundaki, asarda hikoya qilinayotgan voqealarni Arastu "mif" yoki "tarix", antik rimliklar esa "fabula" deb yuritgan bo'lsalar, XVII asrga kelib fransuz klassitsizmi nazariyotchilari xuddi shu narsani fransuzcha "syujet" termini bilan atashgan. Shunga ko'ra fabula syujet terminlarini sinonim sifatida qo'llashga ham asos bor. Shu bilan birga, bu ikki termin bilan boshqa-boshqa tushunchalarni atashga intilish ham mavjud. Jumladan, o'tgan asrning 20-yillarida rus formal maktabi vakillari boshlab bergan an'anaga muvofiq fabula deganda asarda tasvirlangan voqealarning hayotda yuz

berish tartibini, syujet deganda esa ularning asarda hikoya qilinish (joylatirilish) tartibini tushunish kengroq ommalashgan”³⁸. Haqiqatdan ham, fabula syujetning hayotda sodir bo’lgani, voqelik esa badiiy matnda qayta ishlangani bilan alohida ahamiyatga ega bo’lib, kengroq turzda syujetni ro’y berish vaqtini aniqlashda qo’l keladi. Shu boisdan, fabula hayotdagi voqealarning sodir bo’lish vaqti bilan, syujet vaqtini aniqlashda asos vazifasini o’taydi. Keng fabulaga ega asarlar tabiatiga diqqat qilinsa, mifologik qarashlar negizida qayta yozuvchi ijodiy izlanishlari davomida yuzaga kelganligini payqash qiyin emas. Ayni shu jarayon ijodiy konsepsiya tizimida yanada aniqroq tarzda olam va odam munosabatlarining tig’izlashuvini tayin etadi.

Hayot juda murakkabdir. Ingliz nasrining gullab-yashnagan oltin davri XX asrning boshlariga to’g’ri kelarkan, sargo’zashtnoma stilida bitilgan asarlar alohida mavqe kasb etadi. Bularni keng rakursda talqin etish har birimizga katta mas’uliyat vazifasini ham yuklaydi.

Ingliz nasrida o’ziga xos o’rin egallagan yozuvchilardan biri Jeyms Joys haqida shunday yozadi: “Uliss”ni o’qish tom ma’noda oson emas. Lekin ichiga kirgan, mag’zini chaqqan o’quvchiga u tuganmas go’zal onlarni baxsh etadi. Inson mayllari, ehtiroslari, kayfiyatlari, qarashlari, kechinmalarining cheksiz rang-barangliklariga, ong va hissiyot oqimlari ichida har qadamda insonni – uning millati, mamlakati, diniy etiqodidan qat’iy nazar, ilgari hech qachon ko’rilmagan, anglanmagan, o’ylanmagan behad original bir nuqtadan kashf etganday bo’ladi. Shuning barobarida, Joysni o’qish kishiga cheksiz bir maroq bag’ishlaydi. Joysni mutolaa qilishga kirishgan kitobxon ahdida qattiq turib, kitobni oxirigacha o’qishi kerak. Agar asarning asosiy qahramonlaridan biri Leopold Blumning xotini – qo’shiqchi ayol Mollining oz emas-ko’p emas, rosmana qirq sahifadan iborat bironta nuqta, bironta vergul yoki boshqa tinish belgilari qo’yilmagan Turon dashtiday bir tekis ichki monologini

³⁸ Adabiyoyotshunoslik lug’ati. –T:2013. –B.343.

zerikmay o'qiy olsa, u albatta, adadsiz hissiyotlar, turli fikrlar daryosiga g'arq bo'ladi. Dastlab tushunolmay qiynalishning oxiri hayrat bilan tugaydi. Bu tabir joyiz bo'lsa, nasrdagi cheksiz mahorat, cheksiz kashfiyotlar vodiysining hayratlaridir. Ammo o'qib bo'lgach kitobxon barmoq tishlabgina qolmaydi: o'ylaydi, o'ylaydi, o'ylayveradi... endi o'ylash mudovamatini hosil qiladi"³⁹. Prof.I.g'afurovning mulohazalari Joys haqidagi haqqoniy ta'rif desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki Joys matnga o'quvchini diqqat bilan olib kiradi. U nima demoqchiligini aytib tursa ham, fikrlashga, o'ylashga undaydi. Yozuvchining "Musavvirning yoshlikdagi shamoyili" nomli romani qaryib o'n yil vaqt davomida yozilgan. Adib bu davrda Irlandiyada yashagan. Dublinni hayoti, haroratini, odamlarning dardu tashvishini murakkab fabula bilan ochiqlashga intilgan. Buning uddasidan chiqa olgan ham deyish mumkin. Romanning asosiy fabulasi (syujeti) birinchi bo'limda qanday namoyon bo'lishi keyingi voqealarning murakaablashib borishiga zamin hozirlaydi. Jeyms joys asarda yosh Stivenning bolalikdagi o'zi ko'rgan-kechirgan azob va uqubatlarning og'riqlarini chin qalbdan his qilib yozarkan, hayotning murakkab formulasini chizishga erishadi:

"Stiven ayovsiz savalab tashlangan qo'llarini pinjiga bosgancha darhol tiz cho'kdi. Ezilgan, qavarib shishib ketgan qo'llariga ichi achidi, bular o'zining emas, boshqa birovning qo'llariday ularga rahmi keldi. U tiz cho'kib o'tirib, bo'g'zidan so'nggi alamli yoshlarni ichiga yutib, achishib og'riyotgan qo'llarini pinjiga bosib, kaftini tepaga qarata cho'zgan qo'lini, inspektorning qo'li barmoqlariga qattiq tekkanini, titrayotgan barmoqlarini qanday yoyganini, abjag'i chiqib, qavarib, qip-qizarib ketgan kaftining yumshoq go'shtini va havoda najotsiz qaltirab turgan barmoqlarini bir-bir ko'z oldiga keltirdi.

³⁹ <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/2-fevral-parijda-jeymas-joys-tugilgan-uliss-romani-ilk-bosmaan-chiqan-kun.html>

*– Qani hamma ishga! – qichqirdi inspektor eshik tomonga burilayotib. – azrat Dolan har kun kelib xabar oladi, tekshiradi – qani bu yerda yana jazoga loyiq ishyoqmas takasaltanglar, yalqovlar bormikan? Har kuni keladi hazrat Dolan, bilib qo'yinglar! Har kuni!"*⁴⁰

Yozuvchi Jeyms Joysning ushbu romanida fabula – murakkab fragmentlarni reallashtiradi. Stiven Dedalusning bolalikdagi orzu-umidlari ana shunday nohaqlik azobida o'tganini tasvirlar ekan, yozuvchi mkon qadar keyingi voqealarning qanday ro'y berish vaqtini ham ishoralar negizida isbotlab boradi. Chunki mif va roman hamisha bir-birini to'ldiruvchi ahamiyat kasb etgan. Unda har bir davrning qiyofasi aks etishi tabiiy. Insoniyat har qachon o'zining taqdiridan qochib qutula olmasligini ayni shu murakkab fabulalarda ko'rishimiz mumkin. Hayotning murakkab formulasi Joyslar avlodida – absurdizmni namoyish qiladi. Hayot o'z ma'nosiz, undan ma'no axtarib yashash, xuddi o'rmonda adashib, bir yorug'likka chiqib olgan adashgan yo'lovchi qismatini ko'z oldimizda namoyon etadi. Dunyoda har qanday shaxs adashishi tayin. U aqlli va ma'rifatli bo'lsa-da, adashishga mahkum. Stivenning xayollari hamisha oydin orzularni ko'zlaydi. U bir-biriga monand ravishda, kun kechirishga mahkum qismatdoshlari qatori o'z taqdirini anglashga imkon topganligida seziladi. Shuni qayd etish lozimki, yolg'izlik girdobida qolgan odamning holi-ruhiyatini bir tasavvur qilib ko'ring? Stiven ana shu jamiyatda o'z o'rnini topolmasdan, ko'ngliga bir malhami dori bo'la oladigan makonni qidiradi. Bunday makon bormikin? U shu savollar iskanjasida umr kechirarkan. Hamisha Haq va uning yorug' kun tuhfa qilajagiga imon keltiradi.

Badiiy xronotop – syujet vaqtini tipiklashtirishga ham imkon beradi. Chunki unda deyarli ko'plik ovozi bor. Stiven Dedalus – roman syujetida murakab qahramon. Uni din va falsafa, tarix hamda til bilimdoni deyish ham ishonchni oqlaydi.

Fabula poetikasini yanada chuqurroq anglash uchun jahon romanchiligidagi boshqa namunalarni ham ko'rib chiqish maqsadga

⁴⁰ Musavvirning yoshlikdagi shamoyili. –T:2021. –B.66.

muvofigdir. Chunki har bir yirik roman yozuvchisi fabula asosida hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirishga intiladi. Bunda voqealarning tabiiy rivoji, qahramonlar taqdiri va davr muhitining tasviri o'zaro uzviy aloqada namoyon bo'ladi.

Masalan, ingliz adabiyotining yana bir yirik namoyandasi **Charlz Dikkins** romanlarida ham fabula alohida badiiy ahamiyat kasb etadi. Uning "Oliver Twist" romanida yetim bola Oliverning og'ir taqdiri orqali XIX asr Angliyasidagi ijtimoiy tengsizlik va adolatsizlik masalalari ochib beriladi. Roman fabulasi oddiy voqea yetim bolaning turli sinovlar orqali hayotda o'z o'rnini topishga intilishi asosida qurilgan bo'lsa-da, yozuvchi bu voqealarni badiiy qayta ishlab, keng ijtimoiy muammolarni ko'rsatishga erishadi. Oliverning yetimxonadagi og'ir hayoti, jinoyatchilar orasiga tushib qolishi, keyinchalik esa haqiqatning yuzaga chiqishi kabi epizodlar fabulaning izchil rivojini ta'minlaydi. Shu tariqa voqealarning hayotiy ketma-ketligi syujetda murakkab badiiy shaklga ega bo'ladi yoki **Daniel Defoning** mashhur "Robinzon Kruzo" romanini olaylik. Bu asarda fabula oddiy voqeadan — dengizchi Robinzonning kimsasiz orolda yolg'iz qolib ketishi voqeadan boshlanadi. Biroq yozuvchi ana shu voqeani keng badiiy tasvir vositalari orqali boyitib, insonning tabiat bilan kurashi, uning sabr-toqati, irodasi va yashashga bo'lgan intilishini chuqur falsafiy mazmunda talqin etadi. Robinzonning orolda uy qurishi, oziq-ovqat topishi, vaqt o'tishi bilan tabiatga moslashib borishi kabi epizodlar fabulaning tabiiy rivojini ko'rsatadi. Bu jarayon orqali insonning ichki kuchi va hayotga bo'lgan ishonchi badiiy ifodasini topadi.

Xuddi shunday holatni rus romanchiligida ham kuzatish mumkin. Masalan, **Fyodor Dostoyevskiyning** "Jinoyat va jazo" romanida fabula Raskolnikov tomonidan sodir etilgan jinoyat atrofida shakllanadi. Biroq yozuvchi bu voqeani oddiy kriminal syujet darajasida qoldirmaydi. Asarda jinoyat sabablarini ochish jarayonida qahramonning ruhiy iztiroblari, axloqiy izlanishlari, vijdon bilan kurashi tasvirlanadi. Raskolnikovning ichki

monologlari, uning ruhiy holatidagi keskin o'zgarishlar fabulaning psixologik qatlamini chuqurlashtiradi. Natijada roman faqat bir jinoyat hikoyasi bo'lib qolmay, balki inson ruhiyati va axloqiy tanlovlari haqidagi falsafiy asarga aylanadi.

O'zbek romanchiligida ham fabula poetikasi o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Masalan, **Abdulla Qodiriyning** "O'tkan kunlar" romanida fabula Otabek va Kumush muhabbati hamda ularning taqdiri bilan bog'liq voqealar atrofida qurilgan. Biroq yozuvchi bu voqealarni tasvirlash jarayonida XIX asr Turkistonidagi ijtimoiy-siyosiy muhitni, eski tuzumning inqirozga yuz tutganini, millat taqdiri bilan bog'liq muammolarni ham keng yoritadi. Otabekning yangilik tarafdori sifatidagi qarashlari, uning eski urf-odatlar bilan to'qnashuvi roman fabulasi rivojida muhim o'rin egallaydi.

Demak, fabula poetikasining asosiy xususiyati shundaki, u voqealarning hayotiy tartibini saqlagan holda yozuvchining badiiy tafakkuri orqali qayta ishlanadi. Shu jarayonda qahramonlarning ruhiy olami, davr muhitining murakkabligi hamda inson taqdirining turli qirralari ochib beriladi. Natijada fabula syujetning asosini tashkil etuvchi muhim poetik kategoriya sifatida romanning badiiy tuzilishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Fabula poetikasi roman janrining ichki harakatini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lib, u orqali yozuvchi hayot haqiqatini badiiy talqin etadi, inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqur falsafiy mazmunda ifodalashga erishadi.

Syujetning statik tipi. Syujet haqida so'z borganda avvalo, fabuladan keng tushuncha ekanligini unutmashlik muhim. Roman badiiyatida syujet nechog'li muhim rol tutsa, kompozitsiyaham shu qadar murakkab semalarni tartiblashtiradi. Ayni chog'da, insoniyat yetib kelgan manzillaru makonlar, og'riqlar, iztiroblar barchasida – kompozitsion muvofiqlik, syujet tipining universallasuvi tayin etadi. Ayni jarayon har qanday mantiqning real yuzaga chiqish omillariga keng imkon beradi. Jeyms Joys, voqelikni tushunchalar negizida namoyon qiladi. U inson nimani xohlaydi, yashashi qanday,

ertaga kim bo'lmoqchi, qanday kasbni qoyilmaqom qila oladi, hammasini oldindan belgilab, mo'ljalni tiniq oladi. Shu boisdan ham, yozuvchi qahramonlari og'ir va o'ta teran mulohazali kishilardir. Davrga baho berarkan, adib hamma masalaga siyosiy tus berish yo'lidan boradi. amaldorlar, boylar, yo'qsillar, kambag'allar, ochlar, to'qlar negizida bir-biriga monand tushunchalar sintezini payvandlaydi. Bu borada so'z borganda syujet tiplari xususida nazariy adabiyotlardagi ta'riflarni, masalalarni oydinlashtirish muhim deb o'ylaymiz. "Adabiyotshunoslik lug'ati"ida: "Syujet Personajlarning "harakat"laridan tarkib topadi. Personajlarning makon va zamonda kechuvchi xatti-harakatlari ham, ruhiyatidagi o'y-fikrlar, his-kechinmalar rivoji ham harakatdir. Shu harakat tiplaridan qaysi biri yetakchilik qilishiga qarab S.ning ikki tipi ajratiladi: a) "tashqi harakat" dinamikasiga asoslangan syujet.; b) "ichki harakat" dinamikasiga asoslangan syujet. Birinchi tipdagi syujetlarda personajlarning biror maqsad yo'lidagi xatti-harakatlari, kurashi, to'qnashuvlari, hayotdagi burilishlar tasvirlanadi va shu asosda ularning taqdiri, ijtimoiy mavqeida muayyan o'zgarishlar yuz beradi. Bu nav syujetlarda voqea to'laqonli tasvirlanadi va o'z holicha ham badiiy-estetik qimmat kasb etadi. syujetning ikkinchi tipida voqealar o'z holicha emas, personaj ruhiyatidagi jarayonga turtki berishi jihatidan ahamiyat kasb etib, asar davomida personajlar hayotida, taqdirida yoki ijtimoiy holatida emas, uning ruhiyatida burilishlar, o'zgarishlar sodir bo'ladi"⁴¹. Yozuvchi L.Bo'rixon izlanishlarida asarlarida syujetning ikkinchi **"ichki harakat"** dinamikasini ifodalashdagi yo'sinlari ko'zga tashlanadi. Bir qarashda oddiy voqelikdan ham ham umuminsoniy masalalarni olib chiqish usuliga erishish ko'zga tashlanadi. Bular – kinoyaning yanada chuqurlashuvini taqozolaydi.

"Musavvirning yoshlikdagi shamoyili" romanida birinchi bo'limida – voqelikning nima haqida ro'y berish vaqtini

⁴¹ Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T., Akademnashr. 2013. –B.289-290.

tushuntirish bo'lsa, ikkinchi jihatdan, qanday ro'y berishga olib keladigan masalalarning ahamiyatiga diqqat qaratadi. Jeyms Joys ana shu mezonlarning murakkab jihatlarini yanada takomillashtirar ekan, ayni damda, ichki harakat dinamikasiga asoslangan syujetga ko'proq e'tiborni kuchaytiradi. **"Ichki harakat"** syujetning maksimal darajada real manzaraga esh muvozanatini takomillashtiradi. Bunda Stiven dedalus qismatiga daxldor Charlz tog'a ham muhim o'rin tutadi:

"Yozning birinchi yarmida Blekrokda Charlz tog'a Stivenning sodiq hamrohiga aylandi. Charlz tog'a qoruvli, yuzlaridan qat'iyati aniq ko'rinib turadigan, oftobda toblangan, oppoq chakka soqolli chol edi. dam olish va bayramdan boshqa kunlari unga oziq-ovqatga buyurtma berib kelish vazifasi yuklanar, u uydan chiqib, Kerisfort-avenyuga, shaharning shoh ko'chasidagi, odatda, oila zarur narsalarni xarid qiladigan do'konga yo'l olardi. Stiven u bilan do'kon aylanishni yaxshi ko'rardi, chunki Charlz tog'a yo'l-yo'lakay ochiq qutilarga, katta yog'och chelaklarga to'latilgan meva-chevalardan olib unga ularshardi. Bir bosh uzumni xash-xashagi bilan changallab ko'targan yoki ikki-uch dona olmaga qo'l solgan va ularni bolaga bajonidil hadya etgan paytlari bo'lgan. Bunday paytda sotuvchi tirjayib qo'yadi; agar Stiven o'zini olgisi kelmayotganday ko'rsatsa, sotuvchi qovog'ini solib deydi:

– Olavering. Ser, eshityapsizmi gapimni? Ichaklarga nafi bor buuning!"⁴².

Roman syujetida ikkinchi bo'limdagi voqealar yoyozuvchi ijodiy konsepsiyasini. Badiy xronotop yaxlitligini yanada keng qamrovda aks ettirishga imkon beradi. Stiven dedalus – taqdiri, Charlz tog'a bilan kechgan uzundan-uzun suhbatlar, cherkovdagi ruhoniylar suhbatlari, yashash, hayot haqidagi mulohazalar, munozaralar negizida yanada aniqlanib borardi. Mifologiya va din, axloq hamda real hayot manazarsi Joys uslubining ajralmas qismidir. Chunki yozuvchi yusjet voqealarni tartiblashtirar ekan, badiiy xronotopning

⁴² O'sha roman, -B.78.

oilal shaklidan keng istifoda qiladi. **Bolalik xronotopi** esa ana shu bo'shliqni to'ldirishga sabab bo'ladi.

Zotan, inson faoliyati davomida xilma-xil xarakterlarni ko'raverib, bilaverib, ularni tinglayverib, boshiga tashvishlar ketma-ket tushaverib, irodasi metin bo'ladiki, uni birorta zot yenga olmaydi. Joys takror ta'kidlayotgan dav'at – ibodat va iltijo, duodir. Buni tuo'g'ri tushungan o'quvchi Stiven Dedalusning keyingi taqdiri bilan yaqindan tanishishg'oyat huzur bag'ishlashini teran tushunib oladi.

Romanda bolalik xronotopi. Bolalik inson qalbida bir umr o'chmaydigan chiroqdir. U bir umr moliyaviy ag'voli o'nglanmay yayashab ijod etishga majbur bo'ladi. O'zi yashagan davr manzarasi, butun insoniyatni bilish, hayot shu tarzda hamma insonlar qalbida takrorlanadi degan katta bir tushuncha negizida fikrlaydi. Bu haqda so'z borganda yozuvchini Irlandiyani tashlab ketib umrining oxriga qadar sarson-sargardonchilikda umr kechirgan yozuvchi hamma vaqt muhtojlikda kun kechirishga majbur bo'ladi.

Tuzukkina shoirlikdan xabari bor, lirizm bilan sug'orilgan g'oyalarida Jeyms Joys pokiza qalb egasi ekanligini bilish mumkin bo'ladi. Ana shu baho XX asrda o'z mavqeini tobora mustahkamladi. Joysning bolaligi ham sertashvish o'tdi. Otasidan erta ajralish, onasi qo'lida tarbiya topish Joysni katta bir ummonga chiqishga sabab bo'ladi. Bularning mohiyatida ikki jihatni kashfetish mumkin:

1. Darbadarlik sindromi. 2. Muhtojlik xronotopi.

Joysning bolaligi ham ana shu mezonlarni bir-biriga payvandlashda juda qo'l keladi. Ayni damda, inkor va tasdiq tushunchasi ham Joysni qalbini o'rtaydi. Chunki Joys haqqoniy mard, to'g'ri so'z, halol, birovni haqiga ko'z olaytirmaydigan, kamtarin va olijanob bo'lib voyaga yetadi:

“Bolalar unga g'alati tuyuladi. Hammasining otasi, onasi bor, hammasining kamzullari va ovozlari har xil. Shu damda uyda bo'lishni va onasining tizzasiga boshini qo'yishni xohlab ketdi. Biroq

buning hech iloji yo'q edi va shunda bu o'yinlar, darslar, ibodatlar tezroq tugay qolishini istardi, borib to'shakda cho'zilib yetardi.

U yana bir krujka qaynoq choy ichdi, shu payt Fleming so'radi:

– Senga nima bo'ldi? biror joying og'riyaptimi?

– Bilmayman, – dedi Stiven.

– Qorning og'riyotgan bo'lsa kerak, – dedi Fleming, – ranging oqarib ketganga o'xshaydi. Hechqisi yo'q, o'tib ketadi.

– Ha, – dedi Stiven.

Biroq uning qorni og'rimayotgandi. Yuragim og'riyapti deb o'yladi u, agar shu joy og'rishi mumkin bo'lsa. Fleming ko'ngli ochiq bola, undan hol so'radi. Yig'lagisi keldi uning tirsaklarini stolga tiradi va kaftlari bilan ikkala qulog'ini mahkam berkitdi, keyin ochdi”⁴³.

Romanda ***bolalik xronotopi*** otasidan yetim qolgan, juda azob-uqubatlarda kun kechirishga majbur bo'layotgan Stiven xarakteri o'ziga xos o'rin tutadi. Aslida romanni ramizy ifodalarini hisobga olmaganda, biografik roman deyish mumkin. Chunki yozuvchi Stiven obrazi orqali o'z qalbining ommadan pinhon tutgan kechinmalarini yozib qoldirgandek taassurot uyg'otadi. Ayni shu tamoyil yozuvchining katta bir g'oyalarni ilgari surgani, olamdagi global metamorfozalarga oydinlik kiritganini dalolatlaydi. Adib ana shu mezon bilan o'z asarida badiiy g'oya hamda syujetni, fabulani muvofiqligini ta'minlagan. “Har bir yozuvchi voqelikni va qahramon dunyosini tabiiy usulda chuqur aks ettirishni istaydi. Joys usuli ana shunga keng imkoniyat beradi. Bu asardan yozuvchilar, bo'lajak yozuvchilar ijodiy usullarini shakllantirish uchun o'rganadigan narsalar ko'p. Joys tili, xususan, tarjimada ham bu yaxshi aks etgan, shoirona, stixiyali til. Garchi unda atayin qilingan cho'zilgan, g'alizlashgan, ma'nosini yo'qotgan, ming'ir-ming'irga yoki shunchaki biron tovushning aks sadosiga o'xshash jumlar juda ko'p bo'lsa-da, adib asarda chinakam poeziyaning kuch-qudratini to'lib-toshib, jo'shqin bir ehtiros bilan namoyish qilolgan. Asardan, ba'zi adiblarimiz aytganidek, hayotning qora tomonini aks ettirishnimas, balki

⁴³ O'sha roman. 13-14.

adib usul imkoniyatlarini va ichki kechinmalarni aks ettirish usulini, soʻz ishlatish va voqelikka yondashuv, qahramonlar dunyosiga kirib borish, uning ichki dunyosini tadqiq qilish, asarga mifologik qoliplar yasash, mifologik talqinlarni singdirish kabi koʻplab adabiy yutuqlarini oʻrganish mumkin”⁴⁴. Haqiqatdan ham, munaqqid va yozuvchi N.Eshonqul toʻgʻri taʼkidlab oʻtganidek, tabiiylik va uni oʻziga xos tasvirlash oʻzbek adabiyotida Shukur Xolmirzaev, Oʻtkir Hoshimov ijodida yaqqol koʻzga tashlanadi. Ular ana shu konsepsiya bilan tabiat-jamiyat-inson fenomeniga oydinlik kiritadi. Xurishd Doʻstmuhammad koʻprof falsafiy-psixologik vaziyatga, talqinga jiddiy eʼtibor qaratadi. Bu yozuvchi uslubining oʻziga xosligidan shahodatdir. Shunday asarlar boʻladiki, peyzaj orqali butun bir gʻoyani ifodalab, xarakterlarni chuqur bir qiyofasini koʻz oʻngimizda jonlantira oladi. Bu oʻzbek adabiyotida Isajon Sulton asarlarida deb aytish mumkin. Tabiiy bir holat shuki, bolalik haqida hamma ham goʻzal asar yozolmaydi. Oybekning, Gʻafur Gʻulomning, Abdulla Qahhorning bolaligi ham oson kechgan emas. ular ham oʻz bolaligini avtobiografik yoʻsinda, kinoyaviy, goh realistik, goh psixologik talqin qilish orqali ochib koʻrsata olgan. Masalan, biorgafik roman deb aytayotganimiz, - musavvir kim? Uning yoshligi qanday kechmoqda. Stiven Dedalusning xatti-harakatlari mana shu muhit ichida ulgʻaygan bolalik ramzlarga yoʻriladi. U yoshligini zavqu shavq bilan emas, qaygʻu hamda hasrat bilan oʻtkazadi. Atrofidagi odamlarning unga boʻlgan munosabatidan ham bilish mumkinki, odamlar tez oʻzgaradilar, ularning qalbida doim axloqdan koʻra buzgʻunchilik humron boʻladi. Iblisni soʻziga kirib, jamiyatda yomonliklarni qilishga odatlangan har qanday razil odamdan faqta yomonlik koʻrish mumkin degan gʻoya kelib chiqadi:

“Men hali butkul sogʻayganim yoʻq-ku.

Maykl ogʻa gapini takrorladi:

– Beramiz, beramiz, koʻngling toʻq boʻlsin. Buni senga men aytayapman.

⁴⁴ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/jeyms-joys/>

U o'choqdagi olovni qo'zg'amoqchi bo'lib enkaydi. Uning beli chana tortadigan otlarnikiday uzun edi. u kozovni hafsala bilan silkiladi va uchinchi sinf bolasiga ma'nilatib bosh irg'ab qo'ydi.

Keyin Maykl og'a chiqib ketdi, biroz o'tib uchinchi sinf bolasi devor tomonga o'girilib oldi va uxlab qoldi.

Mana u kasalxonada. Demak, u kasal. Ular ota-onasiga xat yozib, xabar berishganmikan? Yaxshi bo'lardi agar ruhoniylardan birortasi borib aytsa.yoki o'zi xat yozib berardi, eltib bersa.

Mehribon onajonim!

*Men kasal bo'lib qoldim. Uyga ketgim kelyapti. Tezroq keling, meni uyga olib keting. Men kasalxonadaman. Suyukli o'g'lingiz Stiven."*⁴⁵.

Otasidan yetim qolgan Stiven real hayotda Joysning qalbidagi muhabbatni anglash uchun o'quvchi katta tafakkur yuritishi tayin. U najot farishtasiga talpinadi. Allohni yaxshi ko'rish, aql bilan ish tutish, odamlarga ulkan xayrixohlik bilan nazar tashlash muhimligini namoyon qiladi. Bularning barchasida Stiven Dedalus dunyoqarashi aks-sado beradi. Quyida o'zbek avtobiografik qissalaridagi yozuvchi olami bilan qiyoslashga urinib ko'ramiz:

Darvoqe, avtobiografik janrning tabiiy rivojlanishi haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, inson xato va nuqsonlardan xoli mavjudot emas, uning adashishlari va tabiiy o'sish-o'zgarishlari ana shu murakkab jarayonning bir uzvi sifatida muayyanlashadi. Shunday ekan, insonning badiiy bilish va hayotni anglash modifikatsiyasida ayni shu jihatlar o'zining ravishini namoyon qiladi. Badiiy asarda modifikatsion qurilish – sistembutunlik kasb etmas ekan, uning o'ziga xos qonun-qoidalarini anglash mushkuldir. Mana shu jihatlariga jiddiy e'tibor beradigan bo'lsak, quyidagi 4 ta asosiy tamoyil muammoning nazariy jihatlarini yanada tiniqroq anglab olishga yetaklaydi:

⁴⁵ O'sha roman. –B.27.

1. Avtobiografik janrda syujetga xos unsurlar dinamik ravishda tabiiy o'sish-o'zgarishlarga borib tutashuvi hamda muallif-o'quvchi-qahramon uchiligining saqlanib qolishida;

2. Avtor pozitsiyasi ustuvorligi. Chunki avtobiografik asarda bosh qahramonning botiniy va zohiriy xislatlarini to'g'ri talqin qilish modusiga jiddiy qarash;

3. Yozuvchining voqelikni yoritishda o'z "men"ining ustuvorligini ham tabiiy ravishda singdirib yuborish ko'nikmasining birlamchiligi;

4. Yozuvchi hayot voqeligining haqqoniyligini teran his-idrok eta olish malakasining chuqurligi, umuminsoniy qadriyatlarga tutashuv nuqtalarini to'g'ri talqin qilish mahoratining yuksakligi bilan reallashadi.

Mana shu jihatlar janrning nafaqat ichki rivojlanish balki tashqi faktorlar bilan keng ko'lamli hayot haqiqatini to'g'ri talqin qilish metodologiyasining ustuvorligiga borib tutashuvini ham dalolatlaydi. Janrning nima uchun dinamik ravishda taraqqiyoti har bir davrning ijtimoiy-siyosiy tutumlarini e'tiborga olish bilan ham o'lchanadi. Masalan, zamon mafkurasi ijodkor oldiga o'zining konseptual qarashlarini qo'yadi. Senzura va yakkahokimlik avj olgan jamiyatda – qalbdagi bor muhim dardu tashvishlarini baralla aytishning iloji bo'lmagandan keyin, qaysidir ma'noda, biografik matn muallifi o'zi yaratayotgan siymo xarakteridagi ba'iz cheklovlarni tabiiy "tiyib turish"ga majburligi ayonlashadi. Shunday ekan, biror tarixiy shaxs yo'qki, o'z davrida butun-murakkabligicha ochiq xarakterlarining eng zaruriy qismlarigacha, qismatining oq va qora ranglarda aks etishini tabiiy tasvirlamagan bo'lsin. Mana shu hayqiriq negizida janrning ichki faktorlari asta-sekin o'z qiyofasini ko'rsatib borishi ayon bo'ladi.

Prof. D.Quronov "Gegel estetikasida pafos juda muhim o'rin tutadi, u san'atning o'zagi, "san'at saltanati"ning asosi sifatida talqin qilinadi. Hegelga ko'ra, pafos inson mohiyatini tashkil etuvchi ob'ektiv mavjudlik, qalbni harakatlantiruvchi qudratli kuch bo'lib, ijodkor o'z asarida uni ifodalashni maqsad qiladi, ya'ni muayyan

pafosni ifodalash san'at asarining muaddaosi, ijodning motividir. Shu asosda Gegel ijodga turtki beruvchi motivlar, pafos ko'rinishlari sifatida "oila", vatan, davlat, cherkov, shon-sharaf, do'stlik, g'urur, nomus, muhabbat" kabilarni ko'rsatadi. Gegel ta'rifidagi pafos ko'proq asar personajlari bilan bog'liq bo'lsa, V.Belinskiy uni ijodkor shaxsi bilan bog'laydi⁴⁶.

*"...Yoshlari o'ttiz oltiga borgan, "Sarob"day romanning muallifi bo'lsalar ham, hamon o'sha "O'tmishdan ertaklar"dagi bola singari indamas edilar. Qariyb to'qqiz oy uchrashib yurgan bo'lsak-da, biror marotaba dildagi gaplarini aytganlari yo'q. Forscha, tojikcha olib kelgan kitoblarini o'qitib ketar edilar, xolos. Yoki, "Kecha aytib bergan hikoyatingiz ma'qul bo'ldi, yozib olay deb, keldim", deb qo'ya qolardilar. Keyingi oylar ishim ko'payib, o'n-o'n besh kunda bir ko'rishadigan bo'ldik. Bu orada qattiq boshog'riq kasaliga yo'liqib, qoldim va shu bahona bilan menga ishxonamdan otpuska berildi. Jo'nash arafasida xayrlashgani uylariga kirdim. Yana indamay xayrlashib qo'ya qoldilar, hatto orqamdan ko'chaga ham chiqmadilar. Tarvuzim qo'ltig'imdan tushib, Gogol ko'chasi, hozirgi O'zbekiston Fanlar akademiyasi prezidumi joylashgan bino oldiga borib qolganimda orqamdan qadam tovushi eshitildi. Qayrilib qarasam – Abdulla Qahhor. Kelib qo'limdan ushladilar"*⁴⁷.

Adabiyotshunos A.Rahimov qayd etishicha: "Fanda avtobiografik janr atrofida anchagina chalkash va bir yoqlama fikrlar yuradi. Ba'zi tadqiqotchilar avtobiografiya janrida badiiy to'qima bo'lmaydi, unda personajlar obrazlarini tipiklashtirish xuddi ocherkdagi singari cheklangan, deb, qaraydilar. Rivoyaning mazkur formasida tasvirlangan barcha hodisalarni aniq hujjat, yozuvchi biografiyasining fakti deb, qabul qiladilar. Aslida esa avtobiografik janr asarlarigina emas, hatto to'la hujjatlikka da'vo qila oladigan biografiya janrida ham tasvirlangan voqealarning barchasini hujjat deb qabul qilish aslo mumkin emas. Inson xotirasi qanchalik

⁴⁶ Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T: "Akademnashr". 2013. –B, 220.

⁴⁷ Ko'rsatilgan adabiyot, -B.18.

mustahkam va kuchli bo'lmasin, oradan vaqt o'tgach kechmish epizodlarini tiklar ekan, yozuvchi voqealarni qaytadan yaratishga majbur bo'ladi, o'sha paytlardagi fikr va tuyg'ularini qaytadan idrok etmasdan iloji yo'q"¹¹. Bu keltirilgan iqtibos bir tomondan to'g'ri fikr. Biroq uning aynan janriy-kompozitsion yaxlitligi orqaligina aniqlash muhim.

Zero, Jeyms Joys bolalik xronotopini ikki muhim jihatga manitqiy rug'u berish bilan kiritib o'tadi. Stiven Dedalus real hayotda nega bunchalik adashishlarni ISYoN bilan yengishga almashtirdi. U nega o'z atrofida gilaridan ko'p hollarda katta umidlarni talab qilmadi? Chunki ojiz banda (muhtojlik, darbadarlik, kambag'allik)ni shu masalalar sinovdan o'tkazardi. U ko'p hollarda yagona Umid Haq va iymon deb bilgani uchungina adob va axloq doirasidan bir dam chiqishni xohlamaganida deb tushunamiz. Mana shu badiiy syujet liniyalari asardagi dinamik so'ishlarni muvofiqlashtiradi. Insonga inson o'laroq qarash muhimligini tayin etadi.

Romanda kinoyaviy usul xronotopi. Har qanday asarda badiiy xronotop turlari mavjud va u syujet voqeligini yanada qiziqarli chiqishini tayin etadi. Ayni damda, xarakterlarni ham tipiklashtirishga hissa bo'lib qo'shiladi. Xarakter birdaniga shakllanmaydi. Uning ham o'z qonun-qoidalar bor. Shu boisdan ham, kinoya xalq tilida "kosa tagida nima kosa"ni yodimizga soladi. Kinoyaviylik modusi yoki xronotopi ayni shu zamon motivida reallashadi. Stiven dedalus – atrofida uyushgan qahramonlarni Jeyms Joys turli maqsadlar bilan tipik sharoitda tipik vaziyatda sinovga safarbar qiladi. Vaholanki, kinoya qilinayotgan shaxs, aslida jamiyatga keraksiz odam. U amaldor, vahshiy, zulmkor sifatida ham bo'y ko'rsata veradi. Irlandiya yoki Angliya oralaridagi sovuq urushlar, o'zaro kelishmovchiliklar, bir-birilarining qadriyat nuqtai nazaridan mushtarakligi, fe'li. Xulqi, xarakterlari o'xshashligi ham tuushuniladi. Demak, kinoya qilinayotgan vaqt bilan, kinoyaga sabab

¹¹ Rahimov A. O'zbek romani poetikasi. Filol. Dok.disser. –T.: Fan. 1993. –B. 146.

bo'lgan omillarni aniqlab olish zarur. F.f.d. M.Sheralieva shunday yozadi: "Ideallashtirilgan "men" aslida reallikda mavjud bo'lib bo'lmagan, inson ongidagi obraz bo'lib, u ijtimoiy-axloqiy me'yorlarni soxta talqin qilish, ulardan faqat bittasini mutlaqlashtirish, chegaralash yoki atayin tor tushunish orqali yaratib olinadi. Ideallashtirilgan obraz soxta ideal asosida yuzaga keladi, soxta ideal esa mavjud shart-sharoitlar bilan hisoblashgan, ularga moslashgan holda ideal talablarini tanlash va amal qilishni anglatadi. Bu o'rinda mavjud holatning nobop jihatlariga qarshi qo'yilgan (haqiqiy) ideal bilan ana shu nobopliklarga moslashish, ular bilan kelishuvga borish asosida tanlangan (soxta) idealni farqlash kerak bo'ladi. Inson nobop sharoitga moslashganligi (mavjud "men")i haqidagi tasavvurni ongli hayotidan quyiga – ong ostiga tushirib yuboradi, o'zini faqat ideallashtirilgan obraz holida ko'radi. Ideallashtirayotganidan bexabar holda o'z holatini me'yor deb hisoblaydi. Demak, inson ongidagi ideallashtirilgan obraz o'z ijtimoiy-axloqiy me'yorlaridan chekinmaganlik illyuziyasidan boshqa narsa emas"⁴⁸. Darhaqiqat, manbaga asoslansak, haqiqatdan ham, har bir soxta tushuncha – mafkura, tuzum hamda zamon talablarida targ'ibot va tashviqotga evriladi:

– *Sening-cha, kim buyuk shoir? – so'radi boland yonidagi oshnasini yelkasi bilan turtib.*

– *Bayron – buyuk shoir, – javob berdi Stiven.*

Avval Kuron, keyin oshnalari uni masxaralab kulib yuborishdi.

– *Nega klyapsizlar? – so'radi Stiven.*

– *Sening ustingdan kulyapmiz, – dedi Kuron. – bayron – buyuk shoir emish. Chalasavod nodonlargina uni shoir deyishi mumkin.*

– *Ol-a! Ana senga zo'r shoir! – dedi Boland.*

– *Sen, yaxshisi, tilingni tiysang bo'lardi, – dedi Stiven unga dadil burilib qarab. – Sening poeziya haqida bor bilganing hovlidagi*

⁴⁸ Sheralieva M. Hozirgi o'zbek nasrida kinoya. Filologiya fanlari doktori diss.avtoreferati. – Toshkent: O'zFA. 2017. -B.14-15.

devorga yozganingdan ma'lum-ku? Be'mani qilig'ing uchun ta'ziringni berishmoqchi bo'lishdi-ku?

Haqiqatan ham Boland hovlining devoriga kollejdani uyiga pastakkina toti otda boradigan bir bola haqidagi anchayin misralarni yozgan deb gapirishardi:

Tayson otda Quddusga ketdi,

Yiqilib yo'lda lat yedi keti⁴⁹.

Stivenning bu hujumidan sheriklarining uni o'chsa-da, Kuron tiyilmadi:

– Nima bo'lgandayam, baribir, bayron shakkok bo'lgan, buning ustiga axloqi buzuvchi bo'lgan.⁵⁰

Romanda kinoya xronotopi o'ziga xos o'rin tutadi. Bir vaqtning o'zida Stiven atrofida uyushgan bir to'da g'alamis sinfdoshlarining xarakterini qisqa vaqt ichida (saviyasini) anglatishga xizmat qilsa, ikkinchidan, Stiven tafakkurining voqeadan-voqeaga o'sib borayotganligini kafolatlaydi. Shu boisdan, ularda qat'iyatli kim, jo'mard kim, bilimli kim degan savollarga javob topish mumkin bo'ladi. Stiven Dedalus – shaxsiyat egasi. U atrofidagi odamlarning, hatto o'zini o'qitayotgan ustozlarining ham bilimi sayozligini. Ko'zining oldidan bir qadam narini sinchiklab ko'rolmasligini tayin etadi. Shu bois, kinoyaviy usul roman to'qimalarida jamiyat, hayot, irland xalqining umumiy kayiyatini. Yoki inglizlar ruhiyatidagi o'ziga xosliklarni teranroq anglash imkonini beradi.

Roman tahlili davomida shuni qayd etish lozimki, ruhiy zo'riqishlar Stiven Dedalusni anchayin yuksaltiradi. U oq va qoraning farqini his bilan emas, aql bilan ajratish yo'liga tushadi. Bu haqda so'z borganda: “Mana shu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, psixologik tahlilning **dinamik, analitik, sintetik va ichdan ko'rsatish** prinsiplariga alohida urg'u berilgan. Psixologizm asar muallifi tomonidan qahramon ichki dunyosini, uning his va fikrlari harakatini, ongli va impulsiv to'lg'anishlarini badiiy kashf etishda

⁴⁹ Noma'lum muallifning balladasidan. Uning bir necha variantlari bo'lgan, biroq aksariyatida tilga olib bo'lmaydigan beadab so'zlar ishlatilgan.

⁵⁰ O'sha roman. –B.105-106.

qo'llaniladigan poetik vositalar tizimidan iborat nasrning o'ziga xos xususiyatlari ekan, ayni paytda, psixologik tavsifda shaxsning individuallashtirilgan qirralari ustunlik qiladi", – deya yozadi prof. Sh.Botirova.

Kinoya darajalarining zamonda aks etishi modusi. Jeyms Joysning asarlarida badiiy xronotop (syujet)ning dinamik prinsiplarini muvofiqlashtirib, yangidan-yangi obrazlarning ochiq-ochiq olib keladi. Shu boisdan ham, har bir mantiq ichida bir olam jumboq yashiringan bo'ladi. Ayni damda, Stiven jamiyatga katta bir hayrat bilan qaraydi. Uning olam va odam haqidagi tasavvurlari ham o'ziga xos. Shu sababli ko'ngil izmidan borib, aql tarozusida fikrlab, muhabbat bobida yayrab yurish uning joni dilidir. Uchinchi bobda kinoya xronotopi davrning, odamlarning, fasllarning ruhiyatini ham tipiklashtirishga hissa bo'lib qo'shiladi. Quyidagi matnlarda buni tahlil qilib ko'ramiz:

*"Qayg'uli kun o'tib, dekabrning tezkor shom qorong'isi alang-balang masxarabozday bir zumdayoq yerni qopladi, u sinf xonasida derazaning to'rtburchak xira oynasiga termilib o'tirib, qorni ovqat talab qilib tatalayotganini his etdi. Kechki taomga sabzi, sholg'om solingan va achchiq murch sepilgan unliqayla ustiga kartoshka pyuresi va yog'li qo'y go'shti bostirib solingan qovurdoq deb umidlandi. Bularning barini joyla derdi go'yo qorni qutqu solib"*⁵¹.

Ushbu lavhada fasllar va hayotning umumiy rang-atvori kinoyaga olinadi. U ruhiy olamidan ham bezganligini, Stivening kayfiyatini yanada aniqlashga yo'l ochadi. Chunonchi, davrning haqqoniy manzarasi – kinoyaga olinar ekan, odamlar nega bunchalik subutsizlashib borayotganini ham bilish qiyin emas. Axir, iymon haqida ko'p gapirilgan ushbu roman do'zax va jannat tushunchalari hamma din uchun barobarligini ham unutmaslik lozim. Oxiratga ishonish kerakligini, rassomona ko'z bilan ko'rayotgan Jeyms Joys haqni tanishga da'vatkor bir ShAXS bo'lib ko'z oldimizda

⁵¹ O'sha roman, -B.136.

gavdalanadi. Ulkan va e'tiqodli qalblargina bunday og'ir falsafani ochib bera oladi:

- *Xello, Berti, xo'sh, nima bilan xursand qilasan, azizim?*
- *Ha, senmisan, do'ndiqcha?*
- *O'ninchi nomerga kir. Jajji nelli ko'zlari teshilib kutyapti.*
- *Bu oqshom bir yayray debsan-da, a, yigitcha?*

Uning daftaridagi tenglama darajalari bildirilgan ko'zcha va yulduzchali belgilari bilan to'vusning serhasham dumiday tarvaqaylab ketdi; darajalarning ko'zchalari va yulduzchalar o'zaro chog'ishtirilib qisqartirilgach, dum asta-sekin ixchamlasha boshladi"⁵².

Stiven o'zining sindosh qizlari bilan bo'lib o'tgan qisqa muloqotida ham mulohazali bir ohangda suhbatlashadi. Kinoya bu o'rinda kelajakdagi orzulari, kim bo'lishi, nimalarni qo'lga kiritishi xususida hamisha yonib so'zlashlarida namoyon bo'ladi. Ayni damda, hayot haqiqati bir maromda kechmaydi. Uni sinovlari, og'riqlari ham mavjud. Stiven roman badiiyatida ana shu konsepsiyani yuzaga chiqarish uchun tanlangan tipik shaxs, fenomen. Aniqroq aytadigan bo'lsak, Jeyms Joysning o'zi. Avtobiografik roman shakllari adibning irland xalqini sevishi va achchiq alam bilan yovvoyi cho'chqaga o'xshatishida ham o'tkir kinoya mavjud. U Vatani yomon ko'rganidan emas, aksincha, yaxshi ko'rganidan sevadi. Bunday sevishlik hamisha ham hammaga yoqavermaydi. Stiven ana shu hayot formulasini yelkasida ko'tarib kelajakka maktub bitayotgan qahramonlarning tipik namunasidir.

Prof.V.Alimasov shunday yozadi: "Isyonda g'oya bo'lmaydi, unda odamning o'z istaklariga hissiy ergashishi hukmron, revolyusiya esa g'oyalarga asoslanadi va uning o'zi hodisalar ustidan hukmron bo'lishga intiladi; isyon aniq voqeaga, shaxsga qaratiladi, revolyusiya-xalqqa, sinflarga, tuzumga; isyon o'z begunohligini himoya qilsa, o'zaro kelishuvni ko'zlasa, revolyusiya boshqalarni gunohkor deb biladi, ularni yo'q qilishni ko'zlaydi; isyonning o'z chegarasi, doirasi bor, revolyusiya hudud, sarhad bilmaydi; isyon

⁵² O'sha roman, -B.137.

mavjud kuch va imkoniyatga tayanadi, revolyusiya yangi-yangi kuch va imkoniyatlar qidiradi; isyon o'z maqsadiga yetgach to'xtaydi, revolyusiya hal etib bo'lmaydigan vazifalarini o'z oldiga qo'yadi; isyon pastdan yuqoriga qarab yo'naltiriladi, revolyusiya — yuqoridan pastga; isyon reallikka asoslanadi, revolyusiya-romantizmga; isyonning quroli so'z, e'tiroz, mubohasa, revolyusiyaning quroli do'q, o'q, mabohasadir"⁵³. Aslida, ham shunday, isyonda g'oya bo'lmaydi degan jumlaning o'ziyoq – har qanday ezgu isyon g'oyaning bag'rida pishib yetilishiga ishora qilinmoqda. Axir, insonning tafakkuri yuksalgani sayin, uning chinakam mavjudligi, shajarasi, o'zligini bilib olish mumkin:

– Bilasizmi, Ennis, sizning yelkangizdagi bu kalla emas, shunchaki oshqovoq desa ham bo'laveradi. Sizga nima bo'ldi o'zi – nahotki, irrotsional miqdor nimaligini bilmasangiz?

*Betayin javobdan sinfdoshlariga nisbatan uning ko'nglida g'imirlagan bepisandlik battar kuchaydi. Endi u boshqalar oldida uyalib-netib o'tirmas edi. Yakkshanba kunlari ertalab cherkov yonidan o'tayotib ibodat qilayotganlarga beparvo qarab qo'yardi; odamlar to'rttadan tizilishib, boshlarini egishib, cherkovning eshigi oldida itoatkor turishar, ichkaridagi ibodatini ko'rmayotgan va eshitmayotgan bo'lishsa-da, o'zlarini marosimda ishtirok etayotganday tutishardi. Ularning ma'yus xudojo'y qiyofalari va sochlariga surtishgan arzon moyning ko'ngilni aynitadigan hidi bu muqaddas joydan uning ixlosini qaytarardi. U ham boshqalar qatori riyokorlikka yo'l qo'yar, biroq avomning soddadilligiga, shunday osongina aldanishga mutlaqo ishonmasdi"*⁵⁴.

Romanda kinoyaviy uslu xronotopi zamon hamda makonda kechuvchi voqealar sintezini bir-biriga mahorat bilan ulanganini dalolatlaydi. Unda real vaziyat hamda real sharoit Stiven ruhiyatidagi uzil-kesil o'zgarishlarni dalillab boradi. U o'zining sinfdoshlariga bergan kesatiq savollari bilan ko'pchilikning nima

⁵³ <https://kh-davron.uz/yangiliklar/viktor-alimasov-isyonkor-odam.html>

⁵⁴ O'sha roman, -B.139.

qilib yurganini tayinli o'zlari bilmasligini yaxshi tushunadi. Shunga ko'ra, roman syujetida bu hodisalar, xarakter taqozosi o'laroq yangi-yangi kriteriylarni namoyon etadi.

Prof.Y.Solijonov qayd etishicha: "Ma'lumki, Sizif haqida Gomer, Esxil, Sofokl, Yevripid, Kritiy singari buyuk yunon mutafakkirlaridan tortib, Sartr, Joys, Kafka, Prust, Merlp, Nikitin va boshqa o'nlab Yevropa adiblari turli janrlarda asarlar yaratishgan. Ularda Sizif turli qiyofa va xarakterda namoyon bo'ladi. Lekin barchasi uchun yagona xususiyat ham mavjud: Sizif firibgar, xudolarni aldagan, ularning sirini fosh qilgan, bo'ysunmagan, amrini bajarishdan bo'yin tovlagan. Bunday shakkokligi va qaysarligi uchun u xudolar tomonidan qattiq jazoga mahkum etiladi: uning zimmasiga ulkan xarsangtoshni pastlikdan tog'ning eng baland cho'qqisiga yumalatib olib chiqish vazifasi yuklanadi. Hukm qat'iy, shikoyatga o'rin yo'q. Tosh esa Sizifga begona emas. Gomerning tasvirlashicha, Sizif aslida o'ta ta'magir, shuhratparast, xudbin, yo'lto'sar-qaroqchi bo'lgan va yo'lovchilarni tunab, boyliklarini tortib olgach, ularni ana shu tosh ostiga bostirib, azoblab o'ldirishdan zavqlangan."⁵⁵

"Jeyms Joys 1941 yili vatanidan uzoqda, keyingi 20 yillik umri o'tgan Syurixda, oshqozon yarasidan qon ketishi oqibatida vafot etdi. Uni hayvonot bog'i yonidagi kamtargina qabristonga yanayam kamtarona marosim bilan ko'mishdi. Bir umr erining nima uchun va kim uchun asar yozishini tushunmagan rafiqasi Nora Barnakl beixtiyor shunday degandi: "U hayvonlar ichida sherlarni yaxshi ko'rardi. Mana endi qabrda ham sherlar o'kirigini eshitib yotadi".

Oradan vaqt o'tib erining qabrini ziyorat qilish uchun kelayotganlarni hamda asarlaridan uzluksiz oqib kelayotgan qalam haqini ko'rib, butun dunyo matbuotining XX asrning ulug' adibi vafot etgani haqidagi shov-shuvlariga guvoh bo'lib, nihoyat, Joys bilan tanishgan, bir umr bog'lanib qolgan va keyinchalik "Uliss" romanidagi voqealar sodir bo'lgan, san'at tarixiga "Blum kuni" deb muhrlangan kundan, ya'ni 1904 yil 16 iyundan buyon kechgan 37 yil mobaynida

⁵⁵ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/j-ldosh-solizhonov-sizif-va-absurd/>

*o'zi bilmagan holda daho bir inson bilan birga yashab o'tganini tan oldi"*⁵⁶.

Ko'rib o'tganimizdek, irland yozuvchisi ijodida badiiy xronotop, ma'naviy-ma'rifiy tanlov shartlari o'zbek yozuvchisi Xurshid Do'stmuhammadning "Donishmand Sizif" romanidagi mifopoetik talqin qamrovining o'lchami kengayishiga katta zamin yaratgan. Ayni shu konsepsiya vaqtning umumiy formulasi – zamon, makon munosabatlari tig'izlashuviga sharoit hozirlagan. Shu konsepsiya davr manzaralarini ko'z o'ngimizda gavdalantirishga umid bag'ishlaydi. Zero, o'tish davri romanlarida odamlar hamisha to'g'ri yo'l izlaydi. Ma'naviyatli va ma'rifatli bo'lishni xohlaydi. Biroq, unga yetishning iloji bormi degan savol tug'ilishi tabiiy. Irodasi va e'tiqodi, maslagi hamda muhabbati mustahkam odamki bor bularga albatta erishadi degan konsepsiya X.Do'stmuhammadning ideal orzusi bo'lsa, ajabmas. Zero, kuzatish va tahlillar Joysona tafakkur adabiy ta'siri keyingi fasllarda o'z ifodasini topishi tayin.

Ingliz yozuvchisi ijodida avtobiografik talqin sintezi ham falsafaiy-psixologik jihatdan, ham syujet vaqti jihatidan, ham xronotop shakllarining universal modusga evrilishi tomonidan badiiy yaxlitlikni yuzaga chiqarish omillaridan biri ekanligini kafolatlaydi. Bunday rang-barangling XX asr o'zbek romanchiligining ajralmas halqasi ekanini namoyon qiladi. Oruzlari bisyor Stiven Dedalus olami esa Joysning bolaligini, shoirona tafakkur tarzining o'ziga xosligini, olam va odam haqidagi mulohazalarining sermazmunligini istifoda etadi. kinoya darajalarining zamonda aks etishi modusi roman poetikasida nafaqat uslubiy vosita, balki davr ruhiyatini ochib beruvchi muhim estetik mexanizm sifatida ham namoyon bo'ladi. Jeyms Joys asarlarida kinoya ko'pincha qahramonning ichki monologi, tafakkur oqimi hamda jamiyatga bo'lgan tanqidiy munosabat orqali ifodalanadi. Bu esa badiiy xronotop doirasida vaqt va makonning falsafiy talqinini yanada chuqurlashtiradi. Stiven Dedalus obrazi

⁵⁶ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/jeysms-joys/>

aynan shunday murakkab ruhiy jarayonlar markazida turadi. U o'z davrining ijtimoiy, diniy va ma'naviy muammolarini teran his etgan holda, jamiyatdagi rasmiy qarashlarga nisbatan kinoyaviy munosabat bildiradi.

Bunday kinoyaviy yondashuv Joys ijodida ko'pincha tafakkur va voqelik o'rtasidagi ziddiyatni ochib beradi. Stiven jamiyatdagi riyokorlik, an'anaviy qarashlarning soxtaligi hamda inson erkinligini cheklovchi ijtimoiy muhitga qarshi ichki norozilik hissini yashirmaydi. Shu bois uning fikrlari ko'pincha keskin, hatto kinoyaviy ohangda ifodalanadi. Bu jarayonda qahramon ruhiyati bilan davr manzarasi o'zaro uyg'unlashib, roman syujetining falsafiy qatlamini boyitadi.

Ayni jarayonni XX asr modernistik adabiyotida ham keng kuzatish mumkin. Masalan, Frans Kafka asarlarida ham kinoya zamon va makon tushunchalari bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Uning "Jarayon" romanida bosh qahramon Yozef K.ning tushunarsiz sud jarayoniga tortilishi orqali jamiyatdagi absurd holatlar kinoyaviy tarzda ochib beriladi. Qahramon qanchalik haqiqatni anglashga urinmasin, u tobora murakkab va chalkash tizim ichiga kirib boradi. Bu esa insonning jamiyat qarshisidagi ojizligini, biroq ayni paytda uning haqiqatni izlashga bo'lgan intilishini ko'rsatadi.

Xuddi shunday kinoyaviy talqin o'zbek romanchiligida ham uchraydi. Xususan, Xurshid Do'stmuhammadning "Donishmand Sizif" romanida mifopoetik obrazlar orqali zamon va inson o'rtasidagi murakkab munosabatlar badiiy talqin etiladi. Sizif obrazi qadimiy yunon mifologiyasidan olingan bo'lsa-da, yozuvchi uni zamonaviy inson taqdirining ramziy ifodasi sifatida talqin qiladi. Sizifning toshni doimiy ravishda tog' cho'qqisiga olib chiqishga mahkum etilishi inson hayotidagi cheksiz kurash va ma'naviy izlanishlar ramziga aylanadi. Bu jarayonda kinoya ham muhim rol o'ynaydi: inson har qancha izlanmasin, hayot sinovlari oldida yana yangi to'siqlar paydo bo'ladi. Shu ma'noda, kinoya darajalarining zamonda aks etishi modusi roman poetikasida inson tafakkuri,

jamiyat muammolari hamda davr ruhiyatini o'zaro bog'lab turuvchi muhim badiiy vositadir. Bu vosita orqali yozuvchi voqelikni nafaqat tasvirlaydi, balki uni tanqidiy idrok etishga ham chorlaydi. Natijada badiiy asarda zamon va makon faqat voqealar sodir bo'ladigan fon bo'lib qolmay, balki qahramon ruhiyati va muallif konsepsiyasini ifodalovchi faol poetik elementga aylanadi.

Umuman, Jeyms Joys ijodidagi kinoyaviy xronotop modernistik romanchilikning muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, u keyingi adabiy jarayonlarga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, XX asr o'zbek romanchiligida bunday estetik yondashuvlar yangi badiiy talqinlar paydo bo'lishiga xizmat qildi. Shu sababli ham Joysning badiiy tafakkuri va uning kinoyaviy poetikasi zamonaviy roman nazariyasini o'rganishda muhim ilmiy manba sifatida e'tirof etiladi.

2.2. Romanda badiiy g'oya hamda syujetga xos unsurlar talqini

Har qanday badiiy g'oyaning mohiyatida ijodkor konsepsiyasi in'ikosi turadi. U hayotni qayta idrok qilarkan, inson qalbining faqat bir tomoninigina aks ettirishga e'tibor qaratadi. XX asr yoyozuvchilari bir emas, ikkita urushni boshidan kechirdi. O'zlari shu urushni tirik guvohi bo'ldilar. Demak, yozuvchi o'z davrining komil fuqarosi o'laroq, yangi bir g'oyalarni qayta kashfetish yo'lida matonat bilan mehnat qiladilar. XX asr kishisi ana shu balandlikda sobit turib ijod qilmasa, tarixda abadiy nomi muhrlanib qolishiga ishonch yo'q. Totalitar kayfiyatda ijod qilgan minglab yozuvchilar bo'ldi. Bular kommunizmga ishondilar. Sig'ingan haykallaru mag'zi puch, yolg'on shiorlar, g'oyalar ana shu modifikatsiyaga javob berolmadi. Bu borada, XX asrning 90-yillariga kelib, adabiyotdagi erkinlik shabadasi mana shu tamoyilning haqqoniy basharasini ochib berishga qaratildi.

O'zbekiston Xalq yozuvchisi Xurshid Do'stmuhammadning badiiy izlanishlarida har bir qahramon ma'naviy butunlikni sog'ingan obrazni yodimizga soladi. U qaysi mavzuda qalam

tebratmasin shaxsning o'zligini anglashi, odamlarga xayrli va savobli ishlarni bajarishda yordam berishi, madadkor bo'lishini ko'rsatishga diqqat qaratganligini guvohi bo'lamiz. Demak, yozuvchi XX asr yolg'onlarini vaqtida to'g'ri angladi. Jahon adabiyotini obdon o'rgandi. Ikinchidan, yangi g'oyalar bilan o'z uslubini, manerasini yaratdi. Bular ushbu faslda nazariy-ilmiy jihatdan talqin etilishini taqozo etmoqda. Shu bois Xurshid Do'stmuhammad ijodida insonning ichki olami, uning ruhiy kechinmalari, ma'naviy izlanishlari hamda hayotiy haqiqatni anglash jarayoni muhim o'rin egallaydi. Yozuvchi o'z asarlarida qahramonlarning ichki kurashlari, hayotiy tanlovlari va axloqiy qarorlarini badiiy jihatdan chuqur tasvirlashga intiladi. Natijada uning qahramonlari nafaqat voqelik ishtirokchilari, balki o'zligini anglash yo'lida izlanayotgan ruhiy olam egalariga aylanadi.

Adib asarlarida ma'naviyat masalasi markaziy o'rinda turadi. Qahramonlar ko'pincha jamiyatlardagi muammolar, insoniy munosabatlar, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi ziddiyatlar fonida tasvirlanadi. Bu esa yozuvchining badiiy tafakkurida insonning ma'naviy kamoloti va axloqiy poklanishi g'oyasi ustuvor ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, uning qahramonlari orqali insonning o'z vijdoni bilan muloqoti, hayotning murakkab savollariga javob izlash jarayoni badiiy ifoda topadi.

Xurshid Do'stmuhammadning badiiy izlanishlarida milliy ruh va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi xalqning tarixiy xotirasi, an'analari va ma'naviy merosiga tayanib, zamonaviy inson muammolarini tasvirlashga harakat qiladi. Shu jihatdan uning asarlarida milliylik va universallik uyg'un holda namoyon bo'ladi.

Shuningdek, yozuvchining badiiy uslubi ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. U voqelikni tasvirlashda ramziy obrazlar, falsafiy mushohadalar hamda psixologik tahlil usullaridan samarali foydalanadi. Bu esa asarlarga chuqur ma'no, ko'p qatlamli badiiy

talqin hamda o'quvchini mushohada qilishga undovchi estetik ta'sir bag'ishlaydi.

Adabiy ta'sirda makon va zamon sintezi. Folklordan mifga, mifdan mumtoz adabiyotga ko'chib yuruvchi syujet dinamikasi hayotda katta maqsadlarni o'zida aks ettirishga zamin hozirlaydi. Qadim zamonlardan buyon kelayotgan obrazli tafakkur yuritish yozuvchilarni yangidan yangi g'oyalarning aks etishini tayin etadi. Chunki g'oyaviy-badiiy sintezlash adib uslubini tamomila keng ko'lamda yuazag chiqishiga imkon beradi. insoniyat uchinchi bir ming yillikka qarab qadam qo'yarkan, olamning global manzarasi, Oliy Nizom va haqni tanish borasidagi initilishlari hech bir zamonda badiiy adabiyotdan uzilgan emas. Adabiyot va din, mafkura va g'oya hamisha uyg'unlashib ketadi. Biroq sobiq ittifoq davrida bunday harakatlar nisbatan cheklangan. Chunki sotsiolistik odam obrazini yaratish konsepsiya etib belgilangan. Mana shu borada yuzlab romanlar yaratildi. Bugun shularning qaysi biri yashab qololdi? Javob shuki, davrning muammosini o'z yelkasida olib, keyingi davrga o'tolmagan asarlar mafkura t'asiriga tushganligini isbotlab berdi. bu kabi tarixiy masalalar hamma zamonda bo'lgan va davomiydir. XX asrning kishisi taqdirini oldindan ko'rishi, kommunistmga yetishi, baxtli-saodatli yashashi qaysi bir zamonda bo'lgan? Taqdir Alloh dandir. U peshonaga nima bilan bitilgan bo'lsa o'shani ko'rishga mahkum bandai ojiz, yolg'on mafkuraga qattiq ishonch bildirishgandi.

Modifikatsiya – o'zgaruvchan xususiyatga ega. Hikoya yoki roman, qissada mazkur masala turli xil darajada farqlanadi. U ijodkorning olam va odamni tasvirlashdagi tafakkur sarhadlarining chuqurligi va o'ziga xosligi bilan belgilanadi: "**Modus** – o'lchov, mezon, usul, yo'l, tariqa, tarz degan ma'nolarni bildirib keladi. Predmetning muayyan holatlardagi xususiyatini ifodalaydi. **Atribut** (o'ziga xoslik)dan shu jihati bilan farq qiladi. Spinozaga ko'ra, modus substansiyaning barcha o'tkinchi (ko'chuvchi) holatlarini ifodalovchi vosita hisoblanadi. Uning borligi o'ziga emas,

substansiya va uning xossasiga bog'liq bo'ladi. Modusda, o'zining paydo bo'lishini yagona, abadiy, chegarasiz moddiy subtansiyada topadigan narsalarning abadiy ko'payuvchanligi va ko'chuvchanlik sifati aks etadi"⁵⁷, - deya "Falsafiy lug'at"da keltirib o'tiladi. adabiy ta'sirda makon va zamon sintezi badiiy tafakkurning eng muhim mezonlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Chunki har qanday badiiy asar o'z davrining ruhiy manzarasini aks ettirar ekan, unda vaqt va makon tushunchalari o'zaro uyg'unlashib, yangi estetik mazmun kasb etadi. Makon voqealar sodir bo'ladigan muhitni ifodalasa, zamon esa ushbu voqealarning tarixiy va ma'naviy o'lchovini belgilaydi. Shu boisdan ham badiiy xronotop tushunchasi adabiyot nazariyasida muhim metodologik kategoriya sifatida qaraladi.

Adabiyot tarixiga nazar tashlansa, folklor, mifologiya va mumtoz adabiyot o'rtasidagi uzviy aloqalar aynan mana shu makon va zamon sintezi orqali yuzaga kelganini ko'rish mumkin. Masalan, qadimgi miflarda vaqt ko'pincha abadiy aylanish holatida tasvirlanadi, makon esa ilohiy va insoniy olam o'rtasidagi chegaralarni ifodalaydi. Keyinchalik mumtoz adabiyotda bu tasavvurlar yangi badiiy shakllar orqali boyitilib, insonning ruhiy kechinmalari, axloqiy tanlovi hamda ma'naviy kamoloti bilan bog'lanadi.

Masalan, Sharq mumtoz adabiyotida vaqt va makon ko'pincha ramziy ma'noda talqin etiladi. Navoiy asarlarida makon faqat geografik hududni emas, balki ma'naviy kamolot yo'lini ham ifodalaydi. Qahramonning safarga chiqishi, yo'l bosib o'tishi yoki yangi manzil izlash jarayoni inson ruhiy kamolotining badiiy timsoliga aylanadi. Bu jarayonda vaqt ham oddiy tarixiy vaqt sifatida emas, balki insonning ma'naviy o'sishi bilan bog'liq falsafiy kategoriya sifatida talqin etiladi.

XX asr adabiyotida esa makon va zamon sintezi yanada murakkab shakl kasb etadi. Modernistik romanlarda vaqt ko'pincha

⁵⁷Философский словарь. – Москва: Политиздат, 1987. – С. 290.

subyektiv xarakterga ega bo'lib, qahramon ongidagi xotiralar, tasavvurlar va kechinmalar orqali ifodalanadi. Jeyms Joys, Marsel Prust yoki Frans Kafka kabi yozuvchilar asarlarida vaqt chiziqli tarzda emas, balki tafakkur oqimi shaklida namoyon bo'ladi. Bu esa roman poetikasida yangi badiiy imkoniyatlarning yuzaga kelishiga olib keladi.

Bunday estetik jarayon o'zbek romanchiligida ham kuzatiladi. Xususan, zamonaviy o'zbek yozuvchilari asarlarida makon va zamon ko'pincha tarixiy xotira, milliy ong hamda ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liq holda tasvirlanadi. Bu esa adabiy jarayonda mifopoetik tafakkurning yangi shakllarda davom etayotganidan dalolat beradi. Folklor va mifologiyadan olingan obrazlar zamonaviy romanlarda yangi g'oyaviy talqin kasb etib, inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochishga xizmat qiladi.

Makon va zamon sintezi adabiyotda faqat kompozitsion vosita bo'lib qolmay, balki g'oyaviy-badiiy konsepsiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida ham namoyon bo'ladi. U orqali yozuvchi tarixiy davr ruhini, insonning ichki dunyosini hamda jamiyatdagi ma'naviy jarayonlarni badiiy umumlashtirish imkoniga ega bo'ladi. Natijada badiiy asar o'z davrining estetik va falsafiy qiyofasini ifodalovchi muhim madaniy hodisaga aylanadi.

Prof. Q.Yo'ldoshev: "Aslida-ku, roman – "individdning eposi" sifatida aynan bir odamning ko'ngil holatlarini, tirikligi muammolarini tasvirlashga da'vat etilgan janr. Ammo adabiyotshunoslik ilmida romanda ko'tarilgan muammo ijtimoiy jihatdan qancha qamrovli bo'lsa, bitikning ahamiyati ham shuncha baland bo'ladi deganga o'xshash tasavvur qaror topgani uchun romandan qandaydir o'ziga xos tafakkur izlashga odatlanilgan. Holbuki, adabiyot uchun odamning o'zidan kattaroq muammo, demakki, fikrlash yo'sini ham yo'q. Bir odamning boshidagi tashvishlarni butun millatning boshidagi tashvishlardan kichikroq deb hisoblab bo'ladimi? Chin roman har bir shaxsning betakror va alohida yaratiq ekanini anglash va aks ettirish zaruratidan yuzaga

keladi”.⁵⁸ Haqiqatdan ham, murakkab fragmentlar g’oya tashuvchigina bo’lib qolmay, uni harakatga keltiruvchi kuch sifatida ham namoyon bo’ladi. Chunki g’oya yozuvchi syujetni qayta ishlashdagi ijodiy faoliyati mahsuli. Syujet tipik xarakterlar, tipik sharoitni taqozo etadi. O’zbekiston xalq yozuvchisi Xurshid Do’stmuhammadning “Donishmand Sizif” romaniga e’tibor qarataylik:

“Xarsangtoshning yum-maloqligi, bir hisobda, Sizifga qiyinchilik tug’dirs, boshqa jihatdan qulayligi ham yo’q emasdi. Bordi-yu, xarsangning tizza yo tirsakka o’xshash turtib chiqqan, tekis-yassi joylari bo’lganida u har dumalaganida siltanib-chayqalib muvozanatni saqlay olmasa, uni tutib qolishga Sizifning chog’i kelmay qolar, binobarin, xarsangning har harakati o’n xavotir-tahlilani keltirib chiqargan bo’lur edi. shu bois, xarsang nechog’lik silliq harakatlansa, Sizif ham shunchalar muloyim tortar, mumkin qadar kuchiga zo’r bermaslik chorasini izlardi.

Bu safar xarsang unga to’la-to’kis bo’ysunayotgan, bundan Sizif nechog’lik mamnun bo’lmasin, ko’nglining bir chekkasida hademay xarsangning o’jarligi tutib qolishi muqarrarligidan, uni bir baxya oldinga surish ham mashaqqatga aylanadigan joylar kelishidan xavotiri ham yo’q emasdi”⁵⁹.

“Badiiy g’oya yozuvchi tasavvurida tug’ilmasa, azob-uqubatlar faryodi va quvonchlar daryosidek ijodkor qalbini band etmasa, o’zining hayotiy ehtiyojlari bilan obrazlarda gavdalantirishni talab qilib, ichki bir dardga aylanmasa, badiiy asar mavzui aniqlanmaydi. Masalan, yozuvchi Pirimqul Qodirovda “Olmos kamar” romanini yaratish ijodiy niyati 1963 yildan boshlab xayoida aylanib yura boshlaydi. Dastlab yozuvchi Toshkentda yashaydigan zamonaviy bir oila orqali shahar hayotini ko’rsatishni ijodiy niyat qiladi. Bu ijodiy reja yozuvchi mansub bo’lgan avlodning kamol topishini ko’rsatish g’oyasi bilan to’lisha borgani uchun ham ijodkorning o’ziga juda

⁵⁸ Yo’ldoshev Q. So’z yolqini. –T., G’afur G’ulom nomidagi adabiyot nashriyoti. 2018. –B. 297.

⁵⁹ Xurshid Do’stmuhammad. Donishmand Sizif. –T: Yangi asr avlodi. 2021. –B.248.

muhim bo'lib tuyula boshlaydi. Yozuvchi o'sha paytlarda Bobur haqidagi roman ustida ijodiy ter to'kayotgan bo'ladi. Toshkent to'g'risidagi asarni Bobur haqidagi roman bosilib chiqqandan so'ng xotirini jam qilib yozishni rejalashtirib qo'ygan bo'ladi"⁶⁰. Shunday ekan, haqiqatdan ham. P.Qodirov g'oyani avval "Olmos kamar"ni yozish istagi bilan boshlab, uni ma'lum muddat xayolida pishitib yuradi. Shu tariqa, oraliqda "Yulduzli tunlar" romaniga kirishadi. G'oya – yozuvchining ijodiy konsepsiyasi mahsuli. U o'zi pishib yetilib. Kamolga yetgandan keyin katta mevaga aylanadi. Bu shunday iqtidorga ham tutashadiki, iste'dodning zayli bilan aloqaga kirishadi.

Ma'lumki, badiiy universalizm badiiy janrlarning yetakchi tasvir ob'ekti sanaladi. Unda eng yaxshi jihatlar va g'oyalar, yozuvchining obrazlarni saralashi, xarakterlarni tipiklashtirishi, shakl hamda mazmunni uyg'unlashtirish manerasi namoyon bo'ladi. XX asrning 30-yillaridan buyon tamomila yangicha ifoda madaniyati adabiyotimizda keng ko'lamli masshtabda xilma-xillashuv jarayoniga evrila boshladi. Ayniqsa, A.Qodiriy, Cho'lpon va Oybeklar yashagan davr badiiylik jihatidan yanada o'ziga xos jihatlarga keng imkon yaratdi. Bir vaqtning o'zida jahon adabiyotida traditsion shaklda o'sha darv solnomasi o'laroq yuzaga kelgan Joys va Kafka, Prust adabiy yo'li degan maktablar qad rostladi. Bu maktablarning asosiy maqsadi hech qachon yurilmagan yo'ldan yurib borish, o'quvchilarning tafakkur oqimini to'lqinlantirish, kutilmagan situatsiyalarni taqdim qilish mezon bilan to'yintirildi. Natija shuni ko'rsatdiki, har qanday oqim ichida yashab kelayotgan inson maylini teran tadqiq qilish an'anadan – noan'anaga qadar o'zgartirildi. Bular syujet va g'oya chiziqlarida kesishgan tarix va makon, xamon kechmishlarining yaxlitligini dalolatlay oldi. Joysning "Musavvirning yoshlikdagi" shamoyiili romani ham ana shu badiiy izlanishlarning yorqin namunasi ekanligi ayonlashdi.

⁶⁰ To'raev D. O'zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi. –T: Universitet. 2001.-B. 45.

Rus munaqqidi M.Baxtin: “Tarixiy voqelikdan ajratib bo‘lmaydigan biografik zamon voqelikka nisbatan qaytarilmasdir. Biroq xarakterga nisbatan bunday zamon qaytariluvchan: xarakterning u yoki bu chizig‘i o‘z-o‘zicha sal avvalroq yoki sal keyinroq paydo bo‘lishi mumkin. Xarakter xususiyatlarining o‘zi xronologiyadan xoli, ular zamon aro maydonga keladi. Xarakter o‘zicha o‘smaydi, o‘zgarmaydi. U bor-yo‘g‘i to‘lishadi. Ilk parchalarda nomukammal, ochilmagan xarakter oxirida to‘la ochiladi va mukammallashadi. Shuningdek, xarakterning ochilishi yo‘li uning tarixiy voqelikka yondosh holatda o‘zgarishga, qayta shakllanishiga emas, balki faqat uning tugallanishiga, demakki, avvaldanoq chizgi berila boshlangan shu shaklni to‘lg‘azishga olib boradi. Plutarx biografik tipi shunday”⁶, – deya asosli mulohazalarini ilgari surdi. Haqiqatdan ham, qisqa vat ichida badiiylik shartlari va o‘ziga xosliklari mif va odam tipini rangilashtirdi. Yangi o‘zbek romani vujudga kelgan 90-yillarda mifologik qatlam bir qadar yanada turfaliklarga evrildi. Nazar Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li” romanidagi tasvir ekzistensiyasi N.ismli qahramonning jamiyatda yashab qolish ehtiyoji o‘laroq adabiy hayot o‘zanlariga boshqacha ifoda madaniyatini tuhfa qilganligida sezildi. M.Baxtin xarakterni o‘sishtirish darajalarini idroklar ekan, u o‘z-o‘zidan rivojlanadigan hodisa emasligini, buning uchun xalq og‘zaki ijodining ham ma‘lum ma’noda o‘z o‘rni borligini idroklaydi. Turkiy xalqlar adabiyotida Alpomish kabi xalq qahramonlari o‘zining tabiiy qonuniyatlari bilan bugungi kunga qadar xalqning mulkiga aylangani, undan o‘tib chiqqan xilma-xil epizodlar, xarakterlar yangi roman mifopoetikasida salmoqli o‘rin egallagani sir emas!

Yozuvchi N.Eshonqul yozishicha: “Inson cho‘pchak aytishni boshlaganidan beri adabiyot o‘z vazifasini o‘tagani bor gap. Uzoqqa bormaylik, o‘tgan asrning 60-70-yillarida ham bizning ideal qahramonlarimiz, bugungi til bilan aytganda, “kumirlarimiz” shou-biznesdagi obro‘si va maqomi arzon yulduzlar emas, insonning ideal

⁶ Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. –T., Akademnashr. 2015. –B.114.

orzularini namoyon qiladigan adabiyotdagi qahramonlar edi. Adabiy qahramonlar bizning ezgulik va yovuzlik, yaxshi va yomon, halol va harom, hiyonat va sadoqat, umuman, insonparvarlik haqidagi qarashlarimizni tarbiyalagan. Bugun ham adabiyot, san'at shunday vazifani o'tayaptimi? Bu savolga baralla "Ha!" deb javob berishga ikkilanasan kishi. Bu nimaning oqibati? Shu savollarga javob izlab bir qancha zamonaviy adiblarimizning asarlarini o'qishga to'g'ri keladi. To'g'risini aytsam, hafsalam ancha pir bo'ldi. bu "vasvasalar menga "massovaya kultura" – "olomon madaniyati"ning namunalari bo'lib tuyuldi va bu menda og'ir taassurot qoldirdi"⁶¹. Nazar Eshonqulning tanqidiy yondashuvi provard natijada jon berdek go'yo. Chunonchi adib saviya haqida,bo'lgandayam badiiy qiymat, zalvor haqida so'z so'zlayapti. Fikr bildirayapti. Tanqid bo'lmasa ekan, badiiy adabiyotda aslo rivojlanish bo'lmaydi. Poetikaning muhim shartlaridan biri, til boyligining no'noqlashib borayotganigida seziladi. Negaki, badiiy tilning ijtimoiy vazifasi badiiy asarda kundan-kunga saviyaga va uning talqinida anchayin pasayib ketayotganligidan dalolat bermayaptimi? Tarixiy asarlarga ham munosabat bildirib, bir-biridan tamomila boshqa-boshqa mantiqni ajratib ololmaydigan yozuvchilar jamoasi shakllanib ugurganligidan xavotir olish kerak. Jumladan, gap saviya va yana uning poetik qiymat kasb etayotgan so'zda aks etish tamoyili bo'lsa, uning inson ruhiyatini qay tariqa ifodalay olish texnikasining sermazmunligiga borib tutashuvini inobatga olsak, masala o'z-o'zidan yuzaga chiqadi.

Jeyms Joysning "Musavvirning yoshlikdagi shamoyili" romanida mulohazakor suhbatlar juda ko'p narsalar, hodisalarga oydinlik kiritadi. Deylik Krenli va Stivenning o'zaro mulohazasida hayotning puchmoqlariga qadar bilish, ular orasidagi katta bir o'sish-o'zgarishlarni, tafakkur chanqog'ini his etish mumkin:

"20-mart. Krenli bilan mening isyonim haqida uzundan-uzoq gaplashildi.

⁶¹ Eshonqul N. Ijod falsafasi. –T., "Akademnashr" .2017. –B.30-31.

U bir nimalarni jiddiy uqtirishga urindi. Men o'zimni eshitayotganga soldim, hurmatini o'rniga qo'yayotganday ko'rsatdim o'zimni. U onasini yaxshi ko'rishini gapiraverib jonimga tegdi. Onasini mening ko'z oldimda gavdalantirishga harakat qildi, biroq men tasavvur qilolmadim. O'zim tug'ilganda otasi oltmish bir yoshda bo'lgani bir safar bexos og'zidan chiqib ketgan. Buni tasavvur qilish mumkin. Kelbati kelishgan fermer. Egnida keng-mo'l kostyum. Moshguruch soqoli kuzalmagan. Aftidan, tozi quvib ov qiladi. Aerresdagi hazrat Dvaerga cherkov badalini binoyiday to'lab turadi, biroq juda qo'li ochiq deb bo'lmaydi. Kechqurunlari qizlar bilan valaqlashib o'tirishdan zerkimaydi. Onasi-chi? juda yoshmikin yoki munkillab qolganmi? Yosh emasdir-ov, unda Krenliboshqacha gapirgan bo'lardi. Demak, qari. Ehtimol, qarovsizdir. Yuragidai alam shundan: Krenli – qurib-chiriyotgan daraxt mevasi”⁶².

Hayotning kuchli zarbalaridan ulg'aya boshlagan Stiven Dendalusning makon va zamon haqidagi mulohazalari ham g'ayritabiiydir. Krenli bilan o'tkazgan olam va odam haqidagi suhbatlari ana shu maydonni idrok etishga katta imkon beradi. Chunki inson hamisha o'zining botini va xatti-harakatlari bilan shuhrat qozonadi. Botiniy mulohazalar, ong osti hislari, odamlarga bo'lgan munosabatlar tig'izligi shaxsni asta-sekinlik bilan rivojlantirib, o'stirib boradi. Bu o'sish-o'zgarishlar natijasida hayot haqiqati yuzaga chiqadi. Mif ana shu tamoyilga asoslansa, yangi o'zbek romannavislarida yuzaga kelgan to'lqinlarning kelajakda shuhrati ham shoni ham namoyon bo'ladi. Demak, hayotning o'zidek qilib yozish emas, o'zgartirib yozish muhimligi haqida muayyan tasavvur hosil qilishga imkon beradi. Jeys Joys ham vaqtning intensiv yurishlariga hamohang tarzda fikr yuritadi. U din va hayot aqidalarini bir-butun holda ko'rishni istar ekan, maqsaddan ham manfaat topish muhimligini nazardan sira chekkaga qochirmaydi. Dunyo ana shu mezonlar orasida shakllangan qarashlar bilan boyib, universalizmga qarab ketadi. Taraqqiy qilgan davlatlarning badiiy

⁶² Jeys Joys. Musavvirning yoshlikdagi shamoyili. –T: “Akademnashr” . 2021. –B.334-335.

adabiyotiga zimdan nazar tashlaganimizda ham yuqoridagi qarashlar haqiqat ekanligi ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Bibi Maryam va Iso masihning yo'li, odamzodning e'tiqodi, shakl va mazmun munosabati tig'izligi barchasida hayotning biz ilg'amagan qonunlari borligini sezamiz. Tangr taoloning irodasi bilan bo'layotgan voqelar aslida ong ostimizda uxlab yotgan qaysidir mifning bir ko'rinishi ekanligi ayonlashadi. Bunday vaziyatda inson hamisha o'z tabiati bilan hisoblashishga majburdir. Jahonning ilg'or badiiy tasvir uslublariga nazar tashlaganimizda avval mavzuning muammo tarzida paydo bo'lganligini, iqtidor egasi unga obrazli tafakkuri bilan alohida mavqedan turib yondoshganligini his etamiz. "Psixologizmning turlicha formalari mavjud. F. M. Dostoevskiy va L. N. Tolstoy, bizning asrimizga kelib – M. Sholoxov, U. Folkner, Abdulla Qodiriylar ijodiga oshkora, ochiq, "namoyishkorona" psixologizm xos. Ayni paytda XIX–XX asr yozuvchilari inson ichki olamini o'zlashtirishning yana boshqa usuliga ham tayanishadi. Bu o'rinda I. S. Turgenevning so'z rassomi "yashirin" ruhshunos bo'lishi lozimligi haqidagi fikrlari ahamiyatlidir. Adib asarlarining qator epizodlari uchun gapirib bo'linmaganlik va aytib bo'linmaganlik xarakterli ekanligi ham shundan bo'lsa, ajab emas. Qahramon ongidagi o'ylar, impulsar, hislar bor-yo'g'i biroz seziladigan maxfiy, "matn ostida" yashiringan psixologizm A. Chexov va A. Qahhor qissalarida, hikoyalarida ko'proq uchraydi"¹¹. Darhaqiqat, prof.M.Boboxonov qayd etgan mulohazalarga shuni qo'shimcha qilish mumkinki, hayotning har bir puchmoqlarida aks etayotgan voqelik qaysidir tarixiy o'tmishda sodir bo'lganligini ham his etish qiyin emas. Antik yunon madaniyatidan o'sib chiqqan obrazlilik aslida, ajdodlarimizning ongida yashirinib yotgan kulturelardan iboratligi ayondir. "Donishmand Sizif" romanida yozuvchi ana shu metamorfozani qayta idroklash yo'lidan boradi. G.G.Markesning "Vido maktubi"ning o'ziyoq yuqoridagi muloxazalarimizni asoslaydi.

¹¹ Boboxonov M. Hozirgi o'zbek qissachiligida psixologizm. Filol.fan.nomzod. diss. –T.: 2012. –B.28.

Prof. Y.Solijonov qayd etishicha: “Detal syujetni harakatga keltiruvchi motor hisoblanadi. Xarakterning o‘ziga xosligi ham, qahramonning ichki olami ham, tashqi qiyofasi ham, voqealar rivoji ham, fikrning tiniqligi ham, syujetning tranglik kasb etishi ham – barchasi ana shu detallar orqali amalga oshadi hamda ta’sirchan va ishonarli chiqadi. Buni yaxshi tushungan har qanday san’atkor asarida voqealarni detallashtirib bayon qilishga alohida e’tibor beradi”⁶³.

“Sizifning qulog‘i tom bitdi. Ko‘z o‘ngida sharpalar, soyalar, bulutlar aralash-quralash qorishib ketdi. Alangladi, qulog‘ini ding qilmoqchi edi, ko‘ngli behuuzurlashdi. Qop-qora va damiqsidi sukunat uni asta-sekin komiga tortayotgan – uni bosh tarafidan yuta boshlagan edi! allaqanday bo‘yni uzun maxluqning tor jig‘ildonidan tushib borayotgandek his qildi o‘zini. Torlik, qorong‘ilik va jimlik – sukunat bu qadar qo‘rqinchli, hatto ko‘ngliga qutqu soladigan darajada dahshatli tus olishi mumkinligini tasavvuriga sig‘dirolmasdi, Sizif! Nima qiladi endi u? Baqirsinmi? Dodlansinmi? Faryod qilsinmi?.. Kim eshitadi uning nolasini? Kim yordam qo‘lini cho‘zadi unga? Kim?! Uni maskanga dovur yetaklab kelgan navkarlar, yasovullar qayg‘a g‘oyib bo‘ldilar?! Boshdan-oyoq tuhmatdan iborat hukmni dunyo ko‘rmagan adolat tantanasi yanglig‘ qiroat ila o‘qiganlarda so‘rog‘i bor edi Sizifning?! Qani, ul johillar? Savollar yog‘dirish ham, ularga javoblar topish ham zimmasida qoldi, Sizifning....”⁶⁴

Ijodkor har bir davrda muhim bir faktorga amal qilar ekan, u qaysi vaziyat va holatdan kelib chiqishini aniq va to‘g‘ri anglashi lozim. Ayniqsa, biografik janr poetikasida bu faktlarning ishonarli chiqishida muhimdir. Ba’zi romannavislar juda bo‘sh, jo‘n va ko‘rgan-kechirganlarini hech bo‘yab-bezamasdan, batartib olib chiqishda qiynaladirlar. Unda eslab qolish va uni qayta hikoya qilish manerasi yetmishmaganligi bois, tasvirda qator mashaqqatlarga

⁶³ Solijonov Y. Detallar tilga kirganda. O‘zbek adabiy tanqidi. –T.: “Tkron-iqbol”. 2011. – B.207.

⁶⁴ O‘sha asar, -B.258-259.

duch keladilar. Masalan, muallif boshidan kechirgan 20 yil oldingi voqelikda vaqt o'tishi bilan qandaydir esdan chiqish alomati ham uchrashi tabiiy. Buni tan olish lozim. Ayniqsa, o'tib ketgan voqelik – unutilgani bilan inson miyasidan chiqib ketishiga, o'rnida yangi his-tuyg'ularning paydo bo'lishiga sharoit yaratib beradi. Axir fasllar ham birin-ketin almashinib, o'z o'rnini ikkinchi faslga bo'shatib berishi tabiiy qonuniyat-ku? Kamdan-kam hollardagina uni kundalik sifatida yozib, qayta idroklab, xotirlab, aynan "bo'lgan voqeani bo'lib o'tganidek tarzda tasvirlash"(V.Belinskiy) kuzatiladi. Psixologiyada "inson bolasi unutuluvchandir" degan hayotiy fakt mavjud. Ana shu tamoyildan olib qaralsa, unitilayotgan voqelikni qayta sintezlab, tiklab, uni jonlantirib, unga hayot bag'ishlash faqatgina – iste'dod bilan o'lchanadi.

Badiiy adabiyot shunday chamanzorki, uning bo'stonida ne-ne ulug' mutafakkirlar xizmat qilib, hayot va uning murakkab jihatlarini zargar kabi muhrlab, milliy qadriyat darajasida meros qilib qoldirganlar. Mana shunday muhtasham obidagi kirib borish, ularning boy adabiy merosidan bahra olish Abdulla Qodiriydek ma'rifatparvar adib bilan hamsuhbat bo'lish kishiga olam-olam zavq va kuchu g'ayrat berishi tayin. Chunki yaxshi kishilar suhbatiga borish, ularning ibratli hayot yo'llaridan saboq olish chinakam ziyoli, millat oydinlarining go'zal ishi ekanligini unutmaslik lozim. Shu o'rnida, XX asr adabiyotida Abdulla Qodiriy fenomeni haqida juda salmoqli badialar, esselar, maqolalar, hikoyalar, qissalar, tarixlar yozildi va bu xayrli ish haliyam davom etib kelmoqda.

Prof. B.Sarimsoqov mazmun va shakl birligi haqida quyidagi masalalarni ifodalaydi: "Falsafiy nuqtai nazardan qaralsa, voqelikdagi barcha narsa va hodisalar o'zlariga xos shaklda voqe bo'ladilar. Shu ma'noda shakl mazmunni, mazmun esa shaklni taqozo etadi. Ammo san'at uchun, jumladan, badiiy adabiyot uchun bu umumiy qoida yetarli emas. Demak, badiiy adabiyotda mazmun va shakl muammosi hadida gap ketganda, shaklning ikki xil ma'noda tushunilishini unutmaslik kerak. Birinchisi – shakl mazmunning

ifodasi ekanligi, ikkinchisi - shakl mazmunga nisbatan befarq tashqi ifoda emasligi. Yuqorida aytganimizdek, falsafiy ma'noda ular birbirlarini aniqlab beradilar, chunki, mazmun shaklning mazmuniga yoki shakl mazmunning shakliga o'tishdan iborat"⁶⁵. Binobarin, B.Sarimsoqov to'g'ri ta'kidlaganidek, badiiy mazmun va shaklning o'ziga xos tabiati falsafiy jihatdan, adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan ham yong'oqning mag'zi va uni o'rab turgan qobig'i kabidir. Ana shu uyg'unlik yozuvchi hali qog'ozga tushirmagan g'oyaning fabulaning – syujetga aylanish jarayonidagi izlanishlar, ong osti tuyg'ulari, iztiroblari, kechinmalari zahirida yuzaga chiqib boshlaydi.

Dunyo taraqqiy etgan sayin insoniyat jaholat botqog'iga botib borayotgani sir emas. Negaki, XX asr G'arb kishisi ruhiyatidagi uzil-kesil o'zgarishlar Xurshid Do'stmuhammadning ushbu romanida Donishmand Sizif obrazi yaqqol isbotini topdi. Ayniqsa, romanidagi voqealar izchilligida bayon usuli ustuvorligi buning yorqin misolidir. Axloq va din nuqtai nazaridan insonni tutib turuvchi muhabbat mavzusi hamisha e'zozlanib kelingan. Ispan faylasufi Erix Fromm qayd etishicha: "Lyuter va Kalvinning fikrlash tarzi xuddi Kant va Freydning fikrlash tarzi singari, unga ko'ra egoizm va o'zingga bo'lgan muhabbat – bu ma'nodosh (o'xshash) tushunchalardir.

Boshqalarni sevish – fazilat, o'zingni sevish-gunoh; umuman olganda, boshqalarga bo'lgan muhabbat va o'z-o'zingga bo'lgan muhabbat bir-birini istisno etadi, degan mulohazaga asoslanadi. Nazariy jihatdan olganda, bu yerda muhabbatning tabiatini tushinishda xatoga yo'l qo'yilyapti. ***Muhabbat qandaydir o'ziga xos "ob'ekt" tomonidan yaratilmaydi, balki shaxsning o'z ichida doimo mavjud bo'luvchi omil bo'lib, faqat tashqi "ob'ekt" tomonidan harakatga keltiriladi***⁶⁶. Haqiqatdan ham, romandagi personajlar ruhiyatida oilaga, farzandga, jamiyatga nisbatan muhabbat o'rnini nafrat egallab boradi. yozuvchi ana shu masalani

⁶⁵ Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. –T: "Bookmany-Print". 2022. –B.88.

⁶⁶ Erix Fromm. Ozodlikdan qochish. –T: "Yangi asr avlodi". 2022. –B.143-144.

iymon va e'tifod, tasavvufiy jihatdan kuchli bir balandlikka olib chiqish ilinjida qalam tebratganligi ayonlashadi.

Prof. D.To'raev: "Badiiy asardagi obrazlarda yozuvchi o'z fikrini qanchalik ravshan ifodalagan bo'lsa, kitobxon ham uni o'shanday tushunsa, badiiy haqiqat o'z g'oyaviy ifrdasini topgan bo'ladi. Shunday bo'lmas ekan, yozuvchining roman yozishdan niyati qanchalik ulkan bo'lmasin, hayot lavhalarini qanchalik jonli chizib bermasin, san'at asari yaratilmaydi. Realistik san'atda insoniy xarakter odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar majmuasi va muayyan jamiyat mahsuli bo'lib shakllanishini, boshqacha aytganda o'sha jamiyatning mevasi ekanini unutmaslik shart. Zero, badiiy obraz turmushdagisidan farqli ravishda davr hodisalarini umumlashtiruvchi, yozuvchi ideali qirrasini ifodalovchi xususiyati tasdiqlashi yoki inkor etishga xizmat"⁶⁷. qilishi bilan muhim Binobarin, yozuvchi har qanday muammoni kelib chiqish ildizlari, yozishga turtki bo'lgan impuls, ta'sir va "muhim estetik kategoriya"ni obrazli gavdalantirishi lozim. Katta va o'rta epik janrlarda bitilgan nasriy asarlar arxitektonikasida – syujet va uni bog'lab turuvchi kompozitsiya birliklari muhim shartlilikni taqozo etadi.

Yozuvchi Xurshid Do'stmuhammad "Donishmand Sizif" romanida badiiy g'oyani umumlashtirib, Sizif portretiga alohida urg'u beradi. Chunki badiiy portret hayot haqiqatini to'laqonli anglash mezonini, xarakterni tushunish imkonidir. Adabiyotshunoslikda badiiy portretning alohida bir nazariy qoidasi borki, u shaxsning ichki olami, surati, siyratini namoyon qilish, syujet voqeligini tiniqroq ko'rsatish uchun vositadir. Ma'lumki, "Portret (fr. Portraire -tasvirlamoq)" -1) personajning so'z vositasida tasvirlangan tashqi ko'rinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko'z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari), o'quvchi tasavvurida jonlanadigan to'laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini

⁶⁷ To'raev D. O'zbek romanlarida badiiy tafakur va mahorat muammosi.- T.: Universitet. 2001. –B.61.

ochish vositalaridan biri. P.ning eping asarning kompozitsion unsuri bo'lmish tavsifning bir ko'rinishidir. Shartli ravishda statik va dinamik P.turlari farqlanadi. Statik deyilishiga sabab shuki, P.ning bu navida personajning tashqi qiyofasi syujet voqeasi to'xtatilgan holda ancha mufassal, detallashtirilib chiziladi. Odatda bunday P.lar personaj asar voqeligiga ilk bor kirib kelgan pallada (mas., "Kecha"dagi Razzoq so'fi P.i) beriladi. Dinamik P. Deganda esa mufassal tasvir emas, balki voqea va dialoglar ta'svirida, ya'ni harakat davomida berib boriluvchi personaj tashqi ko'rinishiga xos ayrim detallar nazarda tutiladi². Ko'rinadiki, **statik** va **dinamik** portretlar xuddi syujet tiplariga o'xshab ikkiga ajratilib berilishi badiiy asar komponentlarini to'g'ri talqin qilishda qo'l keladi:

"Uzundan-uzun hukmi oliy xatmi (bunchalar cho'zishmasa, deb qo'ydi Sizif ichida, ensasi qotib) adog'iga yetkazmayotgandagina u xarsangtoshning raftoriga bosh-oyoq razm soldi. Haybatini ko'rib yuragi orqasiga tortib ketdi.... Uni dumalatib-dumalatib tik cho'qqi tepasiga olib chiqishni mo'ljalladi. Chamaladi. Shul toifa jazo ravo ko'rildi unga, demak, hozirning o'zida uni kishanlardan ozod etishadi va Sizif yo madad, deguncha ishga kirishadi... Yoki u taxminda adashdimi? Hukmi oliyni yanglish eshitdimi?.. boshi g'uvullamayaptimi?Ko'zlari aniq-ravshan ko'ryaptimi, o'zi? Axir unga hech bir amr bo'lgani yo'q, ya'ni hozirning o'zida jazoni o'tamoqlikka kirishgaysen, degan amri farmon o'qilganicha yo'q.

Sizif angrayib qaradi atrofga, qulog'ida shamol guvillashi tinmadi, hukmni durust eshitmay qoldim, degan o'yga-da bordi, lolu hayronligini yashiradigan avvolda emasdi u. jazoning g'aroyibligini aniq va tiniqtasavvur qilib uogurmagan esa-da, taqdirga tan berdi. Og'irdir...azobdir...mashaqqat chekar, uqubat ostida qolar, illo, ho-ov marrani ishg'ol etish epini topmay qo'ymas yo bo'lmasa... Yo bo'lmasa... Yo, alhazar!"⁶⁸

² Qur'onov D., va boshq. Adabiyotshunoslik lug'ati. -T., Akademnashr. 2013. -B.226-227.

⁶⁸ O'sha roman, -B.258.

“Donishmand Sizif” bir qarashda monologik-romandek tuyulsa-da, unda Sizif va muallif bahsga kirishadi. U nima qilayotganini, nima izlayotganini, nimalarga qodirligini juda yaxshi anglaydi. Ayni damda, isyoni ham. Itoati ham jamiyatning bir bo’g’ini sifatida ko’riladi. Yozuvchi X.Do’stmuhammad “Yolg’iz” nomli hujjatli qissasida Qodiriyning ong osti va ong shuuridagi bir voqelikni badiiy to’qima negizida shunday gavdalantiradi. Deylik Qodiriy hibsga olingan kezlar. U shu qadar farzandlarini sog’inadiki, qo’qqisdan “Rostgo’y” nomli ertakni o’g’li Habibullo Qodiriy va qizi Nazifaga gapirib beradi. Bu voqelik faqat va faqat hibsdan va nima sababdan tutqunlikda o’tirganini bilmagan Qodiriyning miyasida kechadi:

“Bir bor ekan, bir yo’q ekan, qadim o’tgan zamonda, yo’q, ayni bizning zamonda, Toshkent degan tomonda, shaharning Eshonguzar otliq deparasida mulla Rostgo’y degan odam yashagan ekan. Mullaligi uchun rostgo’ymi, rostgo’yli mullaligidanmi – bilib bo’lmas ekan. Bolalikdan ko’p maktab ko’rgan, xat-savodli amaki ekan. Ko’rgan-eshitgan voqealaridan turfa maqolalar yasab tashlayverar, yozganlarini dam gazit-dam jurnallarda bostirishni odat qilgan ekan. Uning yozganlarini odamlar talashib-tortishib o’qiydirgan bo’lishibdi. Bunga sayin Rostgo’y amaki g’ayratiga g’ayrat qo’shilar, qancha ko’p rost gapni yozsam odamlar o’qigani sayin bilimi oshadi, bilimi oshgani sayin fikri-zehni taraqqiy topadi, bunga sayin yashash tarzi yangilanadi, deb qattiq ishonar ekan. Matbuot joni-dili va birdan-bir ishongani-inongani ekan.

Xullas, kunlardan bir kuni mulla Rostgo’y achchiqlanib yura-yura mardumi avomning fikr-o’yiga ko’rsatarmikin, odamlarni g’aflat uyqusidan uyg’otarmikin degan umid-istakda “Yig’indi gaplar” degan shapaloqdekkina maqola yozibdi. Qattiq yozibdi, achitib-o’ymalab oladigan qilib yozibdi. Kinoya va pichinglarni qalashtirib yozibdi. Maqola...”⁶⁹.

Yozuvchi Xurshid Do’stmuhammad “Yolg’iz” nomli hujjatli qissa yozarkan, Qodiriyning hibsga tushganidan to uning otuvga hukm

⁶⁹ Xurshid Do’stmuhammad. *Yolg’iz*. –T: “Mashhur-Press”. 2019. –B.79-80.

qilingan choqqacha bo'lgan, shu oraliqda unga tuhmatlaru bo'htonlar yog'dirgan davr kayfiyatini, g'animlarning unga nisbatan bo'htonlarini, xusumatini juda katta mahorat bilan bitadi. Hujjatli qissaning (biografik) jihatlari janriy-kompozitsion o'ziga xosligi haqida so'z borganda, avvalo, inson ruhiyatining benihoya iztiroblari, g'am-qayg'ulari, 1926 yilda boshlangan g'ayriliklarni yuksak mahorat bilan sintezlay oladi. Sh.Rizaev qissaga so'z boshi yozarkan qissani "Dardnoma" deb nomlasa ham muallif hech narsa yutqazmaydi deb o'zining adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yuksak bahosini beradi.

Prof.Sh.Rizaev qissa so'zboshisida shunday mulohazalarni bayon qiladi:

"Qissani o'qib, kami elliklarcha "yolg'iz" degan so'zga duch kelasiz, oxirroqda faqat fardlik aylanadi qahramon tilida. Nega buncha ko'p sarlavhaga chiqqan bu so'z? Nima, zaiflik, ijod nochorligimi bu yo mahorat yetishmasligimi? Yo'q, bari bor, mahorat ham o'lipti-da yarim asrda toblanmasa, gap shundaki, elliklar chamasi kelgan "yolg'iz"ning yolg'iz ta'rifi yo'q, necha o'rinda o'zi azalan iniqlovchi bo'lib keladigan so'z (yolg'iz odam, yolg'iz ayol, yolg'izoyoq yo'l...) o'zi endi otga aylanib, aniqlovchi bilan keladi: Qodiriy – adabiyotda yolg'iz, "Mushtum"da yolg'iz, achitib zaharxanda so'z aytishda yolg'iz, kamerda yolg'iz, qalami o'tkirligi, kuyunchakligi bois yolg'iz, "tushungan odam – tushunmaganlar oldida yolg'iz" va hakoza. Ana shu o'nlarcha sifatli "yolg'iz"larning ta'rif-tafsilotlarini bera olib, Abdulla Qodiriy degan betakror yolg'iz hodisa – yolg'izlik mohiyatini ochadi muallif. Uning ulug'ligi, buyukligini ana shu yolg'izlik rakurslarida inkishof etib boradi"⁷⁰.

Lavhadan bilish mumkinki, X.Do'stmuhammad "Otam haqida"gi xotiranomani sinchiklab o'rgangan. Har ikki asarni birlashtirib turuvchi yagona estetik markaz – Abdulla Qodiriy shaxsiyati va uning ruhiyati, xarakteridagi ulug'vorlikdir. Buni boshqacha aytganda, Shaxsning boricha botinidagi og'riqlarini, iztiroblarini,

⁷⁰ Kitobdagi so'z boshi. Sh.Rizaev. –B.8.

xayolidan o'tkazayotgan juda katta umuminsoniy, milliyat haqidagi yurt to'g'risidagi qayg'ularini juda katta hurmat, ixlos bilan bitgan Xurshid Do'stmuhammad. Mana shu qissaning dunyoga kelishiga, haqiqatdan ham Abdulla Qodiriyning o'g'il tomonidan yozilgan xotiralar hissasi benihoya kattadir. Hayotning puchmoqlarigacha kirib tasvirlash, Qodiriy shaxsiyatidagi o'sish-o'zgarishlarni, ***"Yig'indi gaplar"***dan oziqlangan voqelikni ana shu tariqa yorqin ranglarda namoyon etilishi yuqoridagi mulohazalarimizni to'laqonli dalolatlab beradi.

Badiiy psixologizmning syujet va kompozitsiyaga bevosita ta'siri, avvalo, xarakter ruhiyati va voqelikning yuzaga chiqish fragmentlari bilan o'lchanadi. Chunki voqelikning shiddatli oqimi, badii-tasviriy vositalar trakibida o'zgarib, turlanib turishi tabiiydir. Voqelikning bu tarzda turfalanishi, syujetning yechim tomon siljishida qo'l keladi. Kulminatsion nuqtalarda ham, voqelikning joriylanishida ham hayotiy ziddiyatlar avj nuqtalariga chiqadi. Masalaning nazariy qonun-qoidalariga diqqat qilinsa, hayotiy ziddiyatda – muallif va yozuvchi, kitobxon va jamiyat a'zolarining to'qnashuvi namoyon bo'lib, asl haqiqatning mavjud faktlar bilan to'yintirilishida muhim atribut vazifasini o'taydi. A.Qodiriy asarlarida psixologizm muammosi bilan jiddiy shug'ullangan prof H.Umurov qayd etishicha "Psixologizmning analitik prinsipi XIX asrda G'arbiy Yevropa va rus adabiyotida (Stern, Stendal, Lekrmontov) yuzaga kelgan bo'lib, bu prinsip L.N.Tolstoy tomonidan juda rivojlantirildi. U bu prinsipning hali ochilmagan qirrasini - "qalb dialektikasi" shaklini kashf qildi. Hayotning har xil tomonlarini badiiy aks ettiruvchi, bir-biri bilan dialektik aloqada bo'lgan epika va psixologizm (tashqi koinot bilan ichki koinot)ning mustahkam uyg'unligi va uning go'zal ifodasiga erishdi. Garchi rus adabiyotida analitik prinsip L.N.Tolstoydan oldin yuzaga kelgan bo'lsa-da, unda qahramon psixologiyasi harakatda aks etadi, uning xatti-harakatlarida fikrlar va tuyg'ular oqimi beriladi. Asar qahramonlari kechinmalarini avtor (boshqaruvchi)gina emas, balki

qahramonlarning o'zlari ham o'z hissiyotlarini, hayotiy tushunchalarini analiz qiladilar. Lekin bu prinsip faqatgina Pechorin obrazida namoyon bo'ladi, xolos"⁷¹. Haqiqatdan ham, H.Umurov psixologizm prinsiplarini keng miqyosda talqin qilib, o'zbek romanchiligida bo'y ko'rsatayotgan shaklu shamoyillarni sinchiklab o'rganadi.

Badiiy xarakter yozuvchi yoki san'atkorning eng muhim iztirob va intilishlari hosilasida yuzaga keladigan murakkab jarayon ekanligi barchamizga ma'lumdir. Badiiy xarakter haqida so'zlaganda, ijod psixologiyasida shunday holat bo'ladiki, yozuvchi muayyan bir vaziyat, holatda o'z oldiga katta rejalarni tuzadi. Shu maqsad asosida ijodiy konsepsiyasini tartiblashtiradi. Badiiy xarakter haqida rus olimlaridan M.Baxtin, Yu.Borev, V.Xalizev, A.B.Esin, L.I.Timofeev, N.D.Tamarchenko monografik tadqiqotlari¹, o'zbek adabiyotshunosligida M.Qo'shjonov, B.Sarimsoqov, T.Boboev, E.Xudoyberdiev, U.Normatov, A.Rasulov, Q.Yo'ldoshev, S.Meliev, A.Ulug'ov, D.Quronov, B.Karimov, U.Jo'raqulov singari olim va munaqidlar asarlarga munosabat bildirib, ijodkorlarning xarakter yaratish mahoratiga to'xtilganlar².

⁷¹ Umurov H. O'zbek romanida psixologizm prinsiplari, shakllari va vositalari. –T., "Turon-iqbol". 2011. –B.239.

¹ Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М. Художественная литература, 1972; Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. – М.: Просвещение, 1971; Тамарченко Н.Д. Теория литературы. – М.:Академа, 2004; Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы. – М.: Просвещение, 1988.

² Qo'shjonov M. Tanlangan asarlar. – T.:Sharq, 2018; Sarimsoqov B.I. Badiiylik asoslari va mezonlari – T.: Fan, 2004. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiётshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha lug'ati. – T.:O'qituvchi, 1983. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O'zbekiston, 2002; Xudoyberdiev E. Adabiётshunoslik kirish. – T.: Sharq, 2008; Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – T.: Sharq, 2007; Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – T.:Yangi asr avlodi, 2006.; Yo'ldoshev Q., Yo'ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. – T.: Kamalak., 2016; Meliev S. So'zu so'z. – T.: Sharq, 2020; Ulug'ov A. Adabiётshunoslik nazariyasi. – T.: G'afur G'ulom, 2017; Quronov D. Adabiётshunoslikka kirish. – T., Abdulla Qodiriy, 2004. Quronov D. Adabiёт nazariyasi asoslari. – T.: Navoiy universiteti, 2018.; Quronov D. Adabiёт nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018; Karimov B. Ruhiyat alifbosi. – T.: G'afur G'ulom, 2018; Jo'raqulov U. Qodiriy va roman tafakkuri. – T.: Nurafshon business, 2020; Rasulova U. XX asr o'zbek qissachiligi. – T.: Qamar media, 2020. Do'smuxamedov X.N. Hozirgi o'zbek hikoyachiligida badiiy tafakkur yangilanishi. Filol. fan. nomz. ...diss.– T.: 1995. Xolmurodov A. O'zbek qissachiligi: taraqqiёт va muammolari. Filol. fan. dokt ...diss. – T.: 2008;

umrini yashay boshlaganidan dalolat berardi.

Prof.N. Rahimjonov bu haqda shunday yozadi: "Go'zallik tushunchasining nisbiy ekanligiga sabab, go'zallik haqidagi tasavvur, bilim va ko'nikmaning har xilligi bilan izohlanadi. Aytaylik "go'zallikning o'zi nima?", deb so'ralsa, shayton: "ikki shoxli, to'rt oyoqli, dumi g'o'daygan maxluq", deb javob bersa ajabmas. Ashaddiy futbol muxlisi uchun esa dumaloq to'pdan ortiq chiroyli narsa bo'lmasligi mumkin. Endi, "eng go'zal inson qanaqa bo'ladi", degan savol ko'ndalang qo'yilsa, faylsaufdan tortib shoir-yozuvchigacha, astronomdan tortib agronomgacha, o'quvchiyu turli soha muallimlarigacha o'z bilgichi, saviyasi va dunyoqarashidan kelib chiqib aytadigan fikr-mulohazalari, baholaydigan mezonlari bo'lishi tabiiy. Bir so'z bilan aytganda, tabiat, jamiyat va inson fe'li-faoliyatiga doir go'zallik tushunchalari voqelik singari turfa"⁷². Binobarin, talqin etilayotgan har qanday go'zallik qarshisida yozuvchi yoki shoir o'zigagina tan his-tuyg'ular va ohanglar tizimli yuzaga chiqishi mumkin. Ayniqsa, mazkur qarashlar segmentida nafosatga yo'g'rilgan san'at va adabiyot insonning komilligi hamda ma'naviy butunligini, aqliy-hissiy salohiyati o'ziga xosligini tayin etishi mumkin. Mana shu jarayonda inson dunyo xazinasiga o'z hissasini qo'shish, uni rivojlantirish uchun prdemet vositasini bajarishi lozim degan tushuncha kelib chiqmoqda. Azim Yevropa xalqlari boshidan o'tkazgan ma'naviy-ruhiy tanazzul, tartib hamda qoidalar Joyslar avlodida boshqacha rangda yangraganining sababi ham shu bilan o'lchanadi.

Badiiy psixologizm roman syujeti va kompozitsiyasining ichki harakatini belgilovchi muhim poetik omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Chunki qahramonning ruhiy olami, uning ichki kechinmalari hamda tafakkuridagi ziddiyatlar voqealar rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Syujetning kulminatsion nuqtalarida aynan mana shu ruhiy ziddiyatlar keskinlashib, qahramon xarakterining yangi qirralari ochila boshlaydi. Natijada badiiy

⁷² Rahimjonov N. Istiqlol va bugungi adabiyot. –T: "O'qituvchi". 2012. –B. 74.

asarda tashqi voqealar oqimi bilan qahramonning ichki kechinmalari o'zaro uyg'unlashib, kompozitsion yaxlitlikni yuzaga keltiradi.

Badiiy psixologizmning muhim jihatlaridan biri shundaki, u qahramon xarakterining ichki evolyutsiyasini ko'rsatishga xizmat qiladi. Qahramonning fikrlari, his-tuyg'ulari, shubhalari va iztiroblari orqali yozuvchi inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini ochib beradi. Bu jarayonda ichki monolog, tafakkur oqimi, ruhiy tahlil kabi usullar muhim badiiy vosita sifatida qo'llanadi. Ayniqsa, modernistik adabiyotda bunday psixologik tasvir usullari keng rivojlandi.

Masalan, Jeyms Joys romanlarida qahramonning ichki dunyosi syujetning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'ladi. Stiven Dedalus yoki Leopold Blum obrazlari orqali yozuvchi inson tafakkurining murakkab jarayonlarini tasvirlaydi. Qahramon ongida yuz berayotgan fikrlar oqimi voqealarning an'anaviy ketma-ketligini buzib, syujetning yangi shaklda rivojlanishiga sabab bo'ladi. Bu esa roman kompozitsiyasida yangi badiiy imkoniyatlarni yuzaga keltiradi.

Xuddi shunday psixologik tahlil o'zbek romanchiligida ham muhim o'rin tutadi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida Otabek obrazining ruhiy kechinmalari orqali davr muammolari ochib beriladi. Otabekning yangi fikrli, ma'rifatparvar inson sifatida tasvirlanishi uning ichki ziddiyatlari bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. U eski urf-odatlar bilan yangicha qarashlar o'rtasida qolgan holda murakkab ruhiy holatlarni boshdan kechiradi. Bu jarayon esa roman syujetining dramatik rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, badiiy psixologizm orqali yozuvchi inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ham ochib berishga erishadi. Qahramonning ichki kechinmalari ko'pincha ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda shakllanadi. Shu sababli ham psixologik tasvir vositalari yordamida yozuvchi jamiyatdagi ma'naviy muammolarni

badiiy talqin etadi. Natijada asarda inson ruhiyati va ijtimoiy voqelik o'rtasidagi murakkab dialektika namoyon bo'ladi.

Badiiy psixologizm syujet va kompozitsiya bilan uzviy bog'liq holda roman poetikasining muhim tarkibiy qismlaridan birini tashkil etadi. U orqali yozuvchi inson ruhiyatining nozik qatlamlarini ochib beradi, qahramon xarakterining evolyutsiyasini ko'rsatadi hamda voqelikni chuqur falsafiy mazmunda talqin etishga erishadi. Shu jihatdan qaraganda, badiiy psixologizm zamonaviy romanchilikning estetik imkoniyatlarini kengaytirgan muhim badiiy hodisa sifatida baholanishi mumkin.

XX asr ibtidosida Joyslar avoldining yana bir yutug'i ilm-fan taraqqiyoti, ixtiro hamda rivojlanishlar chorrahasida bilish jarayonining nihoyatda tez suratlarda barkamollashgani bilan ham belgilanadi. Chunki Joyslar avlodi ana shu mezonni mifologik kartinalar negizida qayta kashf etish hadisini teran va tezlik bilan yuzaga chiqarishga katta imkon topa bildi. Ong va tuyg'uda kechadigan his-hayajon, tushunchalar kolliziyasi fikr hamda mantiq programmasini turfalashtirdi. Bu esa o'z-o'zidan san'atga boshqacha yondashish lozimligini ham keltirib chiqara boshladi. Bir xillikdan tiyilish bu davr avlodining eng muhim ifoda birligidan biri ekanligi yanada ko'zga tashlana boshladi.

Joys norverg san'atkori Henrik Ibsen timsolida shunday bir san'atkorni kashf etdiki, uning uchun yuksak san'at oliy haqiqatni axtarishdek ahamiyatli bir ma'no kasb etdi, qolaversa, yuksak qadriyatga ega bo'ldi. aynan shu bois Joys ma'naviyat, odob-axloq, din, siyosiy yoki millatchilik ruhidagi mafkura singari shaxsiy va jamoaviy "o'z-o'zini aldash" kabi ko'rinishlarni rad etardi. Darhaqiqat, Joys asarlarida Ibsen ijodi talqinidagi shunday g'oya va mavzular ham borki, ularning kelib chiqishi aslida, Fridrix Nisshe falsafasiga borib taqaladi. Masalan, Joys o'zining "Drama va hayot" (Drama and Life, 1900) essesinde hayotdagi o'tkinchi va tasodifiy narsalarni qayd etuvchi (san'atdan quyida turuvchi – M.X.) "adabiy" drama shakli va mazmuni inson ruhining san'atga bo'lgan instinktiv

intilishini taqozo etuvchi azaldan mavjud bo'lgan "drama" o'rtasida yer bilan osmoncha farq borligini alohida ta'kidlab o'tdi. U mazkur essesda "Drama hayotning botiniy mohiyati zamiridagi mazmundan o'z-o'zidan tug'iladi va uning tengquri bo'ladi", deb yozgan edi"⁷³. Darhaqiqat, 1900-yillardagi Jeym Joysning adabiy qarashlari endi kurtak yoza boshlagan bir go'zal izlanishlar pallasiga to'g'ri keladi. Hali roman janriga qo'l urmagan, fikru mulohazalari qaysi yo'ldan "yurish sharti" bilan andarmon bo'lgan izlanishlar birligida hayot haqiqatini ramziy yoki noramziy ifodalash muhimligini o'ylardi. Ayni damda, Jeyms Joysning o'z vatanini tashlab chiqib ketishi orqasida katta izlanish, hayotning puchmoqlariga kirib borish muhimligini anglatish konsepsiyasi ufurib turgandi. Mana shu nafosatga tashnalik Joysni universal talqin – mif va inson ikkiligida yaxlit organizm sifatida talqin etish masalasi ko'ndalangligcha turardi.

Nemis faylasufi Fridrix Nisshening "Tabiat... birovlarini kuchli ruh, boshqalarni kuchli mushaklar va ehtiros bilan ajratadi, uchinchilari esa na unisiga, na bunisiga ega – o'rtamiyona odamlar... Zero, faqat ma'naviy jihatdan yuksak qobiliyat sohiblarigina chiroylilikka, go'zallikka doxil bo'lish huquqiga egadirlar; faqat ularga xos ezgulikkina zaiflik emas... Ular qiyinchiliklarni o'zlari uchun ne'mat deb biladilar, o'zgalarni ezib tashlaydigan og'irliklar bilan o'ynashadilar, bu ular uchun orom hisoblanadi"⁷⁴. Haqiqatdan ham, go'zallik va yovuzlik o'rtasidagi qadim va azaliy kurash olmon faylasufining butun hayotini keng mashstabda talqin etishga imkon beruvchi katta siyosiy va ijtimoiy bilishning yorqin namunasidir. Odamlarning botiniga kirib borgani sari olim ham o'zining qarashlarini teranlashuvini diqqat bilan angla boradi. F.Nisshe ana shu konsepsiyasini o'z asarlarida haqqoniy ifodalab bera olgan katta faylasuflardan biri edi. Joyslar avlodi Nisshe falsafasiga tayanar,

⁷³ Xolbekov Muhammadjon. XX asr modern adabiyoti manzaralari. –T: "Mumtoz so'z". 2014. –B.84-85.

⁷⁴ Fridrix Nisshe. Zardo'sht tavallosi. <https://kh-davron.uz/kutubxona/qoshimcha/rivoyatlar/nitshe-zardushd.html>

jamiki odam bolalari hali zabt eta olmagan cho'qqilar hali zamon oldinda ekanligini mif va hayot birligida ochiqlab berishga shoshilib yashardi. Bunday vaziyatda yozuvchi o'z-o'zidan teranliklarga kirib borar, hayotning og'riqlarini o'zlariga zahar emas, baxtli tuhfa sifatida, ma'naviy tugallik deb qarashga intilardi:

"Qadim-qadim zamonda Mo'-mo' degan bir govmish yo'l yurib, yo'l yursa ham mol yurib kunlardan bir kun jajji-yoqimtoy bolakayga duch kelibdi, bolakayning ismi Bo'-bo' ekan..."

Bu ertakni otasi unga aytib berardi: otasi unga oyni orqali boqardi. Uning yuzi sertuk eid.

Bo'-bo' degani o'zi edi. Mo'-mo' Bettti Bern yashaydigan tomondagi yo'ldan yurib kelardi: Betti limonli obaki sotardi.

Yam-yaxshil maysazorda

Gullarni xushro'y atirgul.

U shu qo'shiqni kuylardi. Bu uning qo'shig'i edi.

O, yashil, beorom...

To'shagini ho'llab qo'yganingda, oldin issiq bo'ladi, keyin muzday. Onang klyonka to'shaydi. Undan g'alati hid taraladi.

Onasidan taralgan hid otasinikidan yoqimliroq. Onasi uni o'yinga tushsin deb royalda dengizchilar raqs kuyini chaladi. U o'yinga tushadi..."⁷⁵.

Irland yozuvchisi Jeyms Joysning "Musavvirning yoshlikdagi shamoyili" nomli avtobiografik romani hayot haqiqatini o'ziga xos tarzda mif va ramzlar, din va siyosat birligida talqin qilgan ilk asaridir. Unda yozuvchi o'z bolaligini Stiven qiyofasida tasvirlashga erishadi. Keltirilgan lavhada yozuvchi romanni mifologik ishoralar – ertak bilan boshlaydi. Inson ma'naviy hayotining go'zalligi ham, bor-butinicha nafosati ham ertakdan iborat ekanligi, ana shu mifga talpinish o'zlikni anglashning birinchi zinapoyasi deb tushuntirishga harakat qiladi. Jeyms Joys ota-onasining pinjida o'tgan sohir bolalikni chamalar ekan, ana shu metamorfozalar Oliy Nizomga olib boruvchi, pul va hokimiyat, mansab va boylik ilinjida har qanday

⁷⁵ Jeyms Joys. Musavvirning yoshlikdagi shamoyili. –T: "Akademnashr". 2021. –B.5-6.

iblis qilolmagan ishni qilish odamzod qavmining qoniga singib ketgan tubandlik ekanligini ko'rsatib berishga harakat qiladi. Demak, roman muqaddimasi – bolalik, yoshlik va keksalikka olib oruvchi mantif modifikatsiyasini talqin qilishga imkon tug'dirayotgan voqelik tizmalaridan iborat ekanligi ayon bo'la boradi. Insonning ma'naviy olamida yashirinib yotgan sirli-sehrli kuchlar hamisha o'zini-o'zi band etgan qatlam ruhida teran aks-sado berishi tayin. Uning natijasida odamlar har bir vaziyatda o'zini-o'zi rivojlantirib borish, sintergetik o'sish muhimligini dalolatlaydi.

Umuman ijodiyotida Imom G'azzoliy an'analari sintezi yaqqol kuzatiladi. Shu bois, "Ihyoi ulum ad-din" ("Din haqidagi ilmlarning jonlantirilishi") nomli kitobida muhabbatni nafaqat hissiy, balki aqliy bilishning ham mahsuli deb ataydi. Mufakkirning fikrlariga ko'ra muhabbatning shet turi mavjud: 1. Insonning o'ziga, o'z kamoloti va sog'-salomatligiga muhabbati. 2. Insonning o'z hayotini davom ettirishini ta'minlovchi, uni asrovchi, undan turli muxlikotni (halok etuvchilarni) nari tutuvchi va'line'matlariga muhattbati. 3. Insonning, garchand shaxsan o'ziga yaxshilik qilgan zotlarga yaxshilik bilan javob bermagan bo'lmasa ham, boshqa insonlarga xizmat qilgan, muruvvat ko'rsatgan zotlarga muhabbati. 4. Insonning tashqi yoki ichki qiyofadagi barcha go'zallikka muhabbati. 5. Insonning o'zi bilan botiniy (ichki), yashirin o'xshashligi bor bo'lgan zotlarga muhabbati. Keltirilgan muhabbat shakllari har bir shaxsning hayotdagi kamolotini, zamin bilan bog'liq, jamiyat bilan uyg'unlashuvini kafolatlaydi. Shaxs ana shularga amal qilib, muhabbat bilan hayot kechirsa faqatgina lazzat, ajr, Allohning saodatiga, jannatiga, yaxshilarning muhabbatiga sazovor bo'ladi degan g'oya kelib chiqmoqda.

Buyuk rus tanqidchisi va nazriyotchisi M.M.Baxtin shunday yozadi: "Muallif va qahramonning hayoti va uning tutgan o'rnini uch xil tasniflash mumkin. Birinchisi shuki, yozuvchi o'z qahramonlari ustidan hukmronlik qila olmaydi, uni o'z yo'rig'ida boshqara bilmaydi, qahramon o'z xatti-harakati bilan yechim tomon boradi.

Ikkinchidan, muallif qahramonlarini o'z yedyaliga to'laligicha bo'ysundirib olgan bo'ladi, ular ko'pincha yozuvchi istagini yuzaga chiqarish bobida harakat qiladilar. Uchinchi jihat shuki, qahramonning o'zi muallifga evrilib, go'yoki sahnada rol ijro qilayotgandek o'z shaxsiy hayoti haqida o'zidan-o'zi estetik mulohaza yurita boshlaydi"⁷⁶. Binobarin, gap muallif va qahramon haqida borar ekan, mana shu mavjudlik jumbog'ida – o'lim sari borayotgan har qanday obrazning tub mohiyatida estetik qamrov ham suradi. O'limdan go'zallik axtirish, uning chiroyli hayot nashidasi o'laroq yashab o'tishiga ishonish va inontirish faqatgina yozuvchining badiiy mahoratiga tan!

Jeyms Joysning "Musavvirning yoshlikdagi shamoyili" asrida esa Stiven Dendalusning cherkov va din, siyosat hamda axloq haqidagi qarashlarida tashqi muhit ta'sirida shakallanayozgan – bolalik va yigitlik orasidagi o'sish-o'zgarishlar modifikatsiyasi ramzlar timsolida aks-sado beradi. Natija shunga olib keladiki, Joys Kafka kabi bir pretmetning ikki xil qiyofasini emas, bir odamning yuzlab qiyofasini akslantira oladi. Dunyodagi barcha tirik jonki bor, Joys murakkab uslubiga tushib qolgudek bo'lsa, undan omon chiqishi mushkul bo'lib tuyuladi:

"Otasining ovozi esa yonginasida eshitilib turardi.

– Sen voyaga yetib, odamlar qatoriga qo'shilganingda, Stiven, men shunday bo'lishiga judayam ishonaman, bir narsani unutmagin: qanday ishning boshini ushlashingdan qat'i nazar, doimo intizomli, insofli odamlar bilan birga bo'l. Yoshlik paytimda men, ochig'ini aytib qo'ya qolay, davrimni surganman, do'stlarim ham halol. Olijanob yigitlar edi. har qaysimiz qaysidir tomondan ustun edi. birovning ovozi zo'r bo'lsa, boshqa birovida artistlik qobiliyati bor edi, kimdir bir band she'rni qoyil qilib aytolsa, kimdir eshkak tortishda tengi yo'q yoki tennis kortida birinchi edi, boshqasi latifani suv qilib ichardi. Biz hamma narsaga qiziqardik, hayotdan ko'nglimiz tusagan, qo'limiz yetgan hamma narsani olardik, xullas, o'z shavqu sharobimizda

⁷⁶ Бахтин М. Эстетика словесного творчество. Искусство, -М.: 1979. –С.18-23.

*yashaganmiz, biroq bundan biror-bir insonning ko'ngliga zig'ircha og'irlik botmagan"*⁷⁷.

Vasiyatnoma kabi tasvirlarda Stivenga xos bilimdonlikni yozuvchi o'z qalbi shuuridan o'tkazgan holda yuzaga chiqaradi. Chunki Stiven – aynan Joysning o'zi.

Umuman olganda, badiiy uslubning yuzaga kelishida G'arb adabiy an'analari hamda Jeyms Joys mifologiyasining ta'siri nihoyatda kuchliligi bilan ajralib turadi. Boshqa-da, yozuvchilar asarlari har bir o'zbek yozuvchisiga tuganmas shakliy-mazmuniy ilhom berganligi ayonlashadi. Chunki har bir qahramon qalbida olam-olam ma'no yashirin. Yozuvchi ana shu bo'shliqni yangi zamon mifologiyasi sifatida yuqori bosqichga olib chiqdi. Bunday o'sish o'zgarishlar har bir davr hayotini katta planda yuzaga chiqishida muhim rol o'ynaydi. Ana shu tamoyil inson irodasining tuganmas xazinasi ekanligini dalolatlaydi. Demak, yozuvchi qanday mavzuga qo'l urmasin, o'zining imkon qadar hayotiy aqidalariga bo'ysunishga mahkumdur. Ana shundagina hayot va adabiyot orasidagi muayan bog'lanishlar o'z mevasini bera boshlaydi.

Bob bo'yicha xulosa

Bob bo'yicha nazariy-ilmiy mulohazalarni umumlashtirib quyidagicha xulosaga keldik:

1. Aytish joizki, XX asr ibtidosida universal mifologiya har bir davrning muhim shartlaridan biri ekanligi ayonlashadi. Chunki Kafka yoki Kamyu, Prust yoki Joys olib borgan yangilanishlar modifikatsiyasi, klassik davr Yevropa adabiyotining mantiqiy vosi bo'lish bilan bir qatorda, turli xil shtrixlarni bergan ifoda madaniyati ham sanaladi. Mifologik tadbil negizida olam va odam munosabatlari, Xurshid Do'stmuhammad romanida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ana shu metamorfoza tig'izlashuvi insoniy munosabatlar yaxlitligiga rahna solmaydi, aksincha o'zbek adabiyotining rivojiga

⁷⁷ Ko'rsatilgan adabiyot: -B. 120-121.

katta ulush bo'lib qo'shiladi. Demak, Kafka yo'li, Kamyu yo'li yoki Joys an'analari sintezi o'zbek yozuvchilariga katta impuls bergan bo'lsa, uni bugungi qiyofasiga shunchalik jozibadorlik baxsh etganligida deb bilish lozim.

2. Ruhiy tahlilda xarakter evelyusiyasi – bosqichma-bosqich rivojlanib boradi. Ayni tamoyil idrok materiali bilan payvandlanar ekan, “Donishmand Sizif” romanidagi g'oyalar kolliziyasida barqarorlashadi. Bunday tasvir ko'p qamrovliligi XX asrning 90-yillaridan keyin yuzaga chiqdi desak, haqiqatni aytgan bo'lamiz. Sizif bilan muallif nutqi muloqotida hamma masalalar oydinlashar ekan, haqiqatdan ham, odamning boqiy umr ko'rishiga qarshi turishi ayonlashadi. U tosh ramzini shu qadar yaxlitlashtiradiki, fsus va nadomatlar esa kishini faqat iztirob chekishga yetaklaydi.

3. Yangi o'zbek romanchiligida mifologik obraz talqiniga doir izlanishlar keyingi yillarda anchayin mukammalashib bormoqda. Xurshid Do'stmuhammadning ko'pgina asarlarida bu haqda iliq fikrlar bildirilayotir. Yan'i yozuvchi o'z qurbi-idroki bilan so'z aytar ekan, har bir masalaga milliy mental xususiyatlar negizida baho berishni odat qilganligida seziladi. Ayni damda, inson hamisha izlanishga o'zini safarbar etar ekan, yangi-yangi uflarni zabt etish payida bo'ladi. Yozuvchi badiiy kredosi talqin va tasvir uzviylikini ta'minlab, xilma-xil mantiqning dialektik birligini yuzaga chiqarishini to'laqonli dalolatlab bermadi.

4. Badiiy psixologizm va xronotop uyg'unligi zamonaviy roman poetikasining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, zamon va makon sintezi qahramon ruhiyati bilan uzviy bog'langan holda tasvirlanadi. “Donishmand Sizif” romanida ham voqealar makoni va syujet vaqti qahramon tafakkuri bilan chambarchas bog'liq tarzda ochib beriladi. Natijada badiiy xronotop faqat voqealar sodir bo'ladigan fon emas, balki qahramonning ichki olami va ma'naviy izlanishlarini ifodalovchi poetik vositaga aylanadi. Bu esa roman kompozitsiyasining yaxlitligini ta'minlab, asarning falsafiy qatlamini yanada chuqurlashtiradi.

5. Adabiy ta'sir jarayonida jahon adabiyoti tajribasi bilan milliy adabiy tafakkur o'rtasidagi uzviylik muhim ahamiyat kasb etadi. Kafka, Kamyu, Prust va Joys kabi yozuvchilar ijodida shakllangan modernistik yondashuvlar o'zbek romanchiligida ham yangi badiiy izlanishlar uchun zamin yaratdi. Xurshid Do'stmuhammad asarlarida bu ta'sir to'g'ridan-to'g'ri taqlid tarzida emas, balki milliy mentalitet va ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Natijada jahon adabiy tajribasi va milliy badiiy an'analarning sintezi yuzaga kelib, zamonaviy o'zbek romanchiligining estetik imkoniyatlarini kengaytiradi.

6. Zamonaviy o'zbek romanchiligida mifopoetik tafakkur, psixologik tahlil hamda falsafiy umumlashtirishlar uyg'unligi yangi badiiy konsepsiyalarni yuzaga keltirmoqda. Xurshid Do'stmuhammad ijodida ham inson taqdiri, ma'naviy izlanishlar va hayotning murakkab falsafiy mohiyati chuqur badiiy talqin etiladi. Yozuvchi romanlarida insonning o'zligini anglash jarayoni, uning ruhiy iztiroblari va ma'naviy kamolot sari intilishi asosiy g'oyaviy yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda, yozuvchining badiiy izlanishlari zamonaviy o'zbek adabiyotining rivojiga muhim hissa qo'shayotgan estetik hodisalardan biri sifatida baholanishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, zamonaviy o'zbek romanchiligida mifopoetik tafakkur, badiiy psixologizm hamda xronotop tamoyillarining uyg'unligi roman poetikasining muhim estetik asoslarini tashkil etmoqda. Xususan, jahon adabiyotida yuzaga kelgan modernistik izlanishlar o'zbek yozuvchilari ijodida yangi badiiy talqinlar paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Kafka, Kamyu, Prust va Joys kabi adiblar asarlarida shakllangan falsafiy-psixologik tafakkur milliy romanchilikda ham yangicha uslub va tasvir imkoniyatlarini yuzaga keltirdi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Xurshid Do'stmuhammad romanlari zamonaviy o'zbek adabiyotining badiiy-estetik rivojida muhim o'rin tutadi. Yozuvchi o'z asarlarida mifologik obrazlar,

ramziy talqinlar hamda chuqur psixologik tahlil orqali inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni badiiy jihatdan talqin etishga erishadi. Ayniqsa, "Donishmand Sizif" romanida mifologik obrazlarning zamonaviy talqini, inson ruhiyatining murakkab qatlamlari hamda hayot falsafasi o'zaro uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi.

Natijada yozuvchining badiiy izlanishlari milliy romanchilikda yangi estetik mezonlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Bu jarayonda jahon adabiy tajribasi bilan milliy badiiy an'analarning sintezi yuzaga kelib, o'zbek romanining g'oyaviy va poetik imkoniyatlari yanada kengayadi. Xurshid Do'stmuhammad ijodi nafaqat milliy adabiyot taraqqiyotida, balki zamonaviy roman poetikasining shakllanishida ham muhim ilmiy va estetik ahamiyat kasb etadi.

QAYDLAR UCHUN

Baisov Axmad Sabijonovich

**JEYMS JOYS VA XURSHID DO‘STMUHAMMAD
ROMANLARIDA BADIY XRONOTOPNING
POETIK SHAKLLARI HAMDA
MA’NAVIY-MA’RIFIY G‘OYALAR UYG‘UNLIGI**

Monografiya

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: S. Meliquziyeva

Musahhih: M. Yunusova

Sahifalovchi: D. Toshboltayev

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.

Bosishga ruxsat etildi 16.05.2026 y.

Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog‘ozi. “Cambria”
garniturası. Hisob-nashr tabog‘i. 7.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 63.

«ZEBO PRINTS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha.

+998 (94) 673-66-56, +998 (97) 017-01-01